



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРЛИГИ  
Х. СУЛАЙМОНОВА НОМИДАГИ  
РЕСПУБЛИКА СУД ЭКСПЕРТИЗАСИ МАРКАЗИ


# ЎЗБЕКИСТОН СУД ЭКСПЕРТИЗАСИ



Хуқуқий, ижтимоий, илмий-амалий

ЖУРНАЛ

2022 №3(6)



Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 апрелдаги 315/5-сон қарори билан “Ўзбекистон суд-экспертизаси” илмий журнални юридик ва сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий дараҷасига талабгорларнинг диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

### МУНДАРИЖА

Халилов А.У. Замонавий суд экспертиза имкониятлари ва суд экспертиза ўтказида адвокатнинг роли.....	2
Нуридинов С.С. Шахсга доир маълумотлар хавфсизлигини таъминлашнинг хукукий асослари: муаммо ва ечимлар .....	7
Raxmanov Sh.N. Inson huquqlarini ta'minlashda sud ekspertizasining o'mni .....	11
Астанов И.Р., Астанов Ш.Р., Жиноят ишлари бўйича маҳсус билимлардан фойдаланиш, экспертиза институтларини тайинлаш ва ўтказиш самародорлинини ошириш .....	17
Axmedova D.Sh. Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida DNK ekspertizasi o'tkazish masalalari .....	23
To'rayeva D.A. Lingvistik ekspertizaning o'zbek tili rivojlanishidagi o'mni .....	27
O'rakov J.N. Konfliktli matnlarni lingvokriminalistik taddiq qilish turlari tavsifi .....	31
Soliyeva N. Ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka qarshi matn tiplari, belgilari va xususiyatlari .....	36
Ibrohimov J.A. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish uchun jinoiy javobgarlik va uni takomillashtirish istiqbollari .....	40
Kvitkov Y. Fransiya va O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritishning ba'zi jihatlari: Some aspects of administrative legal proceedings in France and Uzbekistan.....	48
Madrimov X.K. O'zbekiston hududida mustaqillikka qadar tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish bilan bog'iq ma'muriy nizolarni sudda ko'rishning rivojlanish tarixi.....	53
Omonov R.R. Davlat hokimiyyati organlari tizimiga "Elektron hukumat"ning joriy etilishida xorij va milliy tajriba.....	60
Kaxarova M. Tinchlik va osoyishaltikni asrab-avaylash – davr talabi .....	66
Kamalov Sh.Sh., Bobonazarov S.S. Yosh yigitning yurak miksomasidan o'lim holati tadqiqi .....	71
Tursunova B.X., Nurmatova M.I. Verapamil dori vositasidan suitsid holatlari .....	75
Xasanova D.Y. Toshkent viloyatida 2017–2021-yillarda davomida osilish natijasidagi mexanik asfiksiyadan vafot etganlarning umumiyl tahlili.....	78
Ахмедова Р.К., Пак Э.В. Возможности метода внутреннего стандарта в количественном хромато-масс-спектральном анализе α-пирролидиноловероферона .....	82
Samadova F.Z. Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirish masalalari.....	91
Kudratov S. M. Sud-ekspertiza amaliyotida yangi "virtual autopsiya" taddiqotining imkoniyatlari, unga bo'lgan talab va ehtiyojlar .....	96
G'ofurjonov A., Xasanov A. Kriminalistik ekspertiza va uning turlari .....	101
Абдурасулов Ў.М. Оила – фуқаролик жамиятининг мухим институти .....	105
"Ўзбекистонда суд экспертизасининг долзарб муаммолари ва уларнинг илмий инновацион ечимлари" мавзусида ташкил этилган халқaro илмий-амалий конференция хусусида .....	110

### Муассис:

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги  
хузуридаги Х.Сулаймонова номидаги  
Республика суд экспертизаси маркази

### Бош муҳаррир:

Акрам ХАЛИЛОВ

### Бош муҳаррир ўринбосари:

Учкун УЗАКОВ

### Масъул котиб:

Нуридин ҚОЛҚАНОВ

### Таҳрир хайъати:

Акбар ТАШКУЛОВ

Актам МУҲАММАДИЕВ

Жамшидхон НУРИТДИНОВ

Истам АСТАНОВ

Нарзулла ЖЎРАЕВ

Одил МУСАЕВ

Эшмуҳамад КАДИРОВ

Шуҳрат РАХМАНОВ

Толибжон ОРЗИЕВ

Сайдиллаҳоджа САИДХОДЖАЕВ

Ўқтам ШАКАРОВ

Нилуфар ХАЛИЛОВА

Надежда КОРАБЛЁВА

### Масъул муҳаррир:

Хусан НИШОНОВ

### Дизайнер:

Фахриддин РАҲИМОВ

### Саҳифаловчи:

Малоҳат ТОШОВА

“Ўзбекистон суд экспертизаси” хукукий, ижтимоий, илмий-амалий журнали  
Ўзбекистон Республикаси Президенти  
Администрацияси хузуридаги Ахборот ва оммавий  
коммуникациялар агентлигига 2021 йил 4 июня  
1185-сонли гувоҳнома билан рўйхатга олинган.

### Таҳририят манзили:

100105, Тошкент шаҳри, Миробод тумани  
Фарғона йўли кўчаси.

### Телефонлар:

(71) 209 11 55 (153 ички), (93) 171 37 74

web-site: [www.sudex.uz](http://www.sudex.uz)

e-mail: [info@sudex.uz](mailto:info@sudex.uz)

[facebook.com/sudex.uz](https://facebook.com/sudex.uz)

[telegram.me/sudex.uz](https://telegram.me/sudex.uz)

Журнал 1.11.2022 йилда босмахонага топширилди.  
Коғоз бичими 60x84 1/8. Офсет усулида босилди.  
Шартли 6,75 босма табок. Буюртма № 001. Адади 100.  
“Reliable Print” МЧЖ босмахонасида чоп этилди.  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани,  
Кушбеги кўчаси, 6-й.

# ЗАМОНАВИЙ СУД ЭКСПЕРТИЗА ИМКОНИЯТЛАРИ ВА СУД ЭКСПЕРТИЗА ЎТКАЗИШДА АДВОКАТНИНГ РОЛИ

*Халилов Акрам Утамуродович,  
Х. Сулаймонова номидаги  
Республика  
суд экспертизаси маркази  
директори*

## АННОТАЦИЯ:

Мақолада мамлакатимизда суд экспертиза соҳасини янада ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар ҳамда суд экспертиза жараёнида адвокатларнинг иштирокини тъминлаш юзасидан қонунчиликдаги янгиликлар таҳлил этилган.

**Калим сўзлар:** суд экспертиза, эксперт хуносаси, адолат, адвокат, адвокат сўрови, судга қадар тайёргарлик.

## АННОТАЦИЯ:

В статье анализируется проводимая работа по дальнейшему развитию отрасли судебной экспертизы в нашей стране, а также новации законодательства, связанные с обеспечением участия адвокатов в процессе судебной экспертизы.

**Ключевые слова:** судебная экспертиза, заключение эксперта, правосудие, адвокат, адвокатский запрос, подготовка к судебному разбирательству.

## ANNOTATION

The article analyzes the ongoing work on the further development of the field of forensic examination in our country, as well as the innovations in legislation related to ensuring the participation of lawyers in the forensic examination process.

**Key words:** forensic examination, expert opinion, justice, lawyer, lawyer's request, preparation before trial.

Фуқароларнинг хуқуқ ва эркинликларининг кафолатли ҳимоя қилинишида, қонун устуворлиги ҳамда хуқуқ тартиботни таъминлашда, жиноятчиликнинг олдини олиш ва уни фош этишда суд экспертизалари тадқиқотлари натижалари муҳим аҳамиятга эга.

Сўнгги йилларда барча соҳалар қатори, суд-хуқуқ тизимининг ажralмас қисми, муҳим бўғинларидан саналган суд-экспертлик фаолиятини янада такомиллаштириш борасида ҳам изчилик билан ислоҳотлар амалга оширилиб, ушбу соҳани ривожлантириш бўйича кейинги 5 йил ичидаги қабул қилинган Муҳтарам Президентимизнинг тегишли фармон ва қарорларига асосан ушбу соҳадаги норматив ҳужжатлар таъкомиллаштирилиб, суд эксперти кадрларининг касбий малакасини ошириш, соҳани замонавий, юқори аниқлиқдаги таҳлил воситалари билан жиҳозлаш, суд экспертизаси жараёнига адвокатлар ҳамда нодавлат суд экспертилари иштирокини таъминлаш орқали одил судловни таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 17 январдаги “Суд-экспертлик фаолиятини янада таъкомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 4125-сон қарорига асосан мамлакатимизда илк бор нодавлат ташкилотлар томонидан суд-экспертлик фаолиятини амалга оширишнинг хуқуқий асослари яратилди ва Ҳукуматимизнинг 2020 йил 24 марта 180-сонли қарори билан нодавлат суд-экспертиза ташкилотлари фаолияти тартибга солиниб, ҳозирги кунда 3 та нодавлат суд экспертиза ташкилотида 19 нафар нодавлат суд экспертилари тегишли фаолият олиб бормоқда.

Х. Сураймонова номидаги Республика суд экспертиза марказида (Марказ) экспертиларнинг малакаси ва хуқуқий билимларини замон талаблари даражасида оширишини таъминлаш мақсадида ўқув маркази фаолияти йўлга қўйилган. Ҳозирда ўқув марказида давлат суд экспертиза муассасалари суд экспертиларининг хуқуқий билимларини ошириш билан биргалиқда янги ташкил этилаётган нодавлат суд-экспертиза ташкилотлари экспертиларини қайта тайёрлаш ҳамда малакасини ошириш ишлари амалга ошириб келинмоқда.

Бугунги кунда Марказда нафақат суд экспертиза тадқиқотларини амалга ошириш,

балки янги экспертиза турлари ва услубиётларни жорий этиш бўйича ҳам кенг кўламли илмий-тадқиқот ишлари амалга оширилмоқда. Олиб борилган илмий изланишлар натижасида кейинги 3 йилда 8 та (*Суд-лингвистика, Суд-компьютер-техник, Суд-автомобил йўллари, Суд-электротехника, Суд-психологик, Озиқ-овқат маҳсулотлари суд экспертизаси, Суд-солик, Озиқ-овқат маҳсулотларини баҳолаш экспертизаси*) янги экспертиза турлари жорий қилиниб, фаолиятга таббиқ этилди, натижада Марказда амалга ошириладиган экспертиза турлари 44 тадан 52 тага, мутахассислик йўналишлари эса 71 тага етказилди. Шунингдек, фуқароларимиз ҳамда суд-тергов органларининг суд экспертиза хulosаларига бўлган эҳтиёжларини қаноатлантириш мақсадида 2022 йилдан янги “Суд компьютер-техника бўлими” ташкил этилди.

Ушбу соҳадаги ислоҳотлар изчилик билан давом эттирилиб, 2021 йил 5 июлда қабул қилинган Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасида суд-экспертлик тизимини таъкомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони билан Ўзбекистон Республикасида суд-экспертлик фаолиятини ривожлантиришнинг 2021 – 2025 йилларга мўлжалланган концепцияси ва уни амалга ошириш бўйича 2021 – 2023 йилларда амалга ошириладиган ишлар юзасидан “Йўл харитаси” тасдиқланди.

Бунда, авваламбор соҳадаги норматив-хуқуқий базани таъкомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилди.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси “Суд экспертизаси тўғрисида”ги Қонуннинг янги таҳрирдаги лойиҳаси ишлаб чиқилди. Мазкур янги таҳрирдаги Қонун лойиҳасида қўйидагилар қамраб олинди:

суд экспертиларини тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш масалаларини таъкомиллаштириш;

нодавлат суд-экспертиза ташкилотларининг мақоми, уларга қўйиладиган талаблар, улар томонидан суд экспертизалари ва тадқиқотларини ўтказиш тартиб-таомили ҳамда иш регламентларини белгилаш;

нодавлат суд-экспертлик фаолиятини методик таъминлаш ҳамда тартибга солиш механизмини жорий этиш;

жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатларига асосан экспертлар томонидан бериладиган мутахассис фикрини бериш; қайта экспертиза ўтказиш ваколати бериладиган экспертлар реестрини юритиш тизимини жорий этиш ва унга киритишга доир талабларни белгилаш; маҳсус ваколатли органнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини белгилаш; суд экспертлари томонидан қасамёд қабул қилиш ва касб-этика қоидаларини белгилаш;

иқтисодий, фуқаролик ва маъмурий иш юритишида адвокатга судга қадар тайёргарлик ва суд жараёнида эксперт хulosасини суд муҳокамасида тақдим этиш учун давлат ва нодавлат суд-экспертиза муассасаларида шартнома асосида адвокат сўрови юбориш орқали экспертиза ўтказиш ташаббуси ҳуқукини бериш;

суд-экспертлик фаолиятининг янада ишончлилигини ошириш мақсадида аккредитация ва валидация институтларини жорий этиш каби масалалар ўрин олган.

Хозирда мазкур қонун лойиҳаси тегишли манфаатдор ташкилотлар билан ҳамкорликда ишлаб чиқилиб, Адлия вазирлиги орқали Вазирлар Маҳкамасига киритилди.

Мазкур Фармон ижроси юзасидан 2021 йилнинг 22 ноябрь куни қабул қилинган Ҳукуматнинг 704-сонли қарорига кўра, Республика тарихида илк маротаба Х. Сулаймонова номидаги Республика суд экспертизаси марказининг Суд-экспертлик илмий-тадқиқот институти фаолияти ташкил этилди.

Институт суд-экспертлик фаолияти соҳасига замонавий илмий ёндашувларни қўллаш орқали унинг самарадорлигини ошириш, ушбу соҳадаги илмий-тадқиқот ишларини янги босқичга кўтариш, давлат суд-экспертиза муассасалари ва нодавлат суд-экспертиза ташкилотларига илмий-услубий жиҳатдан кўмаклашиш, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва судларнинг малакали суд экспертиза хulosаларига бўлган эҳтиёжларини доимий равишда ўрганиш орқали суд экспертизасининг янги турлари ҳамда услубиётларини ишлаб чиқиш ва босқичма-босқич амалиётга татбиқ этиш, ривожланган ахборот технологиялари ва инновацияларни кенг жорий қилиш каби вазифаларни бажариб келмоқда. Институт ҳузурида олий таълимдан кейинги институт ташкил этилди.

Институт ташкил этилиши муносабати билан Марказ ҳузурида юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) ва фан доктори (DSc) илмий даражаларини берувчи DSc.07/29.04.2022.Yu.148.01 рақамли Илмий кенгаш тузилди. Ушбу Илмий кенгашда 12.00.09 – “Жиноят процесси. Криминалистика, тезкор-қидирув ҳуқуқи ва суд экспертизаси” ихтисослиги бўйича диссертациялар химоясини ўтказишга рухсат берилди.

Шу билан бирга, Республика тарихида илк бор суд экспертиза йўналишига ихтисослашган “Ўзбекистон суд экспертизаси” номли илмий журнал Марказ томонидан ташкил этилди. Мазкур журнал Олий аттестация комиссияси томонидан юридик фанлар ва сиёсий фанлар бўйича диссертацияларнинг асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилди.

Шу билан бирга, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратура Академияси билан ҳамкорликда терговга қадар текширув, суриштирув ва дастлабки тергов органлари ҳамда суд ходимлари учун ашёвий далилларни олиш, суд экспертизасини тайинлаш ва унинг имкониятларини ёритишга бағишинланган электрон амалий қўлланма яратилди. Ушбу электрон қўлланмада суд экспертиза имкониятлари ҳақидаги маълумотлар бир вақтнинг ўзида ёзма ва видео кўринишда тақдим этилди. Шунингдек, суд экспертларига бериладиган наъмунавий саволлар, қарор ва ажрим нусхалари ҳамда керакли бошқа маълумотлар киритилди.

Шунингдек, Фармонга асосан Марказда суд-экспертиза муассасалари фаолиятига давлатларо ва халқаро стандартларни жорий қилиш мақсадида суд-экспертиза соҳасида стандартлаштириш бўйича техник қўмита ташкил қилинди. Стандартлаштириш бўйича техник қўмитани ташкил этишдан асосий мақсад давлат ва фуқаролар манфаатларидан келиб чиқиб суд-экспертиза соҳасида миллий, давлатларо ва халқаро стандартлар ишлаб чиқиш, фаолият йўналиши доирасида стандартлаштириш, метрология ва сертификатлаштириш соҳасида ўйғунлашган сиёсатни амалга ошириш бўйича манфаатдор ташкилотлар ва хўжалик юритувчи субъектлар билан ҳамкорликни таъминлаш ҳисобланади.

Юқоридаги Фармон билан иқтисодий, фуқаролик ва маъмурий иш юритишида адво-

катга судга қадар тайёргарлик ва суд жараёнида эксперт хulosасини суд мұхокамасыда тақдим этиш учун давлат ва нодавлат суд-экспертиза муассасаларида шартнома асосида адвокат сўрови юбориш орқали экспертиза ўтказиш ташаббуси хукуқи берилди.

Хусусан, иқтисодий, фуқаролик ва маъмурӣ иш юритишида судга қадар тайёргарлик ва суд жараёнида ишонч билдирувчи шахснинг розилиги билан эксперт хulosасини суд мұхокамасыда тақдим этиш хукуқи асосида давлат ва нодавлат суд-экспертиза ташкилотларида шартнома асосида адвокат сўровига кўра экспертиза хulosасининг иш материалларига қўшиб қўйилишини ва суд томонидан ушбу хulosа ишдаги мавжуд далиллар билан биргаликда баҳоланишини талаб қилиш хукуқи шулар жумласидан.

Адвокат томонидан тайинланадиган суд экспертизанинг афзаллиги шундаки, бунда адвокат шахсан ҳал этилиши лозим деб топган саволларни эксперталар олдига кўйиш ва ушбу саволлар асосида хulosаси олиш имкониятига эга бўлади. Бу эса, судда тортишув институти тамойилининг тўлақонли амалга оширилиши оркали одил судловни янада таъминлашга асос бўлиб хизмат қиласди.

Жорий йилнинг 3 август куни қабул қилинган “Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун хужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, айrim

қонун хужжатларини ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида”ги 786-сонли Қонуни билан “Адвокатура тўғрисида”ги, “Адвокатлик фаолиятининг кафолатлари ва адвокатларнинг ижтимоий ҳимояси тўғрисида”ги қонунларга, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик-процессуал, Иқтисодий-процессуал ва Ўзбекистон Республикасининг Маъмурӣ суд ишларини юритиши тўғрисидаги кодексларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритилди.

Хусусан, “Адвокатура тўғрисида”ги Қонуннинг 6-моддасида адвокатга иқтисодий, фуқаролик ва маъмурӣ иш юритилаётганда ишни суд мұхокамасига тайёрлаш чофида ёки суд мұхокамаси жараёнида давлат суд-экспертиза муассасалари ва нодавлат суд-экспертиза ташкилотлари томонидан шартнома асосида ишонч билдирувчи шахс розилиги билан экспертиза ўтказилишини сўраш ҳамда экспертиза хulosаси иш материалларига қўшиб қўйилишини ва суд томонидан ушбу хulosа ишдаги мавжуд далиллар билан биргаликда баҳоланишини талаб қилиш хукуқлари берилмоқда.

Шунингдек, мазкур Қонуннинг 7<sup>1</sup>-моддасида эса Адвокат сўровига кўра экспертиза хulosасини олиш муддатлари давлат суд-экспертиза муассасалари ва нодавлат суд-экспертиза ташкилотлари билан тузилган шартномаларда белгиланади ҳамда адвокат сўровига ордернинг кўчирма нусхаси, суд экспертизаси адвокат сўровига кўра



тайинланганда эса ўрганиш объектлари ва тўлақонли экспертиза ўтказиш учун зарур бўлган иш материаллари ҳам илова қилинади, деб баён этилган.

Таъкидлаш керакки, бундай нормаларнинг киритилиши албатта миллий қонунчилигимиз учун катта янгилик хисобланиб, Ўзбекистон адвокатларининг касбий хукуqlарини кенгайтиришдаги муҳим қадамлардан бири бўлиб хизмат қиласди.

Хўш, адвокатларга экспертиза тайинлаш бўйича рухсат берилиши қандай афзалликларга эга бўлди:

Биринчидан, адвокатларда бундай хукуқнинг мавжуд бўлиши улар томонидан ишонч билдирувчи шахсларнинг қонуний хукуқларини ҳимоя қилиш борасидаги фаолиятини амалга оширишда олдинга қўйилган қадамдир. Эндиликда, адвокатлар нафақат мутахассис фикрларини, балки бевосита эксперталар олдига ишонч билдирувчи шахснинг манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича тегишли саволларни қўйиб, улар бўйича тўлақонли далил сифатида эътироф этилиши мумкин бўлган экспертиза хulosалари олиш имкониятига эга бўлишади.

Иккинчидан, ҳар доим ҳам судлар томонидан адвокатларнинг у ёки бу суд экспертизаларини ўтказиш тўғрисидаги илтиносномалари қоноатлантирилмаслиги мумкин. Энди эса бу борадаги муаммолар ҳал этилиши ва адвокатларнинг ишини енгиллаштиришга имкон яратилмоқда. Чунки, улар экспертиза хulosаси иш материалларига қўшиб қўйилишини ва суд томонидан ушбу хulosha ишдаги мавжуд далиллар билан биргаликда баҳоланишини талаб қилиш хукуқига эга бўлишмоқда.

Учинчидан, адвокатларга берилган бундай хукуқлар адолатли судловни амалга оширишда суд жараёнида томонларнинг рақобатбардошлиги принципини таъминлаш учун давлат томонидан бериладиган кафолат сифатида хизмат қиласди.

Тўртинчидан, ҳозиргача мавжуд бўлмаган, адвокатлар ва уларга ишонч билдирувчи шахслар учун муҳим аҳамиятга эга бўлган, адолат ва қонунийликни кафолатловчи ҳамда ортиқча оворагарчиликнинг олдини олишга хизмат қилувчи адвокатлар ва суд экспертиза ташкилотлари ўртасида ўзаро ҳамкорлик қилиш механизми ишлаб чиқлади. Мисол учун, адвокатлар томонидан ишни суд муҳокамасига тайёрлаш чоғида экспертиза ўтказиш ва хulosha олиш имконияти бўлса, кўп асосланмаган дъяволар судларга тақдим этилмайди.

Бешинчидан, бундай имконият адвокатлар томонидан кўрсатилаётган хизматларнинг сифатини оширишга ва одил судловни амалга ошириш кафолатларидан бири бўлиб хизмат қиласди.

Олтинчидан, бугунги кунда Республикаизда мавжуд нодавлат суд экспертиза ташкилотларининг суд экспертизаларни ўтказишдаги ролини оширишга хизмат қиласди. Нодавлат суд экспертиза ташкилотларининг фаолияти тўлов асосида хизмат кўрсатишга асосланган бўлиб, адвокатлар томонидан суд экспертизаларини шартнома асосида нодавлат суд экспертиза ташкилотларига тайинлаш, яъни адвокатлар экспертиза ўтказиш учун мустақил экспертиза ташкилотини танлаш имконияти ҳам яратилмоқда.

Еттинчидан, қонунчилик хужжатларига киритилган ушбу ўзгартишлар ва қўшимчалар судлар томонидан қабул қилинадиган қарорларнинг сифати оширилишига хизмат қиласди.

Саккизинчидан, кучли фуқаролик жамиятияга эга бўлган ҳар қандай хукуқий давлат учун инсон хукуқлари ва эркинликлари кафолатларининг кучайтирилиши давлатнинг халқаро майдондаги обрўсининг ошишига ва қонун устуворлиги бўйича халқаро рейтингларида юқори ўринларни эгаллашига хизмат қиласди.

## АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2020.
2. Ўзбекистон Республикаси “Суд экспертизаси тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2010.
3. “Ўзбекистон Республикасининг айrim қонун хужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек айrim қонун хужжатларини ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида”ги Қонуни. 2022 йил 3 август.

# ШАХСГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР

*Нуриддинов Сайдолим  
Сайдкамол ўғли,  
Ўзбекистон Республикаси ИИВ  
Эксперт-криминалистика  
бош маркази бошлиги*

## АННОТАЦИЯ:

Мазкур мақолада шахсга доир маълумотлар хавфсизлигини таъминлашнинг хуқуқий асосларининг таҳлили, шунингдек, мамлакатимизда ушбу йўналишда юзага келаётган муаммоларни бартараф қилиш бўйича қонунчилик хужжатларига асослантирилган таклифлар келтириб ўтилган.

**Калим сўзлар:** шахсга доир маълумотлар, идентификация, биометрик ва генетик маълумотлар.

## АННОТАЦИЯ:

В данной статье рассматриваются анализ правовых оснований непосредственно обеспечивающих безопасность личных данных, а также приведены предложения для решения встречающихся проблем в этом направлении в нашей стране, основанных на нормативными документами.

**Ключевые слова:** личные данные, идентификационные, биометрические и генетические данные.

## ANNOTATION:

This article discusses the analysis of the legal basis for directly ensuring the security of personal data, as well as proposals for solving the problems encountered in this direction in the country, based on regulatory documents.

**Key words:** personal data, identification, biometric and genetic data.

Бугунги кунда ахборот-коммуникация технологияларининг жамият ҳаётига жадаллик билан кириб келиши инсоннинг кундалик турмушки фаровонлигини ошираётгани ҳеч кимга сир эмас. Бироқ танганинг иккичи томони ҳам борки, кези келганда буни ҳам таъкидлаб ўтмасликнинг иложи йўқ. Гап ушбу замонавий ахборот-коммуникация технологиялари орқали шахсларнинг шахсий ҳаёт дахлсизлигига бевосита салбий таъсир этиш эҳтимоллари тўғрисида кетмоқда.

Биргина 2021 йилнинг 12 ойи давомида Ўзбекистон Республикаси МЖТКнинг 462-моддаси яъни “Шахсга доир маълумотлар тўғрисидаги қонунчиликни бузиш” холати билан хисобга олинган хукукбузарликлар сони жами 247 тани ташкил этган бўлса, жорий йилнинг 9 ойи мобайнида ушбу кўрсатгич қарийб 12%га ошиб 277 тани ташкил этмоқда [1]. Жорий 2022 йил якунланишига ҳали тўлиқ 3 ой борлигини инобатга олинса, ушбу рақам янада кўпроқ бўлиш эҳтимоли юкори. Ушбу рақамлар бежиз келтирилмади. Бугунги кунда мамлакатимизда шахсга доир маълумотлар тўғрисидаги қонунчилик хужжатлари талабларини айрим ҳолларда билмасдан, бაъзи бир ҳолларла эса қасдан атайнин бузиш ҳолатлари кўпайиб бормоқда.

Юқоридагилардан шуни тушуниш мумкинки, бугунги кунда мамлакатимиздаги бевосита шахсга доир маълумотларнинг хавфсизлигини таъминловчи норматив хукукий хужжатлар ҳар қандай тажовузларга жавоб бера оладиган тарзда мукаммал бўлишини ҳаётнинг ўзи тақозо этмоқда. Зоро инсоннинг шахсий ҳаёт дахлсизлигини баҳолашнинг мезонларидан бири унинг шахсга доир маълумотларининг хавфсизлигидир.

Шу ўринда бугунги кунда мамлакатимизда бевосита шахсларнинг шахсга доир маълумотлари хавфсизлигини таъминлаш учун мўлжалланган Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги (02.07.2019 йилдаги ЎРҚ-547-сон) қонуни, Маъмурий (22.09.1994 йил) ва Жиноий жавобгарлик тўғрисидаги (01.04.1995 йил) кодекслари, Вазирлар Маҳкамасининг “Шахсга доир маълумотлар базаларининг давлат реестри тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги (08.02.2020 йилдаги 71-сон), “Биометрик ва генетик маълумотлар мавжуд бўлган моддий жисмларга ҳамда бундай маълумотларни шахсга доир маълумотлар базаларидан ташқарида сақлаш технологияларига оид талаблар тўғрисида”ги (05.10.2022 йилдаги 570-сон) карорларини ва шу каби яна бир қатор норматив-хукуқий

хужжатлар мавжудлигини келтириб ўтиш мумкин.

Гарчи мамлакатимизда шахсга доир маълумотлар тўғрисида бир қанча норматив хукукий хужжатлар бўлса-да, ушбу норматив-хукукий хужжатларни С.А.Нурумбетова таъкидлаганидек, доимий равища замон талабларидан келиб чиқсан ҳолда янгиликлар киритиб бориш зарур [2,6.29].

Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги қонуни 4-моддасида шахсга доир маълумотларга қўйидагича: шахсга доир маълумотлар — муайян жисмоний шахсга таалуқли бўлган ёки уни идентификация қилиш имконини берадиган, электрон тарзда, қофзда ва (ёки) бошқа моддий жисмда қайд этилган ахборот, деб тариф берилган [3].

Маълумки, биометрик ва генетик маълумотлар муайян шахсни идентификация қилиш имконини берадиган шахсга доир маълумотлар сирасига киради. Зоро, ҳар бир шахс қонунчиликда белгиланган тартибда ўзининг исми, фамилияси, отасининг исми, туғилган жойи, вакти, маълумоти, касби, мулки каби маълумотларини умри давомида ўзгартириши мумкин. Бироқ шахс ҳар қанча истамасин ўзининг анатомик ва физиологик ўзига хос хусусиятларини ҳеч бир шаклда ўзгартиролмайди. Чунки ушбу хусусиятлар ҳар бир шахс учун индивидуал хусусиятга эгадир [4].

Замонавий тенденциялар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, бугунги кунда инсониятнинг биометрик ва генетик маълумотларини тўплаш, уларнинг географик, ирқий, этник, ирсий ва психофизиологик ўзига хослиги юзасидан гуруҳий мансублигини таҳлил қилиш бўйича дунёда кўплаб генетик тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Ушбу тадқиқотлар инсоният ривожланишига хизмат қилиши билан бирга айрим компаниялар томонидан биологик қуролларни яратишга хизмат қилмоқда десак, муболаға бўлмайди. Шунингдек, шахсга оид маълумотларни кўлга киритиб, ғараз мақсадларда турли фирибгарлик, тамагирлик, ҳакорат қилиш ёки бошқа гайриинсоний ҳатти-ҳаракатларни амалга оширилаётганлар ҳам орамизда йўқ эмас.

Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги Қонунининг 27-моддасида шахсга доир маълумотларнинг ҳимоя қилинishi давлат томонидан кафолатланиши белгиланган [3]. Бироқ, мамлакатимизда шахсга доир маълумотлар хавфсизлигини таъминлашда тобора долзарб тус олаётган тизимли муаммолар мавжуд. Хусусан булар қаторига шахсга доир маълумотларга ишлов берувчи операторлар билан боғлиқ бўлган бир қатор муаммоли ҳолатларни келтириб ўтиш мумкин бўлгани ҳолда, қуйида ушбу муаммолар тизимли равища кетма-кет таҳлил қилинади.

Масалан, шахсга доир маълумотларга ишлов берувчи операторлар Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 8 августдаги

“Шахсга доир маълумотлар базаларининг давлат реестри тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 71-сон қарорининг тегишили бандларига мувофиқ Давлат персоналлаштириш марказида шахсга доир маълумотлар базаларининг давлат реестрида рўйхатдан ўтказилиши лозим [5].

Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги қонуни талабларига кўра биометрик ва генетик маълумотларга факат мазкур субъектнинг розилиги мавжуд бўлган тақдирда ишлов берилиши мумкинлиги кўрсатилган. Шунингдек, электрон шаклдаги биометрик ва генетик маълумотлар улардан рухсатсиз фойдаланишни истисно қиласидан тизимлар билан таъминланиши лозимлиги ҳам алоҳида келтириб ўтилган.

Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги қонуннинг 33-моддасида шахсга доир маълумотлар тўғрисидаги қонун хужжатларини бузганлик учун жавобгарлик белгиланган [3]. Ушбу моддага асосан мазкур қонун талабларини бузган айборд шахслар Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 462-моддаси ҳамда Жиноят кодексининг 1412-моддасига асосан жавобгарликка тортимилиши назарда тутилган [6; 7].

Бироқ, муаммо шундаки, шахсга доир маълумотларга ишлов берувчи операторларнинг қонун талабига риоя этаётганини ҳамда шахсга доир маълумотлар тўғрисидаги қонунчилик бузилганлиги ҳолатлари юзасидан маъмурий хукуқбузарликларни барвақт аниқлаш, процессуал тартибда расмийлаштириш механизmlари йўлга кўйилмаган.

Сўнгти вакъларда республикамида турли ташкилотлар, корхоналар ва жисмоний шахслар томонидан шахсга доир биометрик маълумотларни (юз қиёфаси, қўл бармоқ излари, тиббий диагностик таҳлил натижалари, геномга оид ДНК, РНК ахборотлари ва бошқалар) [8] йиққан ҳолда шахсни идентификация қилишда фойдаланиш тобора оммалашиб бормоқда.

Хусусан, давлат, нодавлат идоралар ва хусусий корхоналарнинг биноларига кириш-чикишда, мижозларни рўйхатдан ўтказиш ёки бошқа мақсадларда шахсларнинг биометрик маълумотларидан фойдаланилиб, шахсга доир биометрик маълумотлар компьютер, сервер ва бошқа ахборот ташувчи қурилмаларда сақланмоқда. Лекин, ушбу биометрик маълумотларни эгасининг розилиги билан олиш, қонун талаблари асосида фойдаланиш, саклаш, узатиш ва тарқатиш соҳасида содир бўлиши мумкин бўлган хукуқбузарликларнинг сабаб-шароитлари мониторинги етарли даражада олиб борилмай қолмоқда.

Бунинг натижасида республика аҳолисининг қонун билан қўриклидан ўтказиш шахсга доир маълумотларидан қонуний мақсадда рационал фойдаланишида реал таҳдидлар юзага келмоқда. Маъмурий жавоб-

гарлик тўғрисидаги кодекснинг 280-моддасига мувофиқ, бузилиши маъмурий жавобгарликни келтириб чиқарадиган қоидаларга риоя этилишини текшириш ва (ёки) назорат қилиш конунчилик билан зиммасига юқлатилган тегишили органнинг ваколатли мансабдор шахси томонидан амалга оширилиши белгиланган [6].

Бугунги кунда мамлакатимизда шахсга доир маълумотлар соҳасидаги ваколатли давлат органи Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Давлат персоналлаштириш маркази хисобланади. Ушбу қоида Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги қонуни билан мустаҳкамланган. Бироқ бугунги кунда ушбу йўналишда қўйидаги: Шахсга доир маълумотларга ишлов беришда ноқонуний фаолият олиб борувчилар истисно қилинмаслиги, давлат реестридан рўйхатдан ўтган операторлар сони тобора ошиб бораётгани ва улар республиканинг барча ҳудудларида фаолият кўрсатаётгани Марказ томонидан ушбу вазифаларни тўлақонли амалга ошириш борасида ташкилий, хукукий ва техник каби бир катор муаммолар юзага келмоқда.

Фикримизча, шахсга доир, хусусан биометрик ва генетик маълумотларга ишлов бериш соҳасида содир этилиши мумкин бўлган хукуқбузарликларни аниқлаш ва қонуний таъсиран чоралар кўришда ваколатли органнинг автоматлаштирилган биометрик идентификация тизимлари, шахснинг биометрик маълумотларига ишлов бериш, рақамли ахборот ташувчи қурилмалар тадқиқоти ҳамда биометрик ва генетик маълумотлардан ноқонуний фойдаланганини фош этиш салоҳиятга эга тузилмалар томонидан амалга оширилиши зарур.

Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги қонунига асосан ички ишлар органларининг асосий вазифалари фукароларнинг хукуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини, жисмоний ва юридик шахсларнинг мулкини, конституциявий тузумни химоя қилишдан, қонун устуворлигини, шахс, жамият ва давлатнинг хавфсизлигини таъминлашдан, шунингдек, хукуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактикасидан иборат [9].

Ўзбекистон Республикасининг “Геном бўйича давлат рўйхатига олиш тўғрисида”ги қонунига мувофиқ Ички ишлар вазирлиги геном бўйича давлат рўйхатига олиш соҳасидаги ваколатли давлат органи этиб белгиланган [10].

Бундан ташкири, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 08.02.2022 йилдаги ПҚ-122-сон қарорига мувофиқ, ички ишлар органларининг эксперт-криминалистика фаолиятини янада такомиллаштиришнинг устувор йўналишлари сифатида шахсга доир биометрик маълумотлар (геномга оид ахборот, юз қиёфаси, қўл бармоқ излари) асосида автоматлаштирилган идентификация тизимларини қўллаш соҳасини мувофиқлаштириш механизmlарини татбиқ қилиш вазифаси белгилаб берилган [11].

Шунингдек, Ички ишлар органлари эксперт-криминалистика бўлинмаларида 1996 йилда шахснинг бармоқ излари бўйича, 2006 йилдан бошлаб юз-киёфа тузилиши автоматлаштирилган криминалистик идентификация тизимлари жорий этилган бўлиб, бу-гунги кунда ушбу бўлинмаларда ракамли ахборот ташувчи қурилмалардаги ўчирилган, шикастланган ва шифрланган маълумотларни қайта тиклаш ишлари мудаввафиятли тарзда амалга ошириб келинмоқда.

Бундан ташкири, эксперт-криминалистика бўлинмалари томонидан хукуқбузарликларнинг олдини олиш бўйича криминалистик профилактик чора-тадбирлар ишлаб чиқиш, марказлашган криминалистик ахборот-кидирув тизимларини юритиш, шахсни биометрик маълумотлари (қўл излари, юз қиёфаси, ДНК спектри) бўйича идентификация қилиш ишлари изчил амалга ошириб келинмоқда.

Фикримизча, Ички ишлар органлари эксперт-криминалистика бўлинмаларининг шахсга доир маълумотларни йиғиш, тизимлаштириш, сақлаш, верификация ва идентификация қилишдаги амалий тажрибасини инобатга олган ҳолда республикада биометрик ва генетик маълумотлардан фойдаланиш фаолиятини мониторинг қилиш ва бу борадаги хукуқбузарликларни аниқлаш, унга имкон берган сабаб-шароитларни бартараф этишга оид профилактик чора-тадбирларни амалга оширишни эксперт-криминалистика бўлинмалари зиммасига юклаш мумкин.

Мазкур механизмни амалга ошириш учун тегишли норматив-хукуқий хужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш ва унда куйидаги:

- Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги Қонуни, Ўзбекистон

Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг тегишли моддаларига Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги томонидан республикада шахснинг биометрик ва генетик маълумотлардан ноконуний фойдаланишини назорат қилиш чораларини амалга оширишни белгиловчи ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш;

- ички ишлар органлари эксперт-криминалистика бўлинмаларининг шахсга доир маълумотлар билан ишлаш бўлинмаларига шахснинг биометрик ва генетик маълумотларидан ноконуний фойдаланиш оқибатида жавобгарлик келтириб чиқарадиган қоидаларга риоя этилишини текшириш ва (ёки) назорат қилиш ваколатини бериш;

- республикада шахснинг биометрик маълумотлари асосида автоматлаштирилган криминалистик идентификация тизимлари маҳсулотларини сертификатлашни йўлга қўйиш каби бир қатор ҳолатлар назарда тутилиши мақсадга мувофиқ.

Шунингдек, дунёда шахсга доир маълумотлар хавфислизигига салбий таъсир этаётган тенденцияларни чукур таҳлил қилиш ҳамда миллий қонунчилик базасини халқаро хужжатлар талабига мослаштирган ҳолда шахсга доир биометрик маълумотлардан фойдаланишни мұжкаммал хукуқий асосини белгилашни назарда янги норматив хукуқий хужжат лойиҳалари ишлаб чиқилса мақсадга мувофиқ бўлади.

Умуман олганда, юкоридаги таклифларни амалга ошириш натижасида шахсга доир маълумотлар хавфислизигини таъминлаш, хусусан биометрик ва генетик маълумотларга бўлиши мумкин бўлган ҳар қандай кўринишдаги таҳдидлар кайсиdir маънода камайишига, шунингдек, жиноий тажовузлардан муносиб ҳимоя қилинишига эришилиши мумкин бўлади.

## ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Жиноий-хукуқий статистик ҳисоботлар тўплами. – Тошкент, 2022.
2. Нурумюетова С.А. Трасологик экспертизалар ўтказишни такомиллаштириш // дисертация. – Тошкент, 2020.
3. Ўзбекистон Республикасининг “Шахсга доир маълумотлар тўғрисида”ги Қонуни ЎРҚ-547-сон. 02.07.2019// URL: <https://lex.uz/docs/4396419>.
4. <https://library.samdu.uz/files/Fiziologiya>.
5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Шахсга доир маълумотлар базаларининг давлат реестри тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 71-сон Қарори. 08.02.2020 // URL: <https://lex.uz/ru/docs/4729730>.
6. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси. 01.04.1995// URL: <https://lex.uz/docs/97664>.
7. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси. 01.04.1995// URL: <https://lex.uz/docs/111453>.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Биометрик ва генетик маълумотлар мавжуд бўлган моддий жисмларга ҳамда бундай маълумотларни шахсга доир маълумотлар базаларидан ташқарида сақлаш технологияларига оид талаблар тўғрисида”ги 570-сон Қарори. 05.10.2022 // URL: <https://lex.uz/docs/6225462>.
9. Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги Қонуни ЎРҚ-407-сон. 16.09.2016// URL: <https://lex.uz/docs/3027843>.
10. Ўзбекистон Республикасининг “Геном бўйича давлат рўйхатига олиш тўғрисида”ги Қонуни ЎРҚ-649-сон. 24.11.2020// URL: <https://lex.uz/docs/5120412>.
11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ички ишлар органларининг эксперт-криминалистика фаолиятини замонавий илм-фан ютуқларини кенг жорий этган ҳолда янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-122 Қарори. 08.02.2022 // URL: <https://lex.uz/uz/docs/5851527>.

# **INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHDA SUD EKSPERTIZASINING O'RNI**

RAXMANOV

*Shuxrat Naimovich,  
Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar  
malakasini oshirish markazi  
kafedra mudiri, yuridik fanlari  
nomzodi, dotsent*

## ANNOTATSIYA

Maqolada O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlar hamda inson huquqlariga rioya qilish bo‘yicha xalqaro standartlar normalarini tahlil qilish asosida, inson huquqlariga rioya qilinishida sud ekspertizalarining roli va ahamiyati yoritilgan. Sud-ekspertlik amaliyatining tahlillariga asoslanib, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** inson huquqlari va erkinligi, sud-ekspertlik faoliyati, sud-ekspertlik faoliyatining prinsiplari, sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishda inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi, inson huquqlariga rioya qilish bo‘yicha xalqaro standartlar, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, sud ekspertining harakati (harakatsizligi) ustidan shikoyat berilishi, ekspert xulosasini baholash.

## АННОТАЦИЯ

В статье на основе анализа Конституции и законов Республики Узбекистан, норм международных стандартов о соблюдении прав человека освещается роль и значение судебно-медицинской экспертизы в соблюдении прав человека. На основе анализа судебно-экспертной практики предлагаются изменения и дополнения в действующие нормативные правовые документы.

**Ключевые слова:** права и свободы человека, судебно-экспертная деятельность, принципы судебно-экспертной деятельности, соблюдение прав и свобод человека при осуществлении судебно-экспертной деятельности, международные стандарты соблюдения прав человека, взятие образцов для экспертизы, действия судебно-медицинского эксперта, жалоба на (бездействие), оценка экспертного заключения.

## ANNOTATION

The role and importance of forensic expertise in the observance of human rights is highlighted in the article based on the analysis of the Constitution of the Republic of Uzbekistan and the laws and norms of international standards on the observance of human rights. Based on the analysis of forensic practice, amendments and additions to the current regulatory legal documents are proposed.

**Key words:** human rights and freedom, forensic activity, principles of forensic activity, observance of human rights and freedoms in the implementation of forensic activity, international standards for observing human rights, taking samples for expert examination, action of a forensic expert Complaint against (inaction), assessment of expert opinion.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiya “... inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliv qadriyat” deb belgilaydi hamda “Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi” deya inson huquq va erkinliklarini himoya qilishni davlatning majburiyati sifatida belgilab beradi [1].

Shuningdek, Konstitutsiyamizda “...barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga egaligi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi ...” [1] qat’iy belgilangan.

Yuqoridagilardan tashqari mamlakatimizda “Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi” [1]. Buning uchun “Har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi” [1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 92-moddasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kaflidir”. Mamlakatimizda ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi esa “fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi” [1].

O‘zbekiston Respublikasining “Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (Ombudsman) to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo‘lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta’minalash valoatlari berilgan” [2].

O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunda esa, “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, qonun-

chilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir” hamda “fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik talablarining ijro etilishini ta’minalashga doir faoliyatlaridan biri jamoatchilik nazoratining obyekti” deb belgilab qo‘yilgan [3].

Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiq, mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmining juda ko‘p elementlari mavjud, jumladan:

- sud orqali himoya qilish;

- sudga oid bo‘lmagan himoya qilish davlat institutlari (O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi boshchiligidagi ijro hokimiyati, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) va boshq.);

- nodavlat tashkilotlar (fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek, qonunchilikda belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari);

- insonning o‘z huquqlarini o‘zi himoya qilishi.

Ta’kidlash joizki, sudga oid bo‘lmagan himoya qilish davlat institutlari orasida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi alohida o‘ringa ega. Chunki Adliya vazirligi fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini huquqiy himoya qilish bo‘yicha choralarni amalga oshirish, notariat, advokatura hamda jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tuzilmalarining samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minalash, jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish kabi bir qator juda ko‘plab funksiyalar bilan birga, normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihibarining tartibga solish ta’sirini baholash hamda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish faoliyatini muvofiqlashtirish hamda sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish, sud ekspertlari tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini

muvofiqlashtirish funksiyalarini ham bajaradi [5].

Amaliyot tahlillari ko'rsatishicha, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda sud ekspertizalari ham muhim ahamiyat kasb etar ekan. Chunki, "... fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqligi, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizligi, ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas..." [1].

Sud-ekspertlik faoliyati – sud ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha faoliyat [4] bo'lib, ushbu faoliyat muayyan prinsiplar asosida olib boriladi.

Sud-ekspertlik faoliyatining prinsiplari deganda jamiyatning, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy va jinoyat ishlari bo'yicha sud ekspertizalarini tashkil qilish va o'tkazish jarayoniga o'zining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlar tim-solda yordam berishining mazmuni, maqsadi va vazifalariga nisbatan konseptual qarashlarini ifodalaydigan asosiy qoidalar tushuniladi.

Bu asosiy prinsiplar sudda ishlarni ko'rib chiqish prinsiplarining butun tizimi boshlanishi da turadi va sud ekspertizalari huquqiy institutini umumiy holda rivojlantirish va takomillashtirish uchun g'oyaviy asos bo'lib hisoblanadi, shuningdek, ushbu institutning maxsus prinsiplarini o'rganish va ishlab chiqish uchun metodologik asosdan iborat.

O'zbekiston Respublikasining "Sud eksperтизasi to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasiga binoan, sud-ekspertlik faoliyatining quyidagi asosiy prinsiplari ajratiladi: qonuniylik, inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi, sud ekspertining mustaqilligi, sud-ekspert tadqiqotlarining xolisligi, har tomonlamaligi va to'liqligi [4].

Qonuniylik va inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi prinsipi davlatimizning huquqiy tizimi asosini tashkil etuvchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalarida aniq mustahkamlab qo'yilgan.

Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi prinsipining qonuniy mustahkamlanishi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) sud-ekspertiza muassasalari faoliyatining

sud ekspertizalarini tayinlash va o'tkazishda, fuqarolarning konstitutsion erkinlik va huquqlarini cheklash boshqaruva vakolatiga ega bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan uzviy bog'liqligida;

b) sud-ekspertiza muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlarning sud ekspertizalarini o'tkazishda konstitutsion huquq va erkinliklari ni cheklash talab qiladigan topshiriqlarini bajarish bo'yicha majburiyatlarida. Masalan, sud-psixiatrik ekspertizaga yuborilgan shaxsning sud ekspertiza psixiatrik statsionarida ushbu ekspertiza o'tkazilguncha doimiy bo'lishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasining "Sud eksperтизasi to'g'risida"gi qonunining 6-moddasi "Sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishda inson huquq va erkinliklariga rioya etilishi" deb nomlanadi va unga ko'ra [4]:

Sud-ekspertlik faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda qonunlarida nazarda tutilgan inson huquq va erkinliklariga rioya etilgan holda amalga oshiriladi.

Shaxsning erkinligini vaqtinchalik cheklashni yoki uning shaxsiy daxlsizligi buzilishini talab etuvchi sud-ekspert tekshirishlari faqat qonunda belgilangan asoslar va tartibda o'tkaziladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi yoki boshqa korxona, muassasa, tashkilot tomonidan sud ekspertizasi o'tkazilishi munosabati bilan qabul qilingan qarorlar, sud ekspertining harakatlari (harakatsizligi) o'z huquq va erkinliklarining cheklanishiga olib keldi deb hisoblagan shaxs mazkur qarorlar, harakatlari (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishga haqli.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilish sud-ekspertlik faoliyatining maqsadi hisoblanadi deb ishonch bilan aytish mumkin.

"Sud eksperтизasi to'g'risida"gi qonunning 6-moddasi sud-ekspertlik faoliyati konstitutsion va umumhuquqiy prinsipga tayanishini ochib beradi. U insonning sud-ekspertlik faoliyatida daxl qilinishi mumkin bo'lgan asosiy (konstitutsion) huquqlariga rioya etilishiga bag'ishlangan.

Inson huquq va erkinliklari deganda shaxsning huquqiy maqomini aniqlaydigan asosiy konstitutsion (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va shax-

siy) huquq va erkinliklari tushuniladi. Insonning asosiy huquqlariga rioya etilishi, shuningdek, ularga rioya qilish va himoya qilishning huquqiy standarti ichki qonunchilik bilan ham, xalqaro huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo‘yilgan va ularga bu hujjatlarni ratifikatsiya qilgan davlatlar tomonidan amal qilinishi shart.

Inson huquqlariga rioya qilish bo‘yicha xalqaro standartlar, ixtiyoriy mamlakatda har bir inson uchun ta’minlanishi lozim bo‘lgan huquq va erkinliklarni aniqlab beradi. Ularga quyidagilar kiradi:

1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;

1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;

1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt;

1948-yilda qabul qilingan Genotsid jinoyating oldini olish va uning uchun jazolash to‘g‘risidagi konvensiya;

1951-yilda qabul qilingan Qochoqlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya;

1965-yilda qabul qilingan Irqiy kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya;

1979-yilda qabul qilingan Ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishlarga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya;

1984-yilda qabul qilingan Qiynoq hamda muomala va jazolashning shafqatsiz, insoniylikka zid yoki qadr-qimmatni kamsituvchi turlariga qarshi konvensiya;

1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya;

2003-yilda qabul qilingan Barcha ishchi migrantlar va ularning oila a‘zolari huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya;

2006-yilda qabul qilingan Zo‘rlik ostida g‘o‘yib bo‘lishdan himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya.

Sud-ekspertiza muassasalarida fuqarolarga nisbatan ekspertizalarni tashkil qilish va o‘tkazishda, ularning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan konstitutusyon huquqlariga rioya etilishi shart, bu huquqlarga ko‘ra har bir shaxs erkinlik, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanish, o‘z huquq va erkin-

liklarini himoya qilish huquqiga ega.

Sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishda inson huquqlariga rioya qilinishi bo‘yicha talablar, ushbu faoliyat jarayonida huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qilinadigan har bir shaxsga tegishlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsesual kodeksining 181-moddasiga [6] binoan, murakkab tibbiy tekshiruv usullaridan, shuningdek, kuchli og‘riq berish bilan bog‘liq usullardan majburiy foydalanishga faqat ekspertiza o‘tkazilayotgan shaxsning roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. Basharti bunday shaxs o‘n olti yoshga to‘limgan yoki ruhiy kasal bo‘lsa, ekspertiza uning qonuniy vakili, vasiy yoki homiysining roziligi bilan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 196-moddasiga binoan, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olishda qo‘llaniladigan usullar va ilmiy-texnikaviy vositalar inson hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo‘lishi lozim.

Kuchli og‘riq beradigan murakkab tibbiy tadbirdilar va usullarni qo‘llash namuna olinishi lozim bo‘lgan shaxsning roziligi bilan, basharti u o‘n olti yoshga to‘limgan yoki ruhiy kasal bo‘lsa, uning qonuniy vakili, vasiylari yoki homiylarining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

Namuna olish namuna olinuvchini yechintirib yalang‘ochlash bilan bog‘liq bo‘lsa, shifokor, boshqa mutaxassis, xolislar namuna olinuvchi shaxs bilan bir jinsda bo‘lishlari lozim.

Sud ekspertizalarini tashkil qilish va o‘tkazishda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash bo‘yicha amaliy mexanizm sifatida “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasining 2 va 3-qismlarida, shaxsning erkinligini vaqtincha cheklashni yoki uning shaxsiy daxlsizligi buzilishini talab etuvchi sud-ekspertiza tadqiqotlari faqat qonunchilik hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibda o‘tkazilishi maxsus belgilab qo‘yilgan [4].

Ushbu Qonunning 3-moddasida belgilanganidek, sud-ekspertiza muassasalari xodimlarining insonning huquq va erkinliklarining cheklanishi ga olib kelgan harakatlari (harakatsizlik) ustidan qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilish tartibi, yuzaga kelgan cheklashlar va ekspertiza o‘tkazilayotgan ishni sudda ko‘rish turiga bog‘liq

bo‘ladi. Masalan, o‘zining xohishi bilan sud ekspertizasiga yuborilishi mumkin bo‘lgan shaxsnинг, ekspertizaga majburiy yuborilganligi ustidan shikoyat berishi.

Shikoyatlar sud ekspertizalarining boshqa omillariga oid bo‘lishi ham mumkin, masalan, fuqaroni sud-ekspertiza statsionarida saqlashning noqulay sharoitlari ustidan shikoyat va bunday shikoyat protsessual-huquqiy tartibda ekspertiza tayinlagan shaxs yoki organga yoxud ekspertiza muassasasi (statsionar)ning rahbariga yoki qonunda belgilangan tartibda, ushbu muassasa bo‘ysunuvchi ijro hokimiyati organiga berilishi mumkin.

Ekspertiza o‘tkazilayotgan ishni sudda ko‘rish turi, tegishli shikoyat berishda mos keladigan protsessual qonunchilikning turini – O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi, Iqtisodiy-protsessual kodeksi, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi va Jinoyat-protsessual kodeklari aniqlaydi.

Ekspert xulosasi emas, balki sud-ekspertiza muassasasi yoki ekspertning harakati (harakatsizligi) ustidan shikoyat berilishi mumkin.

Sud-ekspertlik amaliyotida bevosita ekspert xulosasi ustidan shikoyat berishga urinishlar ham uchrab turadi. Masalan, sud-ekspertiza muassa-

sasi bo‘ysunuvchi idoraga, ushbu muassasada ekspertiza o‘tkazgan ekspertlarning xulosalari asoslanmagan ekanligi bo‘yicha shikoyat qilindi. Ko‘p hollarda bunday shikoyatlar ekspertiza natijalarini bekor qilish va ekspertlarni ma’muriy javobgarlikka tortish bilan bog‘liq talablar bilan kuzatiladi.

Ekspert xulosasini baholash ishni yuritayotgan shaxs (organ)ning, ya’ni tergovchi, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabдор shaxsi, surishtiruvchi, prokuror yoki sudning vakolati hisoblanadi. Faqat ular ekspertiza xulosalarining asoslanganligi, to‘liqligi va ishonchiligi, xulosa bergen ekspertlar harakatlarining huquqiy jihatdan to‘g‘riliqi haqidagi masalani ko‘rib chiqishlari va hal etishlari mumkin.

Aynan shu organlar va shaxslargina ekspertiza xulosalarini baholash natijalariga asosan huquqiy qarorlar qabul qilishi mumkin.

Boshqa organlar va shaxslar tomonidan bu kabi masalalarni ko‘rib chiqish va ular bo‘yicha boshqaruв qarorlarini qabul qilish odil sudlovni amalga oshirish bo‘yicha faoliyatga g‘ayri-huquqiy aralashish hisoblanadi. Shu bois, bu kabi da‘volar sudda ko‘rib chiqish uchun umuman qabul qilinmasligi lozim.

Shunday qilib, ekspert xulosasi aniq bir



ish bo'yicha isbotlov manbayi sifatida "shikoyat"ning mustaqil obyekti bo'la olmaydi, unga faqat "e'tiroz" bildirish mumkin. O'tkazilgan ekspertiza tadqiqotlarining sifati va xulosalarning ishonchligiga bog'liq barcha masalalar protsessual (sudga oid) isbotlov jarayonida hal etiladi.

Isbotlash subyektlari, masalan, protsessda-gi tomonlar (ishtirokchilar) ekspertni so'roq qiliш uchun chaqirish, takroriy ekspertiza tayinlash haqida iltimosnomaga kiritish kabi protsessual qonunchilikda belgilab qo'yilgan vositalardan foydalanishlari mumkin. Bunda ekspertiza xulosalari emas, balki bu xulosalar asosida chiqarilgan protsessual qarorlar ustidan shikoyat qilinadi.

Shuningdek, tergovchi yoki sudning qarorlari, sudning hukmi va ajrimi yoki boshqa protsessual qarorlar ustidan shikoyat qilinishi mumkin.

Shu o'rinda, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda sud ekspertizalarining ahamiyatini yanada yuksaltirishi mumkin bo'lgan bir jihatga e'tibor qaratmoqchimiz. Ya'ni, sud eksperti yoki ekspertlar komissiyasi ilgari bajarilgan va ekspertiza tayinlagan organga (shaxs) yuborgan xulosasini qaytarib olishga haqli emas.

Chunki sud eksperti o'z faoliyatida turli obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra xatolar-

ga yo'l qo'yishi va yo'l qo'yilgan xatolarni bিroz vaqt o'tishi bilan mustaqil ravishda aniqlashi mumkin. Bunday holda nima uchun sud eksperti bu haqda xabar bera olmasligi kerak?

Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasining "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni 15-moddasiga quyidagi yangi bandni (12-band) kiritish taklif etiladi:

"Sud eksperti, agar unda sud ekspertizasini o'tkazganidan so'ng o'zi tuzgan ekspert xulosasining ish bo'yicha isbotlov jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan darajada ishonchligi haqida asosli shubha tug'ilsa, o'z xulosasini qaytarib olishi".

Sud eksperti bu huquqidan, masalan, xulosani belgilangan organga yoki mansabdar shaxsga yuborganidan keyin bir oy ichida foydalanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Respublikamizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmi doimiy rivojlanishda bo'lgan murakkab jarayon hisoblanadi. Bu jarayon doimiy ravishda takomillashib boradi. Ushbu jarayonda tizimli ravishda rivojlanib borayotgan sud ekspertizalari ham muhim rol o'ynaydi.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // <https://lex.uz/docs/20596>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri) // 2004-yil 27-avgust, 669-II-son // <https://lex.uz/acts/276159>.
3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni // [lex.uz/docs/3679092](https://lex.uz/docs/3679092).
4. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 10-iyundagi O'RQ-249-son "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni // <https://lex.uz/docs/1633102>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-martdagi "Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda huquqiy xizmat ko'rsatishda Adliya organlari va muassasalari faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-89-son farmoni // <https://lex.uz/docs/5914998>.
6. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi // <https://lex.uz/docs/111460>.

# ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БҮЙИЧА МАХСУС БИЛИМЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ, ЭКСПЕРТИЗА ИНСТИТУТЛАРИНИ ТАЙИНЛАШ ВА ЎТКАЗИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

*Астанов Истам Рустамович  
Бош прокуратура Академияси  
кафедра профессори, ю.ф.д.  
Астанов Шухрат Рустамович  
Юқори Чирчик Фуқаролик ишлари  
бўйича туманлараро суди судьяси*

## АННОТАЦИЯ:

Мазкур мақолада махсус билимлардан фойдаланиш шакли бўлган экспертиза тергов харакатини тайинлаш, ўтказиш ва хulosани баҳолаш жараёнида амалиётда юзага келаётган муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** экспертиза, эксперт, эксперт хуносаси, экспертиза тадқиқоти, комплекс экспертиза, экспертиза ўтказиладиган тадқиқот методи, жавобгарлик.

## АННОТАЦИЯ:

В данной статье анализируются проблемы, возникающие на практике при назначении, проведении и оценке заключения экспертизы, являющейся формой использования специальных знаний, и пути их устранения.

**Ключевые слова:** экспертиза, эксперт, экспертное заключение, экспертное исследование, комплексная экспертиза, исследовательский метод экспертизы, ответственность.

## ANNOTATION:

This article analyzes the problems that arise in practice when appointing, conducting and evaluating the conclusion of an examination, which is a form of using special knowledge, and ways to eliminate them.

**Key words:** expertise, expert, expert opinion, expert research, comprehensive expertise, research method of expertise, responsibility.

Жиноятни аниқлаш ва унга қарши курашда давлат ва жамият фойдаланадиган турли восита ва усуллар орасида энг самарадорларидан бири бу маҳсус билимлардан, замонавий технологиялардан, экспертиза ва мутахассислар билим ва кўнималаридан фойдаланиш саналади.<sup>1</sup>

Жиноятчиларнинг ижтимоий хавфли қилимишига қарши курашда одатий бўлган хатшунослик, баллистик, трасологик, психологик, тиббий экспертизалардан (ушбу йўналишдаги маҳсус билимлардан) самарали фойдаланилса-да, инсоният хавфсизлиги йўлида уларнинг янги кўринишлари ДНК, сиёсий лингвистик, одоролик, экологик, компьютер экспертизалари ҳам жиноятларни фош этишнинг муҳим усулига айланиб улгурди.

Маҳсус билимлардан фойдаланиш жиноятларни очиш ҳамда тергов қилиш вазифалари йўлида хизмат қиласар экан, унинг вақт ва мақонга бўйсунмаслиги яъни жиноятнинг бир неча юз йиллар олдин содир этилганлиги ёки пухта таёргарлик билан ижро этилганлигига қарамай уни аниқлаб бериш имконияти пайдо бўлди.

Эндиликда тергов жараёнларида фан-техника тараққиёти ютуқларидан фойдаланиш натижасида унинг самарадорлиги ошди. Ушбу жараёнларда илмий-техник усулларни қўлаш, яъни маҳсус билимлардан фойдаланиш тергов қилиш муддатлари қисқариши ва унинг сифат жихатдан ўсиши кафолати бўлди<sup>2</sup>.

Бугунги кунда фан ва техниканинг замонавий ютуқларидан кенг фойдаланмасдан туриб одил судловни таъминловчи идораларнинг самарали фаолиятини тассаввур қилиб ҳам бўлмайди<sup>3</sup>.

Ушбу йўналишда 1994 йилда Ўзбекистон жиноят-процессуал хукукида маҳсус билим-

1. Лазарева Л.В. Концептуальные основы использования специальных знаний в Российском уголовном судопроизводстве. док. дисс. – Владимир, 2011. – С. 12.

2. Radzevicius E. The application of the special knowledge investigating criminal violations of the requirements of the work safety regulations: theory and practice in Lithuania. Summary of Doctoral Thesis. –Social Sciences, Law (01 S). MykolasRomeris University. – Vilnius, 2006. – P. 14.

3. Отахўжаев С.А. Эксперт хуносининг далилий моҳияти // Идораларро илмий-амалий конференция материаллари.– Тошкент, 2010. – Б. 3.

лардан фойдаланиш, эксперт ва мутахассис фаолиятини такомиллаштириш сари катта олға интилиш бўлди, яъни Жиноят-процессуал кодекси қабул қилинди, ушбу йўналишдаги яна бир ривожланиш сари қадам, 2010 йил 1 июнда “Суд экспертизаси тўғрисида”ги Қонун қабул қилиниши билан эса процессуал қонунчиликдаги 4 та маҳсус билимлар соҳаси, яъни экспертизадаги эксперт фаолияти ва мутахассисга оид нормалар такомиллаштирилди. Аммо таассуфки, маҳсус билим тушунчаси эндиликда биринчи марта қонунчиликда қўлланана бошланган бўлса-да, унинг маъноси изоҳи очиқлигича қолди.

Шу ҳолатда олимлар ўртасида ушбу тушунчанинг моҳиятини таҳлил қилишга интилиш бошланди. Аммо бу интилиш янада кенгроқ тадқиқотга муҳтож эди.

Юқоридагиларни инобатта олиб, умумлаштириб, фикримизча, “Суд экспертизаси тўғрисида”ги Қонун экспертиза институтига оид асосий тушунчалар мазмунини ёритишига багишланган З-моддага эга бўлганлиги боис, унга “**Маҳсус билим – бу жиноят ишини қўзғатиш, дастлабки тергов ва суд мухокамаси мақсадлари учун қўлланиладиган ва жиноятга алоқадор фактик маълумотлар, далилларни замонавий тадқиқот усуслари орқали топиш, тўплаш, баҳолашни амалга оширишда фойдаланилайдиган фан, техника, касб-хунар соҳасидаги тор соҳадаги профессионал билимдир**” мазмунидаги модда киритиш лозимлигини таклиф қиласми.

Худди шу моддага маҳсус билимдан фойдаланиш тушунчасининг киритилиши ҳам мақсадга мувофиқдир. Ушбу ҳолат маҳсус билим қўлланиладиган соҳалар доирасини аниқлаш имкониятини беради. Унга кўра, фикримизча, “**Маҳсус билимдан фойдаланиш экспертизинг экспертизадаги идентификацион ва бошқа тергов ҳаракатларидаги ҳамда мутахассиснинг маслаҳат ёки техник ёрдамни ўзида акс эттирувчи фаолиятига асосланган амалиётидан фойдаланишдир**”.

Экспертиза маҳсус билимларга асосланган ҳолда жиноят ишига алоқадор бўлган ҳолатларни аниқлаштиришга хизмат қилувчи тергов ҳаракати ҳисобланади. Ушбу тергов ҳаракати экспертиза тайинлаш ваколатига эга бўлган

шахсларнинг билим доирасида бўлмаган ма-салаларни ҳал қилишга ёрдам беради.

Эксперт ва экспертиза тушунчаларининг Жиноят-процессуал кодекси учун муҳимлигини ушбу тушунча мазкур қонунда 454 марта қўлланганлигидан билсак бўлади.

Экспертиза тергов харакатига терговчилар 80 % жиноят ишларида мурожаат қилишади.

Экспертиза тергов харакати универсал тергов харакати бўлиб, жиноят процессининг ҳар қандай босқичида қўлланилади.

Ушбу тергов харакатининг муҳимлигидан ва жиноят ишларини очилишида ёрдам бериши аҳамиятидан келиб чиқиб, унда хато ва камчиликларга, қонунчиликдаги бўшликларга йўл қўйиш мумкин эмас.

Ушбу хато ва камчиликларни таҳжил қилиб, уларни бартараф этиш йўлларини изоҳласак.

### **1. Экспертиза учун намуналарни ўз вақтида юбормаслик.**

Ўзбекистон худуди катталиги ва ҳамма вилюятларда ҳам Республика даражасидаги экспертиза марказларида мавжуд экспертиза турларининг мавжуд эмаслиги ва ўтказилмаслиги ушбу йўналишда муаммоли ҳолатларни юзага келишига сабаб бўлмоқда. Ушбу жараёнларга намуна юборувчи, экспертиза тайинловчи орғанларнинг намунага оид, унинг хусусиятига оид маълумотлардан кам ҳабардорлиги ҳамда унинг маълум бир иқлим шароитларида ўз хусусиятини йўқотиши ҳакида билмаслиги ушбу жараёнларни янада оғирлаштиришга хизмат қиласди.

### **2. Экспертнинг тадқиқоти учун лозим бўлган ҳолатларни ойдинлаштиришга қаратилган ёки далилларнинг олиниш манбаси ҳақидаги маълумотларни унинг илтимосига қарамай ўз вақтида етказмаслик.**

Суриштирувчи, терговчи ҳамда эксперплар ўртасида тезкор маълумот алмасинишида иш ҳажмининг катталиги, эксперплар билан уланиш учун маҳсус маълумотлар этишмаслиги, экспертиза муассасасидан терговчигача маълумот етиб боришига анча вақт ўтиши кабилар салбий таъсир кўрсатади. Ушбу муаммонинг ечилишида электрон шаклдаги маълумот алмашинув дастурлари амалий ёрдам беради. Масалан, терговчи экспертнинг қўшимча маълумот олишга бўлган эҳтиёжидан хужжат электрон тарзда ҳаракатланишдан тўхтаганидан ва унга

тегишли маълумот келганлигидан тезкор ҳабардор бўлади ҳамда тегишли маълумотни ёки юборади ёки юклайди.

### **3. Экспертиза имкониятларини ва уларнинг тадқиқот обьектини билмаслик.**

Бугунги кунда экспертиза имкониятлари кундан-кунга тезкорлик билан ривожланиб боряпти, унинг янгидан-янги турлари пайдо бўлмоқда. Ушбу экспертиза имкониятлари кенгайиб бораётган бир пайтда ҲМҚО экспертизаларнинг барча имкониятларидан бехабар қолмоқда. Ушбу жараёнларда янги экспертиза турлари ва уларнинг имкониятлари ҳақида доимий маълумот бериб борувчи дастурий таъминотлар яратиш талаб қилинади.

### **4. Тадқиқот обьектиning ўз вақтида тадқиқот учун юборилмаганлиги учун уни тадқиқ этиш имконияти йўқолиши каби сабаблар туфайли қарор ижросиз қайтарилган.**

Экспертизанинг асосий турлари Тошкент шаҳрида, яъни фақатгина пойтахтда ўтказилишини инобатга олиб, айрим ҳолатларда экспертиза текшируви учун намуналар юбориш қийинлашади, натижада эса тадқиқот обьекти таркиби ўзгаради ва тадқиқот учун яроқсиз бўлиб колади.

Айрим ҳолатларда эса терговчилар экспертиза обьектини тадқиқот учун юборишни кечикиришади. Бу биологик материаллар ва бошқа намуналарнинг ўз таркибини ўзгартириши каби салбий оқибатларга олиб келади.

### **5. Бир обьектга нисбатан икки ёки ундан ортиқ экспертиза тайинлаганда уларнинг ўтказилиши кетма кетлигини билмаслик.**

Терговчилар асосан бир обьектга нисбатан бир экспертиза туридан фойдаланган ҳолда хулоса олишга ҳаракат қилишади. Бу ҳолат эса хато бўлиб, экспертиза имкониятларидан тўлиқ фойдаланиш имкониятини чеклайди. Бир обьект бўйича имкон даражасида бир неча экспертиза тайинлаш имкониятини қидириш талаб қилинади. Масалан, бармоқ излари бўйича комплекс экспертиза тайинлаб, ДНК ва дактилоскопик экспертиза тайинлаш имкони мавжуд бўлиб, бу жиноятчи шахсини аниглаш ва жиноятларни очиш имконини бир неча бараварга оширади. Компьютер ва маълумот ташувчи воситалар тадқиқ қилинишида эса, аввало, уларда мавжуд бўлган бармоқ излари ва биологик материаллар олиниши ва шундан кейин компьютер техник экспертиза ўтказиш талаб қилинади.

## 6. Экспертиза тадқиқотида фойдаланиладиган методлар ҳар хиллиги.

Метод бу – тадқиқот натижасида маълум бир ҳолатни, ҳодисани энг ишончли, тез усулларда аниқлаш йўли ҳисобланади. Айрим ҳолатларда Ўзбекистонда фаолият юритувчи экспертиза марказларида хорижий мамлакатларда кўлланувчи, айрим ҳолатларда эса миллый методлардан маълум бир масалани ҳал қилишда фойдаланишади. Аммо ушбу методлар маълум бир тадқиқотларда бир-бирига зид бўлган натижани чиқариши ҳам мумкин. Масалан, имзони идентификация қилиш жараёнида бир экспертиза тури имзони гумон қилинувчиники деса, иккинчиси уники эмас деган хulosага келади. Ушбу жараёнлар инсон тақдирини ҳал қилишини инобатга оладиган бўлсак, ягона ёндашувни талаб қиласиган, ягона натижага олиб келувчи, энг мукаммал методга эҳтиёж мавжудлигини ҳамда методнинг ягоналигини таъминлаш лозимлигини кўрсатади.

## 7. Комплекс экспертизадаги муаммолар.

Комплекс экспертиза иш учун аҳамиятга молик ҳолатларни турли илм соҳаларидан фойдаланган ҳолда бир неча эксперт текширувни ўтказиш йўли билангина аниқлаш мумкин бўлган ҳолларда тайинланади. Комплекс экспертизани ўтказишида экспертларнинг ҳар бири ўз ваколати доирасида эксперт текширувларини олиб боради. Комплекс экспертизанинг хulosасида экспертларнинг ҳар бири қайси эксперт текширувларини вақанча ҳажмда олиб борганлиги, қайси ҳолатларни шахсан ўзи аниқлаганлиги ҳамда қандай фикрларга келганлиги кўрсатилади. Экспертларнинг ҳар бири хulosанинг ушбу эксперт текширувлари баён этилган қисмини имзолайди ва улар учун жавобгар бўлади.<sup>4</sup>

Амалиётда эса комплекс экспертизалар хulosасида экспертлар ўз тадқиқоти қисмининг остида имзо қўймасдан умумий хulosанинг охирида имзо қўйишади. Бу ҳолат эса экспертнинг ўтказилган экспертиза турларининг ҳаммасини, тадқиқот усулини тушуниб имзо қўйганлигини билдиради. Бу ҳолат эса амалиётда бир қатор тушунмовчиликларга олиб келиши мумкин. Масалан, тадқиқот орқали автоуловни ким бошқарди деган саволга дактилоско-

пик экспертиза ва тиббий экспертиза тайинланган бўлса, тиббиёт вакили берган тадқиқот натижаси учун дактилоскопик экспертиза ўтказган экспертизнинг ҳам жавоб бериши лозимлиги каби оқибатни юзага келтиради. Бу ҳолатда ҳар бир эксперт ЖПК талабларидан келиб чиқиб ўз хulosаси қисмини тасдиқлаши талаб қилинади.

## 8. Тадқиқот ўтказилганда техник воситанинг замонавийлигини кўриш.

Экспертиза муассасаларидағи тадқиқотларнинг ҳаммаси ҳам замонавий техник воситаларда ўтказилади деб бўлмайди. Техник воситалар ҳар доим ҳам стандартдан, техник кўриқдан ўз вақтида ўтказилавермайди. Бу ҳолатни эса терговчилар ёки адвокатлар ҳеч қачон аниқлашга ҳаракат қилмайди. Натижада эса техник жиҳатдан талабга жавоб бермайдиган, техник кўриқдан ўз вақтида ўтмаган восита орқали инсоннинг айборлиги ёки айбизлиги тадқиқот орқали аниқланади. Техник воситаларнинг замонавий талабга жавоб бериши, тадқиқот учун яроқли бўлиши лозимлиги, стандартдан, техник кўриқдан ўз вақтида ўтган воситаларданги на тадқиқот учун фойдаланиш лозимлиги шарт эканлигини Жиноят-процессуал кодексида акс эттириш лозим ҳисобланади.

## 9. Малака ошириш йилини аниқламаслик.

Суд экспертизаси тўғрисидаги қонуннинг “Суд экспертларининг малакасини ва ҳукуқий билимларини ошириш” деб номланувчи 27<sup>1</sup>-моддасига кўра, суд экспертлари ҳар икки йилда малака ошириш курсларида муайян суд-экспертлик фаолияти бўйича малакасини, шунингдек, ҳукуқий билимларини ошириб бориши шарт.<sup>5</sup> Демакки, малака ошириш шарт деган сўзлар экспертнинг ҳар икки йилда малака оширмаганлиги унинг хulosасига шубҳа пайдо бўлишига олиб келади.

## 10. Экспертиза ташкилотларида ўтказиладиган ҳамма экспертиза турлари ва уларнинг имкониятларидан тўлиқ хабардор бўлмаслик.

Амалиётда терговчилар экспертиза муассасаларида ўтказиладиган ҳамма экспертиза турлари ва уларнинг имкониятларидан хабардор эмас. Бу эса очилиши мумкин бўлган

4. Жиноят-процессуал кодекси. Ташкент. Адолат нашриёти. 2022 й.

5. Суд экспертизаси тўғрисидаги қонун. 2010 йил 1 июнь, № ЎРҚ-249.

жиноят ишларининг экспертиза имкониятларидан хабардор эмаслиги сабабли очилмай қолишига олиб келади. Бу камчиликни электрон дастурий ягона маълумот алмашинув тизимлари орқали бартараф этиш лозим. Е-экспертиза номли тизимда ушбу маълумотларни бериб бориш ва барча экспертизалар, уларнинг имкониятлари, тадқиқот учун бериладиган терговчи саволлари рўйхатини қўйиш талаб қилинади. Шундагина экспертизанинг барча имкониятларидан тадқиқот мақсадлари учун тўлиқ фойдаланиш имконияти пайдо бўлади.

### **11. Эксперт олдига қўйиладиган саволларни шакллантиришда экспертиза имкониятларидан келиб чиқмаслик.**

Амалиётда терговчилар эксперт олдига саволлар қўяётганда экспертиза имкониятларидан эмас, балки ўзлари билишлари лозим бўлган масаладан келиб чиқиб саволлар шакллантиришга ҳаракат қилишади. Бу эса тадқиқот методи мавжуд бўлмаган саволларга жавоб бериш имкониятини чеклайди, айrim ҳолатларда эса бошқа тадқиқот объектига тегишли савол берилганлиги сабабли ушбу саволларга жавоб бериш имконияти йўклиги тўғрисидаги хужжат олишга сабаб бўлади. Шу сабабли саволларни тадқиқот туридан келиб чиқиб шакллантириш хамда агар саволларни шакллантиришда қийналса асосий саволларни бериб экспертизанинг ўзининг ташабbusи билан

бошқа саволларга ҳам жавоб бериши мумкинлиги, яъни эксперт ташабbusи масаласини экспертиза тайинлаш тўғрисидаги қарорда киритиши лозим.

### **12. Экспертиза текшируви учун намуналар олиш ва юбориш билан боғлиқ хатолар.**

Амалиётда терговчилар учун намуна олиш жараёнида ҳар доимгидек мутахассисни жалб қилиш имконияти бўлавермайди.

Масалан, ракамли далиллар, электрон маълумотларни ўзида сақловчи воситалардан намуна олиш жараёнида, ёки биологик материалларни олиш билан боғлиқ ҳолатларда эксперт-криминалистнинг имкониятларидан фойдаланиш билан чекланишиди. Аммо улар ҳам ҳар доим ушбу турдаги далилларни олиш кўнникмасига эга бўлавермайди. ДНК тадқиқотини ўтказувчи экспертилар ушбу жараёнларда умуман иштирок этмайди. Натижада эса олинган намуналар ҳар доим ҳам тадқиқот учун яроқли бўлавермайди. Ушбу масаланинг ечинини топиш мақсадида намуналарни олишда амалга ошириладиган ҳаракатлар чек листи акс этган телеграм бот яратиш талаб қилинади. Ушбу бот терговчилар ҳар бир объектнинг ўзига хос жиҳатларини, уларни олиш кетма-кетлиги ва олишда эътибор қаратиш лозим бўлган жиҳатларни билиш имкониятини беради, натижада эса намуналар олишдаги хатолар камаяди.



### **13. Мутахассиснинг берган маълумот, фикрининг далилий аҳамияти.**

Жиноят-процессуал кодексида мутахассиснинг ҳолат юзасидан фикр бериш ва техник жиҳатдан ёрдам бериш, тафтиш ўтказиш каби функциялари мавжуд. Аммо ушбу ҳолатда тафтиш жиноят ишини қўзгатишга асос бўлувчи омиллардан бири ҳисобланади. Тафтиш жиноят ишини қўзгатишдан олдин ўтказилиши мумкин бўлган далилларни тўплаш усулларидан бири саналади. Аммо унинг натижаси бўлган далолатномани ёлғон аралаштириб ёзганлиги, яъни ёлғон далолатнома берганлик учун жавобгарлик Жиноят-процессуал кодексида акс этмаган. Фикримизча, ушбу муаммони бартараф этиш мақсадида амалдаги ЖПК-га ёлғон далолатнома ёки экспертнинг берган ёлғон ёзма фикри учун мутахассисга жавобгарлик белгилаш талаб қилинади.

### **14. Экспертиза хulosасидаги барча расмийлаштириш билан боғлиқ масалалар.**

Терговчилар эксперт хulosасини баҳолашда унинг Жиноят-процессуал кодексидағи расмийлаштириш билан боғлиқ талабларга жавоб беришига эътибор қаратишмайди. Жиноят-процессуал кодексининг “Экспертнинг ёки эксперtlар комиссиясининг хulosаси” деб номланувчи 184-моддасида хulosада экспертиза ўтказилган сана ва жой; экспертизани ўтказиш асоси; экспертизани тайинлаган орган (шахс) тўғрисида маълумотлар; эксперт (фамилияси, исми, отасининг исми, маълумоти, ихтисослиги, иш стажи, илмий даражаси,

илмий унвони, эгаллаб турган лавозими) ва экспертизани ўтказиш топширилган ташкилот ҳақида маълумотлар бўлиши лозимлиги акс этган. Демакки, хulosанинг расмийлаштириш қоидаларига мувофиқ бўлмаган ҳолда тузилиши унинг ҳақиқий эмас деб топилишига сабаб бўлиши мумкин. Шунинг учун терговчи хulosани олгач албатта хulosанинг ЖПК талабларига мослигини текшириши лозим.

### **15. Экспертиза тури мавжуд бўлмагандага уни тайинламаслиқ.**

Жиноят-процессуал кодекси терговчига хоҳлаган йўналишда экспертиза тайинлаш имконини беради. ЖПКнинг 172-моддасига кўра, иш учун аҳамиятли ҳолатлар тўғрисидаги маълумотларни фан, техника, санъат ёки касб соҳаси бўйича билими бўлган шахс ўтказадиган маҳсус текшириш орқали олиш мумкин бўлганда экспертиза тайинланиши изохланган. Аммо терговчилар давлат экспертиза муассасалари томонидан ўтказиладиган экспертиза турлари бўйича экспертиза тайинлаш билан чекланишади. Бу ҳолат эса уларнинг жиноят ишини тергов қилишдаги имкониятини чегаралаб қўяди. Улар вазиятга қараб ҳолатни аниқлаштиришга ёрдам бериши мумкин бўлган давлат ёки нодавлат ташкилотларига экспертиза тайинлаши мумкин ҳисобланади.

Хulosса қилиб айтганда, экспертиза институтидаги муаммолар бартараф этилсагина маҳсус билим институти ривожланади, инсон ҳуқук ва эркинликларини муҳофаза қилиш янги босқичга кўтарилади.



## ANNOTATSIYA

Nodavlat sud ekspertiza instituti xorijda ko‘р yillik tajribaga ega. Ushbu ekspert muassasalarining faoliyati sohadagi davlat sud ekspertlik monopoliyasiga chek qo‘yish bilan birga, sud ekspertizasi muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish orqali sohaning keng rivojlanishiga, iste’molchilar talabini qondirib, eng zamonaviy texnologiyalarning sohaga kirib kelishiga imkoniyatlar yaratib berdi. Ushbu maqolada DNK\* kriminalistik tahlili misolida nodavlat sud ekspertiza muassasalari tashkil etilishining soha rivojlanishiga ijobiy ta’siri va istiqbollari haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Nodavlat sud ekspertiza instituti, DNK ekspertizasi, DNK tahlilining chet el tajribasi, DNK tahlil usullari.

## АННОТАЦИЯ

Негосударственный институт судебной экспертизы имеет многолетний опыт работы за рубежом. Деятельность таких экспертных учреждений наряду с пресечением монополии государственных судебно-экспертных учреждений также создала широкие возможности для развития отрасли за счет создания здоровой конкурентной среды, удовлетворения потребительского спроса и внедрения современных технологий. В статье рассматриваются положительное влияние и перспективы создания негосударственных судебно-экспертных учреждений на примере судебной экспертизы ДНК.

**Ключевые слова:** Негосударственный институт судебной экспертизы, ДНК-экспертиза, зарубежный опыт проведения ДНК-исследований, методы исследования ДНК.

## ANNOTATION

Non-government institute of Forensic Science has many years of experience working abroad. The scientific activities of the institution, along with the suppression of the monopoly of state forensic expert institutions, also created ample opportunities for the development of the industry by creating a healthy competitive environment, meeting consumer demand and introducing modern technologies. This article discusses the positive impact and prospects for the creation of non-state forensic institutions on the example of forensic DNA testing.

**Key words:** Non-state institute of forensic expertise, DNA expertise, foreign experience in conducting DNA research, DNA research methods.

DNK ekspertizasi sud ajrimi, tergov organi qarori, shuningdek, shaxsiy sirlarni tarqatmaslikka rioya qilgan holda shaxslarning murojaati asosida o'tkaziladi. D NK ekspertizasi ish uchun ahamiyatli ilmiy asoslangan va ishonchli dallarni olish imkoniyatiga egaligi bois, tergov organlari hamda sudlar tomonidan tayinlanishiga ehtiyoj yildan-yilga o'sib bormoqda. Xususan, 2010-yilda X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining D NK laboratoriyasida 388 ta, 2016-yilda 1119 ta, 2018-yilda esa 1834 ta, 2021-yilda 2000 dan ortiq ekspertizalar bajarilgan. Bu ko'rsatkichlar sohani rivojlantirish, mamlakatimizning boshqa hududlarida ham D NK ekspertizasi laboratoriylarini ochish zaruriyati dolzarbligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, D NK ekspertizasini o'tkazish uchun qo'llaniladigan uskunalar, reagentlar va sarf materiallarning muntazam ravishda yangi rusumlari ishlab chiqarilib, eskilari ma'lum muddatdan so'ng ishlab chiqarishdan olib tashlanib, bir necha yildan keyin butkul texnologik servisi to'xtatiladi. Shuning uchun, D NK laboratoriysi moddiy-texnik bazasini har besh-o'n yilda modernizatsiyalash zarur bo'ladi. X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining D NK laboratoriysi tashkil etilgan davrdan boshlab laboratoriya modernizatsiyasi ikki marta o'tkazilgan. Xususan, 2019-yilda Odam DNKsi sud biologik laboratoriyasining jahon standarti talablariga mos binosi ishga tushirildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi 338-son qaroriga asosan D NK laboratoriysi texnik bazasini zamon talablari asosida jihozlash va xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish maqsadida davlat budgetidan bir milliondan ortiq AQSH dollarri ajratilib, laboratoriya eng zamonaviy D NK kriminalistik uskunalari bilan jihozlandi.

Xorijiy mamlakatlarda jinoyat ishlari bo'yicha D NK ekspertizasi asosan maxsus xizmatlar va politsiya idoralarining kriminalistika markazlari da o'tkaziladi. Tanib bo'lmas holatga kelgan murda qoldiqlari, texnogen fojealar va h.k. bo'yicha molekulyar genetik identifikatsiya tadqiqotlari sud-tibbiyot ekspertiza byurolarida o'tkaziladi.

Qarindoshlikni aniqlash bo'yicha otalik testlarning deyarli to'qson foizini nodavlat sud ekspertriza muassasalari o'tkazadi.

Nodavlat sud ekspertiza muassasalari va tijorat laboratoriylarida esa, hozirgi kunda ommalashgan geneologik tadqiqotlar (dunyo bo'yicha qarindoshlar qidirushi, ota va ona avlod bo'yicha shajara tuzish, irsiy kasalliklarga hamda sport turlariga moyillikni aniqlash) o'tkazilib kelinadi. Bunday taqsimlanish D NK tahlilining yangi yo'nalishlarini rivojlantirishga imkon yaratdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, hozirgi kunda xorijda D NK ekspertizasi yordamida uy hayvonlari zotini aniqlash, ular D NK ma'lumotlar bazasini yaratish bo'yicha faol ishlar yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, ba'zi mamlakatlarda "Qizil kitob"ga kiritilgan hayvonlar va o'simliklar" D NK ma'lumotlar bazalarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar xalqaro tabiatni muhofaza qiluvchi tashkilotlar homiyligida olib borilmoqda [1].

Kriminalistikada D NK ekspertizasi eng om-maviy tahlil turlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyo bo'yicha 400 dan ortiq D NK laboratoriylari tomonidan onlayn rejimda D NK testlarini o'tkazib berish bo'yicha xizmat ko'rsatilishi, D NK ekspertizasi natijalari bo'yicha turli xil televizion ko'rsatuvlar namoyish etilishi fikrimizning isbotidir. Yevropa mamlakatlarda olib borilgan o'rganishlar orqali 7-8 foiz erkaklar boshqa otadan tug'ilgan bolalarni tarbiya qilishi qayd etilgan. Masalan, Shveysariyaning o'zida 14 ta xususiy nodavlat D NK laboratoriylari genetik testlarni o'tkazish bo'yicha xizmat ko'rsatib kelmoqda [2].

Hozirgi kunda chet el krimanistik D NK ekspertizasi laboratoriylarida shaxsning tashqi qiyofasi – fenotipik belgilari haqida ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradigan NGS (ingliz tilida. next generation sequencing) yangi avlod sikvensi uslubini [3], D NK epigenetik tahlil orqali voqeа joyidan olingan biologik iz tegishli noma'lum shaxs yoshini pirosekvens uslubi orqali aniqlash[4], voqeа sodir etilgan joyning o'zida D NK ekspertizasini o'tkazishga ixtisoslashtirilgan RapidHIT ID System mobil laboratoriya tizimlari keng qo'llanib kelinmoqda [5]. Ushbu yangi uslublarni mamlakatimiz D NK ekspertizasi amaliyatiga tatbiq etish uchun xususiy kapitalni jalb etish muhim vazifa hi-

soblanadi.

Xorijda jismoniy va yuridik shaxslar arizalari hamda advokatlar so‘roviga asosan mustaqil DNK ekspertizasi yoki tergov oldi ekspertizasini o‘tkazish amaliyoti qo‘llaniladi. Asosan bola tug‘ruqxonada almashib qolganligiga shubha tug‘ilganda yoki turmush o‘rtog‘ini xiyonat qilganlikda gu’mon qilish holati va boshqalar bo‘yicha tergov oldi DNK tadqiqotini o‘tkazish orqali shubhaga oydinlik kiritish mumkin[6].

Hozirgi kunda mamlakatimizda DNK ekspertizasi yo‘nalishida mavjud muammolarni hal qilishda nodavlat sud ekspertiza institutini shakllantirish yordam beradi. Avvalambor, nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari “ikkinchi fikr” olish imkoniyatini beradi. Masalan, ba’zi holatlarda tomonlar o‘tkazilgan ekspertiza xulosasi to‘g‘riligiga shubha qilib, birlamchi ekspertiza xulosasidan norozi bo‘ladi. Mamlakatimizda boshqa DNK ekspertizasi laboratoriysi bo‘limganligi bois, qayta yoki qo‘sishmcha ekspertiza Markazning o‘zida boshqa ekspertlar tomonidan bajariladi. Shu sababli, nodavlat sud ekspertizasi muassasalarida DNK ekspertizasini o‘tkazish bu masala hal etilishini ta’minlashga yordam berishi mumkin.

DNK ekspertizasini o‘tkazishda noto‘g‘ri xulosa berish hamda sifatsiz xizmat ko‘rsatishning oldini olish maqsadida chet elda DNK eksper-

tizasini o‘tkazish huquqiga ega bo‘lgan davlat hamda nodavlat sud ekspertiza muassasalari ISO 17025 xalqaro standarti bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tishi amaliyoti keng qo‘llaniladi. Chet el sudlari ishlarni ko‘rib chiqish jarayonida DNK ekspertizasi xulosasiga baho berishda birinchi navbatda laboratoriya akkreditatsiyadan o‘tgan yoki o‘tmaganligiga ahamiyat qaratadi. Agarda DNK laboratoriysi akkreditatsiyaga yoki litsenziyaga ega bo‘lmasa, ular tomonidan berilgan xulosa inobatga olinmaydi.

Xorijda nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida ishlaydigan ekspertlar maoshi ularning professional salohiyati, bilim va malaka darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Shu bois, davlat va nodavlat sud ekspertlari malaka oshirish kurslaridan tashqari, doimiy ravishda sohaga oid maqolalar hamda ma’ruzalar bilan xalqaro konferensiyalarda ishtrok etadilar. Ekspertlar ishlab chiqaruvchi firmalar yetakchi mutaxassislari tomonidan o‘tkaziladigan seminar, treyting va mustaqil professional testlarda qatnashib, Yevropa va xalqaro DNK ekspertlari ishchi guruhlaridagi reytinglari yuqori darajada bo‘lishi uchun doimo izlanishda bo‘ladilar.

Shuningdek, xorijda nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari buyurtmachiga sifatlari xizmat ko‘rsatish maqsadida joylarga chiqib namuna



olish, qisqa muddat ichida tadqiqotlarni o'tkazib berish va natijalarni qisqa muddatlarda yetkazib berish kabi yo'llar bilan o'ziga bo'lgan ishonchni yanada oshirishga erishadilar.

DNK ekspertizasi sohasidagi xorij tajribasida ma'lumotlarni umumlashtirgan holda davlat sud ekspertiza muassasalarida hamda nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida D NK ekspertizasini yanada rivojlantirish yuzasidan istiqbolda quydigilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblayman:

1. Mutassadi tashkilotlar bilan hamkorlikda D NK kriminalistik tahlil laboratoriylarini tashkil etish bo'yicha hamda xalqaro standartlar asosida tekshiruvlarni olib borish bo'yicha talablar ishlab chiqish.

2. D NK kriminalistik tahlili mutaxassisligi bo'yicha kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish, yagona uslubiy yondashuvni ishlab chiqish.

3. Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimizda D NK kriminalisti tahlili sohasida faoliyat ko'rsatadigan laboratoriylar

yetakchi mutaxassislarini birlashtiruvchi respublika "DNK ishchi guruhi" ("DNA Working group") tashkil etib, kelajakda Yevropadagi INFSE(The European Network of Forensic Science Institutes (ENFSI)[7] D NK kriminalistik tahlil tarmog'i va umumjahon SWGDAM (Scientific Working Group on DNA Analysis Methods)[8] guruhlari bilan aloqalarni mustahkamlash, sohaga oid yangiliklar va ishlanmalar bilan ma'lumot almashinishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Yuqorida keltirilgan taklif va mulohazalar davlat va nodavlat sud ekspertiza muassasalarida D NK kriminalistik tahlilini rivojlantirishga, sohada qo'llaniladigan regent va sarf materiallar moliyaviy sarf-xarajatini qisqartirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishga, nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida D NK ekspertizasini tashkil etish esa "ikkinchi fikr" olish orqali birlamchi o'tkazilgan tadqiqotlar to'g'riliqi haqidagi shubhalarni bartaraf etishga va shu orqali xalqimiz roziliginini olishga xizmat qiladi.

## ADABIYOTLAR

1. Судебная молекулярно-генетическая экспертиза объектов биологического происхождения – новое направление судебно-экспертной деятельности Минюста России / С.А.Смирнова, Г.Г.Омельянюк, И.В.Стороженко, А.А.Рыбакова, В.В.Гулевская. Теория и практика судебной экспертизы. Том 16, № 1 (2021).
2. <https://www.swissinfo.ch/rus>.
3. А.Г.Бородинов, В.В.Манойлов, И.В.Заруцкий, А.И.Петров, В.Е.Курочкин. Поколение методов секвенирования ДНК (обзор) – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru>.
4. PyroMark Q48 Autoprep Software Quick-Start Guide 10/2015;
5. <https://www.sciencedirect.com/journal/forensic-science-international-genetics>, “Validation of a rapid DNA process with the RapidHIT® ID system using GlobalFiler® Express chemistry, a platform optimized for decentralized testing environments”.
6. Я.А.Хижняк. К вопросу о генетической экспертизе. - [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru>.
7. <https://enfsi.eu/>
8. <https://nij.ojp.gov/topics/articles/scientific-working-groups-forensic-sciences>

# LINGVISTIK EKSPERTIZANING O'ZBEK TILI RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

*TO'RAYEVA*

*Dildora Anvarovna,*

*Alisher Navoiy nomidagi*

*ToshDO'TAU "O'zbek tilshunosligi"*

*kafedrasi katta o'qituvchisi,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori(PhD)*

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada lingvistik ekspertiza, uning o'zbek tilshunosligi va sud-huquq tizimidagi o'rni haqida fikr yuritilgan. Lingvistik ekspertizaga aloqador yo'naliishlarning jamiyat, ilm-fan taraqqiyotidagi hissasi haqida mulohazalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy yozuv, rasmiy yozishma, maktub shaklidagi shaxsiy yozishma, SMS va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishma, audio tarzidagi shaxsiy yozishmalar, video shaklidagi shaxsiy yozishma, da'vat, tahdid, taklif, tahqir.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается лингвистическая экспертиза, ее роль в узбекском языкознании и судебно-правовой системе. Даны отзывы о вкладе направлений, связанных с лингвистической экспертизой, в развитие общества, науки.

**Ключевые слова:** личная переписка, официальная переписка, личная переписка в форме письма, личная переписка в виде SMS и в социальных сетях, личная переписка в виде аудио, личная переписка в виде видео, призыв, угроза, приглашение, оскорбление.

## ANNOTATION

This article examines linguistic expertise, its role in Uzbek linguistics and the judicial and legal system. Reviews are given on the contribution of areas related to linguistic expertise to the development of society and science.

**Key words:** personal correspondence, official correspondence, personal correspondence in the form of a letter, personal correspondence in the form of SMS and social networks, personal correspondence in the form of audio, personal correspondence in the form of video, appeal, threat, invitation, insult.

Bugungi kunda fan, texnika va texnologiyaning taraqqiyoti turli sohalarning rivoj topishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, omma orasida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning keng avj olishi ijobiy ahamiyati bilan bir qatorda salbiy ta’sirga ham egadir. Jamiyat a’zolarining so‘zga mas’uliyasizlik ila yondashuvi oqibatida qator jinoiy masalalar yuzaga kelyapti. Ya’ni Telegram, Whats up, Facebook, Instagram kabi tarmoqlarda insoniyat ma’naviy va ruhiy holatiga ta’sir etadigan, ularning sha’ni va obro‘yiga putur yetkazadigan, hazrati Inson tushunchasiga daxl qiladigan turli mazmundagi qator nutqiy birliklar qo‘llanila boshlandi. Oqibatda, nutqiy birliklar jamiyatda muammoli vaziyatlar, jinoiy holatlarga sabab bo‘luvchi ko‘rinmas qurol sifatida gavdalandi. Nutqiy jinoyatlarga yechim topish uchun esa sud-huquq tizimida tilshunos-ekspertlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Bu esa jamiyat huquq va manfaatlarini himoyalash, inson qadr-qimmatini ulug‘lash maqsadida huquqshunoslik va tilshunoslik kesimi doirasida lingvistik ekspertiza yo‘nalishining shakllanishiga sabab bo‘ldi. Bu sohaning asosiy vazifasi nutqiy jinoyatlarga sabab bo‘luvchi til birliklarining ifoda xususiyatini belgilash, ularning semantik darajasini aniqlash, so‘z ma’nolari: haqorat, tahqir, tahdid, da’vat, taklif, iltimos kabilarning insoniyat ma’naviy ongiga ta’sir kuchini ochib berish, shuningdek, birliklarning hududiy xususiyatlarini tahlil qilish, ayol yoki erkak nutqiga oid birliklarni ajratish, shaxsning yoshi hamda ijtimoiy qatlamiga aloqador bo‘lgan so‘zlarni farqlash kabi masalalarga aniqlik kiritishdan iboratdir. Tilshunos-ekspertlar mohirlilik ila so‘zning ma’noviy darajasini ochib berishi, uning boshqa so‘zlar bilan sintaktik munosabatini tahlil etishi, so‘z va jumlalarning uslubiy ifodasini farqlashi hamda grammatik me’yorlarga muvofiqligini aniqlash natijasida matn avtorizatsiyasini yaratishi mumkin. Zotan, har bir inson individual xususiyatlarini yozuvni bilan bir qatorda nutqiy hosilalarida ham namoyon etadi. Yozma axborot almashinuvi natijasida esa yozishmalarda ishtirok etadigan shaxslarning turli xil munosabatlari yuzaga keladi. Yozma axborot harakatining rejalashtirilgan sxemalarida


uchta yozishmalar tizimi mavjud:

- jismoniy shaxslarning o‘zaro yozishmalar;
- hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxslarning o‘zaro yozishmalar;
- jismoniy shaxslar va vakolatli shaxslar o‘rtasidagi yozishmalar [1. –B. 5-11].

Ishtirokchilardan biri mansabdor shaxs yoki muassasa bo‘lgan yozishmalar rasmiy xatlar sanaladi. Amaldagi qonunchilik asosida o‘z muammosini hal qilish uchun xususiy shaxs davlat hokimiyatini ifodalovchi muassasaga yozma ariza (xabar) bilan murojaat qildi va hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxslar xizmat qildi. Muayyan muammoni ko‘rib chiqish jarayonida hokimiyat organlarining yozishmalar, shuningdek, mansabdor shaxslarning ariza beruvchi (xususiy shaxs) bilan yozishmalar paydo bo‘ldi. Ushbu hujjatlarning barchasi rasmiy xarakterga ega yozishmalar sanaladi. Ammo shaxslar o‘rtasida amalga oshiriladigan, rasmiy hamda siyosiy ahamiyatga ega bo‘lмаган xatlar shaxsiy yozishmalar sanaladi [2. –B.243]. Umuman, xususiy tarzda amalga oshiriladigan yozishmalar sirasiga biznes va shaxsiy xarakterdagи xatlarni kiritish mumkin. Ishbilarmonlik yozishmalar, an’analalar yoki shartnomma asosida iqtisodiy vazifalarni hal qilish ruhidagi xatlar tadbirkorlikka oid yozishmalaridir. Shaxsiy yozishmalar esa qarindoshlar, tanishlar, do’stlar o‘rtasida o‘tkaziladi. Shaxsiy xatlarning ijrosi, ko‘pincha, voqelikni hissiy va individual idrok etish orqali shakllanadi. Ushbu xatlar biznes yozishmalaridan tashqari rasmiy mavzularda muhokama qilinmaydigan ko‘plab mavzularni qamrab oladi. Ularning mualliflari uydagi tashvishlar va hodisalar, boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlar, turli xil his-tuyg‘ular, shaxsiy hayotiga aloqador ma’lumotlarni bayon etishadi.

Shaxsiy yozuv – biror narsani o‘ylash yoki shaxsiy tajribani boshqalar bilan baham ko‘rish zarurati tug‘ilganda foydalaniladigan vosita.[3. –B. 656] Shaxsiy yozishmalar tushunchasi qay mavzu va yo‘nalishda bo‘lishidan qat’i nazar, insonning individual yondashib amalga oshirgan harakatidir. Shaxsiy yozishmalar bir tomonlama va ikki tomonlama munosabatlarda bo‘lishi mumkin. Xabar yo‘llovchi va qabul qiluvchisi aniq bo‘lgan shaxsiy yozishmalar – ikki tomonlama yozishmalar sanaladi. Ammo xabar

yo‘llovchi aniq-u, qabul qiluvchi noaniq yoki xabar yo‘llovchi noaniq-u, qabul qiluvchi aniq bo‘lgan bir tomonlama munosabati-dagi shaxsiy yozishmalar ham mavjud. Masalan, biror shaxs boshqa birovning o‘limiga sababchi bo‘lib qolishi va uning nomidan marhumning o‘zi aybdorligi xususida ma’lumot qoldirishi mumkin. Bunda yozishma i j r o c h i - si aniq, ammo qabul qiluvchilar marhumning oilasi, qolaversa, fuqarolar huquqini himoya qiluvchi davlat tashkilotlaridir. Shu o‘rinda lingvistik ekspertiza xatshunoslik ekspertizasining taraqqiyot bosqichi deyish mumkin. Ya’ni xatshunoslik ekspertizasida muammoli hamda anonim yozishmalarning shakli xususiyatlari: yozuvning dinamikasi, harflarning katta-kichikligi, shakli (burchaksimon, ovalsimon, yotiq, to‘g‘ri kabi), yozuv vositasining turi, yozuv uslubi, bosim kuchi (yozuv vositasi kuchli bosimda, kuchsiz bosimda amalga oshirilishi) kabilari o‘rganiladi [4. 2022]. Lingvistik ekspertrizada esa muallifi noma’lum bo‘lgan, muammoli deb topilgan yozishmalarning mazmuniy xususiyatlari ko‘proq ahamiyat beriladi. Yozishmada-gi so‘zlarning ma’no darajalari, inson qadr-qimmatiga ta’sir kuchi kabi xususiyatlari o‘rganiladi. Bunda matn tarkibiy qismlarini, avvalo, komponentlarga ajratib leksik, grammatic, sintaktik, punktuatsion tomonlari butun-qism munosabati asosida tahlil qilinadi [5. –B. 507-509]. Yozishma butun holatda o‘rganiladi, ya’ni umumiylar mazmuni, nutq yo‘nalishi, tahdid, tahqir bor-yo‘qligi kabi qabul qiluvchiga nisbatan munosabatlar umumiylar tarzda aniqlab olinadi. So‘ng matn qurilishidagi asosiy birliklar farqlanadi, avvalo, ko‘zga tashlanadigan jihatlari ajratib olinadi. Masalan, noadabiy leksik, grammatic va fonetik unsurlar bunda muhim belgi vazifasini bajaradi. Saralab olingan birliklarning uslubiy, hududiy, shaxs yoshi va jinsiga ko‘ra jihatlari atroficha tahlil qilinadi. Har



ikkala ekspertizaning umumiy tomoni shundan iboratki, tahlil jarayonida dalil sifatida olin-gan materiallar o‘zaro qiyoslash, taqqoslash asosida yakuniy xulosalar hosil qilinadi. Insonning psixik-fiziologik holati: kasalligi, ruhiy xastaligi, nogironligi, hayajon va stress holatlari uning yozuvida aks etsa, shaxs dunyoqarashi, savodxonligi, ma’naviy kamoloti uning nutqiy hosilalari-da namoyon bo‘ladi. Bunda har bir tilshunoslik ka asoslangan axborotlar matn avtorizatsiyasini yaratishda muhim o‘rin tutadi. Masalan, nutqiy hosilalarning qo‘llanish uslubi, ifoda va ma’no xususiyatlari, shaxsnинг ijtimoiy qatlamni, savodxonlik darajasini aniqlashda, uning jamiyatdagi o‘rnini belgilashda qo‘l keladi. Shuningdek, tilshunos-ekspert yozma matnlarda qo‘llangan nutqiy birliklarning areal xususiyatlarini aniqlashi, masalan, matnda shevaga oid turli ma’noga ega so‘zlarning qo‘llanishi, ulardagi tovushlarning ifoda xarakteri, qo‘simechalarning to‘liq va qisqa yoki o‘rin almashgan holda ifodalaniishi, so‘zlararo sintaktik munosabatlarning me’yoriyligini aniqlash kabi nutqiy hosilalarning lingvistik tahlili jinoyatchining hududiy mansubligini belgilashda yordam beradi. Matnlar ustida amalga oshirilgan lingvistik tahlillarning bari jinoyatchi haqidagi axborot manbayi sanaladi va sud jarayonida muammoli vaziyatlarning yechimiga sabab bo‘ladi.

### O‘zbek tili taraqqiyotiga qo‘shadigan hissasi.

Lingvistik ekspertizaning shakllanishi va rivoji jamiyat bilan bir qatorda o‘zbek tilshunoslik taraqqiyotida ham muhim ahamiyatga ega. Bu soha keng qamrovli bo‘lib, yozma matnlardagi jinoy holatlarga oid birliklarning lingvistik tahlili ni amalga oshirishdan tashqari qator tarmoqlarga egadir. Jumladan:

- Mumtoz adabiyotga oid muallifi noma’lum qo‘lyozma matnlarning lingvistik tahlili matn avtorizatsiyasini aniqlashda, shuning-

dek, o'sha davrga oid nutqiy birliklarning ifoda xususiyati, ma'noviy xarakteri hamda ularning shakllanish asosini belgilashda yordam beradi. Bu esa tilshunoslikda leksik boylikning oshishi, so'zlarning tarkibiy asoslarining shakllanishi va birikuvida grammatik mukammallikning ta'minlanishi, o'z va o'zlashma qatlardagi birliklarning farqlanishi kabi omillarning takomiliga xizmat qiladi.

- Normativ-huquqiy hujjatlarga oid lingvistik ekspertiza qonun, qaror va farmonlardagi nutqiy birliklarning tahlili bo'lib, bunda jumlalarning o'zbek tiliga oid gap qurilish qolipida emas, balki xorijiy tilshunoslik strukturasi asosida shakllanganligini aniqlashga doir tahlil amalga oshiriladi. Bu esa o'zbek tiliga oid so'zlarning milliy xarakterining yo'qolishi, davlat ahamiyatiga molik hujjatlarning tushunarsiz tarzda ifodalanishi va iste'molchilarning milliy tilimizdagi ma'lumotlarni qiyinchilik ila qabul

qilishi kabi holatlarga sabab bo'ladi. Bunday hujjatlarning lingvistik ekspertizasi esa o'zbek tilshunosligida gap qurilish qoliplari, so'zlararo sintaktik munosabatlarning mukammallashuviga yordam beradi.

- Yozuvchilar qalamiga mansub bo'lgan badiiy asarlar lingvistik ekspertizasida roman, qissa, hikoya kabi ijod namunalarida qo'llangan so'z va iboralarning ma'no xususiyatlari, ularning matnda qo'llanilish o'rni hamda davr va ijtimoiy muhit bilan aloqadorligi kabilarni belgilashga xizmat qiladi. Bu esa elektron dastur asosidagi haqorat, qarg'ishga oid, diniy ekstremizm va terrorizmga oid, hududiy va ijtimoiy qatlarga oid, gender xoslikka oid, kasbiy faoliyatga oid kabi so'zlardan iborat lug'atlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Pirovardida, turkiy til asosida shakllangan O'ZBEK TILINING naqadar boy va serqirra ekanligi namoyon bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Антонов О.Ю. Особенности использования специальные знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних // – Москва, 2018. – С. 5–11.
2. To'rayeva Dildora Anvarovna, Burxonov Javobek Azimjonovich - Anonim shaxsiy yozishmalar ekspertizasi. O'zbek tilining milliy korpusi: muammo va vazifalar. 2022
3. Сепир Э. Избранные труды по языкоznанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 656.
4. Xolmatova G. Lingvistik ekspertizada grafologiyaning roli // – Scientific Journal Impact Factor ISSN 2181-1784 VOL 1, ISSUE 3, 2021.
5. Ким Л.Г. Холистические принципы проведения идентификационной автороведческой экспертизы разножанровых текстов. Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции "Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы" (Москва, 1-2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А.С.Пушкина, 2019. – С. 507–509.

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sud-tergov jarayonida konfliktli matnlarni lingvokriminalistik tadqiq etish turlari haqida so‘z yuritiladi. Muallif tergov jarayonida yuzaga keladigan konfliktli matnlarning xususiyatidan kelib chiqib tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Shuningdek, ushbu sohada zarur kasbiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ekspertning xulosasi tegishli faktlarni aniqlash yoki baholash uchun zarur degan xulosaga keladi.

**Kalit so‘zlar:** yurislingvistika, lingvokriministik, lingvokriminalistik ekspertiza, sudsiyosatshunoslik ekspertezasi.

## АННОТАЦИЯ

В статье говорится о видах лингвокриминологического исследования конфликтных текстов в процессе судебного следствия. Автор подчеркивает важность исследования, исходя из характера конфликтных текстов, возникающих в процессе расследования. Также делается вывод о том, что для установления или оценки соответствующих фактов необходимо заключение эксперта, обладающего профессиональными знаниями и навыками в данной области.

**Ключевые слова:** юриспруденция, лингвокриминология, лингвокриминологическая экспертиза, судебно-политологическая экспертиза.

## ANNOTATION

This article talks about the types of linguocriminological research of conflicting texts in the judicial investigation process. The author emphasizes that it is important to research based on the nature of the conflicting texts that arise during the investigation process. It also concludes that the opinion of an expert with the necessary professional knowledge and skills in this field is necessary to determine or evaluate the relevant facts.

**Keywords:** jurisprudence, linguocriminology, linguocriminology expertise, forensic and political science expertise

# KONFLIKTLI MATNLARNI LINGVOKRIMINALISTIK TADQIQ QILISH TURLARI TAVSIFI

*O‘ROZOV*

*Jumanazar Norqizilovich,  
Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o‘zbek tili va  
adabiyoti universiteti  
“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasи  
o‘qituvchisi*

Bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyoti bosqichlari barcha sohalarda ko‘zga tashlanib bormoqda. Bunday murakkab ijtimoiy-huquqiy jarayonlarda, eng avvalo, fanlarning o‘zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek tilshunosligi mustaqillik yillarda tubdan shakllanib, tadrijiy tarzda rivojlanishi, aynan boshqa fanlar bilan uyg‘unlashib, yanada takomillashayotgani diqqatga sazovordir. Bu borada dunyo ilm-fani ancha rivojlanish cho‘qqisiga erishgan bo‘lib, hatto shu integratsiyalashgan fanlarning negizida ham yana yangi ilmiy yo‘nalishlar qaror topmoqda. Xususan, yurislingvistik fani negizida lingvokriminalistika, sud lingvistikasi, huquq ijodkorligi lingvistikasi kabi bir qancha fanlar shakllanmoqda.

Shu bois bugungi kunda o‘zbek tilshunosligini boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda rivojlantirish tilshunos va boshqa soha olimlari oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Sud-tergov jarayonida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga lingvistik bilimlar orqali yechim topish, fakt va dalillarni asoslashda tilning o‘rni g‘oyatda yuqori. Shu nuqtayi nazardan, surishtiruv, tergov jarayoniga aloqador matn bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday konfliktli vaziyatlarni lingvistik belgilariغا ko‘ra tahlil qilish lingvokriminalistik ekspertizaning tadqiq sohasi sanaladi. Anonim xatlar, ularda muallif atributlarini aniqlash, plagiatslik holatlarini baholash, shuningdek, savdo markalarini lingvistik jihatlariga ko‘ra tahlil qilish lingvokriminalistik ekspertizaning asosiy obyektlaridan sanaladi.

Lingvokriminalistik tadqiq qilishni turlarga ajratishda mutaxassislar tomonidan turlicha yondashuvlar mavjud. Ushbu soha XX asrning so‘nggi o‘nyilliklarida rivojlangan. M.A.Grachyov talqinida esa lingvokriminalistika alohida turga ajratilgan har xil turdag'i tadqiqot materiallari, moddalar, mahsulotlar, shuningdek, materialshunoslik bilan ish ko‘radigan yuridik sohaning tarmoqlaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. [Grachyov, 2009: 280 s.] I.K.Brinevning fikricha, lingvokriminalistik ekspertizani turlarga

ajratish muhim ahamiyat kasb etmaydi. Eng muhim, sohaga doir yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat.[Brinev, 2009: 252s.] Bizning fikrimizcha, lingvokriminalistik tadqiq turlarini belgilab olish joiz. L.V.Ajnyuk lingvistik ekspertizaning maxsus bilimlar talab qilinadigan ikki asosiy turini ko‘rsatadi. Birinchidan, ommaviy axboror vositalari materiallari (televideniye, radio, gazeta, jurnallar bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoq xabarları ham nazarda tutiladi), dasturlar, og‘zaki taqdimotlar, reklama matnlari, tovarlarda iste’molchilar uchun ma’lumot va xizmatlar, firma nomlari, teledasturlar va boshqalar). Olimning fikriga ko‘ra, ushbu turda til huquqiy jihatdan tartibga solish vositasi sifatida ishlaydi. Bizning fikrimizcha, teledasturlarni lingvistik tahlil qilish mumkin, ammo aynan huquqiy tartibga solish vositasi sifatida lingvokriminalistik tadqiq qilish ahamiyat kasb yetmaydi. Shu sababdan ushbu jumlanı zaruriy hollarda teledasturlar lingvokriminalistik tadqiqi jumlesi bilan almashtirish maqsadga muvofiq. Agarda teledasturda ekstremistik va terrorchilik yoki shovinistik g‘oyalar mavjudligi bo‘yicha da’vo qilinsa va aniqlansa, lingvokriminalistik ekspertiza tayinlash o‘rinli bo‘ladi. Ikkinchidan, sotsial munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha lingvokriminalistik ekspertiza. Bunda turli me’yoriy-huquqiy hujjalarni, shaxsiy yozishmalar asosiy obyekt bo‘lib xizmat qiladi. [Ajnyuk, 2016: S. 6]

Germaniyalik olim Jurgen Handkie lingvokriminalistik tadqiq jarayonini ikki turga ajratadi:

1. Ovozli xabarlar identifikatsiyasi.
2. Yuridik matnlar identifikatsiyasi.[Handkie, 2014]

Birinchi turda olim ovozning fonetik xususiyatlari, ovoz tempi va uzunligi kabilarga e’tibor qaratish lozimligiga urg‘u bersa, ikkinchi turda yuridik matnlar identifikatsiyasida o‘z joniga qasd qilishga qaratilgan xatlar, turli kriminal xarakterdagi matnlarni tadqiq qilish nazarda tutilgan.

L.V.Ajnyuk tomonidan taklif etgan tur boshqa olimlar va mutaxassislar tomonidan berilgan mulohazalarga nisbatan solishtirganda, umumiyroq xarakter kasb etadi. Olim ikki turga ajratishda asosiy xususiyatlarga tayanadi va shunga ko‘ra bo‘linishni ma’qul topadi. Ingliz

lingvist-eksperti Jon Olsson lingvokriminalistik tadqiq jarayonini turlarga ajratishda matn avtorizatsiyasi, plagiatlik holatlari, ovozli xabarlar identifikatsiyasi kabi turlarga alohida urg'u beradi.[John.Olsson, 2008: P 5-10.]

O'zbek tilshunos mutaxassislaridan K.Musulmonova lingvistik ekspertizani quyidagi turlarga bo'lib chiqadi:

- shaxsni obro'sizlantirish mazmunli matnlar lingvistik ekspertizasi (tuhmat, omma oldida haqorat qilish);
- muallifi noma'lum matnlar lingvistik ekspertizasi (anonim xatlar yoki muallifi shubha ostida bo'lgan suitsid matnlar);
- plagiarism holatlarini aniqlash lingvistik ekspertizasi (antiplagiat dasturlaridan farqli ravishda mazmuniy va g'oyaviy jihatdan "adabiy o'g'rilik"ni baholash);
- reklama matnlari lingvistik ekspertizasi (reklamada konstitutsiyaviy tuzum, shaxs ongi va dunyoqarashiga daxl qiliuvchi elementlarning bor/yo'qligini asoslash, boshqa reklama matnlari bilan o'xshashlik, o'zlashtirilganlik faktorini aniqlash);
- hujjatlar, me'yoriy hujjatlar matnlari lingvistik ekspertizasi (hujjat matnining jamoatchilikka tushunarli va ravon bo'lishi, murakkab sintaktik konstruksiyalar, g'aliz so'z va iboralardan xoli ekanligini baholash);
- savdo belgilari, domen nomlari, kompaniya nomlari va nutq faoliyatining boshqa mahsulotlari lingvistik ekspertizasi ("Davlat tili haqida"gi qonunga muvofiq yoki muvofiq emaslik, boshqa firma-kompaniyalardan o'zlashtirilgan yoki o'zlashtirilmaganlik faktorini aniqlash);
- ekstremistik materiallar lingvistik eksperitizasi [Musulmonova, 2022: B.-31].

K.Musulmonova yuqorida taklif etgan lingvistik ekspertizaning tarkibiy qismlari umumiy xarakter kasb etgan bo'lib, qonun ijodkorligi, sud jarayoni bilan bog'liq matnlarni ham o'z ichiga oladi.

Yuqorida olimlar bildirgan fikr-mulohazalaridan kelib chiqib, konfliktli matnlarning xarakterli xususiyatlari, turli dialektlarning anonimik holatlarda voqelanishi, leksik birliklarning qator semalari, shuningdek, sudsbergov jarayoni bilan bog'liq e'tirozlar va ziddiyatga sabab bo'layotgan matnlarning

turi, xarakterli xususiyatiga muvofiq lingvokriminalistik tadqiq turlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- haqorat, tuhmat, sha'n, qadr-qimmat va ishchanlik obro'sini himoya qilish bo'yicha ekspertiza;
- turli konfliktli so'z va iboralarda salbiy ma'no va ma'lumotlarning mavjudligi bo'yicha ekspertiza;
- turlicha noqonuniy xatti-harakatlarga jalg etish, suhbat mazmunini niqoblash (ataylab noto'g'ri ma'lumot berish) bo'yicha ekspertiza;
- ekstremistik, terrorizm, tahdid, shantaj, nafrat va adovatni qo'zg'atuvchi materiallar bo'yicha ekspertiza;
- korrupsiya, tovlamachilik holatlari bo'yicha ekspertiza;
- turli giyohvandlik moddalar, psixotrop vositalar bilan shug'ullanuvchilarning nutqi bilan bog'liq holatlar bo'yicha ekspertiza;
- qurol-yarog' noqonuniy savdosini bilan shug'ullanuvchilar nutqi bilan bog'liq ekspertiza;
- turli muallifi noma'lum bo'lgan konfliktli matn muallifini aniqlash holatlari bo'yicha ekspertiza;
- noverbal nutq vositalari orqali bayon etilgan nutq ekspertizasi (imo-ishoralar);
- siyosiy nutqlar lingvokriminalistik ekspertizasi;
- nomlanish, tovar belgilari (grafik, noverbal) ekspertizasi (logotiplar, firma, korxona, kafe, restoran nomlarining davlat tiliga mos yoki mos emasligi).

Lingvokriminalistik tadqiq jarayonining ushbu turlari – konfliktli matnlar (og'zaki va yozma)ni lingvokriminalistik tomondan tadqiq qilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, lingvokriminalistik tadqiqotning har bir turi muayyan konfliktli vaziyatlarga yechim topishga yordam beradi. Sud ekspertizalari negizida xatshunoslik, muallifshunoslik, siyosatshunoslik ekspertizalari alohida ajratib ko'rsatiladi. Biroq ushbu ekspertiza turlarida ham matn bilan bog'liq holatlarda lingvokriminalistik tadqiqqa zarurat tug'iladi. Shu boisdan ushbu tadqiq jarayonini turlarga bo'lib olishda matn bilan ish ko'rvuchi va konfliktli vaziyatlar yuzaga keluvchi holatlarni nazarda tutish lozim.

Yuqorida ko'rsatilgan tadqiq jarayoni turlaridan ba'zilarining tekshirish obyekti

va muammoli masalalarini quyida ko'rib chiqamiz.

Sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini kamsitish bilan bog'liq holatlar bo'yicha lingvokriminalistik tadqiq o'tkazishda quyidagi savollarga javob topiladi:

- Nashr matnida "..." (aynan qanday nashr ekanligi ko'rsatiladi. Masalan, maqola, xabar nomi) ma'lum bir shaxs haqida haqorat mazmuni mavjudmi... (shaxsning to'liq ismi sharifi ko'rsatilishi lozim).
- Matnning kommunikativ yo'nalishi qanday?
- Matn obro'sizlantirish strategiyasiga ko'ra tuzilganmi?

Muallifi noma'lum matnlarning lingvokriminalistik ekspertizasi(anonim xat va qo'lyozmalar nazarda tutiladi):

- Qo'lyozma matni va taqdim etilgan boshqa qo'lyozmalar muallifi bormi?
- Imzo aynan bir kishiga tegishli yoki tegishli emasmi?
  - Matn ijrochisi va muallifi bir shaxsni ifodalaydimi?
  - Matn muallifini aniqlash uchun yozuvning umumiyligi va maxsus belgilari mavjudmi?
  - Matn muallifini aniqlash uchun ajralib turadigan alohida leksik birliklar mavjudmi?
  - Matn muallifini aniqlash uchun alohida sintaktik, stilistik xususiyatlar mavjudmi?
  - Lingvistik belgilar orqali muallifning yosh, gender, ijtimoiy xoslanish kabi ma'lumotlarini aniqlash mumkinmi?

Muallifi noma'lum matnlarning lingvokriminalistik tadqiqi jarayonida matn ijrochisi iloji boricha muallifligini yashirishga harakat qiladi va o'z lingvistik savodxonligini o'zgartirishga harakat qiladi. Bunda lingvokriminalist matnning soxtaligini aniqlashda quyidagi umumiyligi belgilarga e'tibor berishi kerak:

- yozma nutqqa xos bo'lmagan ortiqcha so'zlarni kiritish (aytaylik, har ehtimolga qarshi va hokazo), so'z birikmalarini, undovlardan foydalanish;
- to'g'ridan noto'g'rige tuzatishning mavjudligi;
- matnda mazmunan mutlaqo ortiqcha bo'lgan muallifning holatlari va xususiyatlariga taqlid qilishning aniq namoyishi belgilarinining mavjudligi.

Shu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, mualliflikni, qo'l yozuvini qasddan o'zgartirish faktini, shuningdek, anonim xat muallifining noto'g'ri holatini aniqlashda keng qamrovli lingvistik va qo'l yozushi ekspertizasi talab qilinadi.

Imo-ishoralar ham nutq aktida ishtirok etadi va axborot tashish funksiyasini bajaradi. Turli jinoiyo to'dalar, ekstremistik guruhlar nutqida ana shunday imo-ishoralar ishtirok etishi mumkin. Ishoraning nutq aktida voqelanishi, kommunikativ vaziyat yaratishi ekspert tomonidan tahlil qilinadi. Bundan tashqari, yirik jinoiyo to'dalar tilida ishlataluvchi so'zlar (argotizmlar) ham lingvokriminalistik tadqiq turlari sifatida baholanishi lozim. Boisi, lingvist-ekspert so'zning etimologiyasi, stilistik xoslanishi, kontekstual ma'nosiga, semalarini atroflicha tahlil qilib, so'z "shifr"ini ochishi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek, konfliktlarga sabab bo'lgan siyosiy nutqlarni ham lingvistik ekspertiza qilish maqsadga muvofiq. Siyosiy nutq lingvokriminalistik ekspertizasi sud siyosatshunoslik ekspertizasidan farq qiladi, albatta. Sud siyosatshunoslik ekspertizasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga tajovuz, millatlar, elatlar o'rtasida irqiy, etnik nizolarni qo'zg'atish, urush va ekstremistik g'oyalarni targ'ib qilishni aniqlash maqsadida amalga oshirilsa, siyosiy nutq lingvokriminalistik ekspertizasi yirik davlat arboblari, mansabdor shaxslar nutqini zarurat tug'ilganda lingvokriminalistik tadqiqli dan o'tkazishga qaratiladi. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash kerakki, sud siyosatshunoslik ekspertizasi zamirida ham lingvokriminalistik ekspertiza bor va sud siyosatshunoslik ekspertizasi obyekti bo'lgan materiallar bevosita lingvokriminalistik tadqiq uchun ham obyekt vazifasini bajara oladi. Xususan, konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz, davlat xavfsizligiga daxil qiluvchi turli yozishmalar, SMS-xabarnomalar, ijtimoiy tarmoq matnlari bevosita til bilan aloqador. Nutq aktini leksik-semantik, pragmatik mazmun yo'nalishi asosida tekshirish va tahlil qilish lingvokriminalistik ekspertiza o'tkazishga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda ilm-fan va ijtimoiy-siyosiy aloqalarning rivojlanishi natijasida savdo belgilari, shuningdek, nomlanish bo'yicha turli

yangi belgilar jadallik bilan kirib kela boshladi. Ushbu nomlar va belgilar ayrim xususiyatlari bilan xalqning milliy mentaliteti, xususiyatlariga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Buning natijasi o'laroq, savdo belgilari lingvokriminalistik tadqiqotiga ehtiyoj tug'iladi.

Bu o'rinda nomlash bo'yicha o'tkaziladigan lingvokriminalistik tadqiqot qo'yilgan nom xorijiy mashhur firma nomlarining mualliflik huquqiga daxl qiladi yoki qilmaydi, nom mavjud adabiy til normalariga mos yoki mos emas, ijtimoiy xavfli ishora bor yoki yo'q ekanligini asoslab beradi. Har bir firma nomi nomlanishidan va ro'yxatdan o'tishidan oldin lingvokriminalistik ekspertiza tayinlanishi lozim. Boisi, turli ko'ngilochar va ovqatlanish markazlari, firmalarga nom qo'yishdan oldin lingvokriminalistik eksperitizadan o'tkazish "Davlat tili haqida"gi qonun va adabiy til normalari buzilishining oldini oladi. Umuman olganda, xulosa qilib quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

- Tergov va surishtiruv jarayonida konfliktli matnlarni lingvokriminalistik tadqiq qilishda lingvistik va huquqiy bilimlar birday ahamiyat

kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, tilshunoslikning amaliy funksiyasini yanada takomillashtirish nafaqat yurisprudensiyada, balki fanning boshqa tarmoqlarida ham sezilarli ijobiy natijalarga olib keladi.

- Lingvist-ekspert chuqur lingvistik, psixologik va yuridik bilimlarga ega mutaxassis bo'lishi lozim. Bu o'rinda shuni aytib o'tish joizki, yuqorida ta'kidlab o'tilgan lingvokriminalistik tadqiq turlarini to'liq deb bo'lmaydi. Sababi, yozma va og'zaki ko'rinishdagi matnlar bilan bog'liq turli konfliktli vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin.

- Lingvokriminalistik tadqiq turlari negizida yangi tarmoqlar ham shakllanishi mumkin. Sababi, axborot tashish funksiyasini bajaruvchi har qanday matn, qanday ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, lingvokriminalistik tadqiq o'tkazish uchun asos bo'ladi.

- O'zbekistonda lingvokriminalistika, lingvokriminalistik ekspertiza sohalarini ilmiy, amaliy va ta'lim sohasida rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu esa, davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

## ADABIYOTLAR

1. Ажнюк Л.В. Типологія об'єктів лінгвістичної експертизи і методика їх дослідження. / Леся Викторевна Ажнюк // Мовознавство. – 2016. – № 3.
2. Бринев К.И. Теоретическая лингвистика и судебная лингвистическая экспертиза. Монография. / – Барнаул: изд-во Алт. ун-та, 2009. – С. 252.
3. Грачёв М.А. Лингвокриминалистика: учебник. 1-е изд. – Нижний Новгород: Нижегородский государственный лингвистический университет им. Н.А.Добролюбова, 2009. – С. 280.
4. John Olsson. Forensic linguistics. Continuum International Publishing Group. New York-2008. P 5-10.
5. Musulmonova K.X.O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari. Filol.fan.dok...dis (PhD). - Qo'qon, 2022.
6. Handkie Jurgen. Forensic Linguistics – An Overview. [https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O\\_f5ds.-2014](https://www.youtube.com/watch?v=n4wZ-O_f5ds.-2014)

## ANNOTATSIYA

# IJTIMOIY-SIYOSIY XAVFSIZLIKKA QARSHI MATN TIPLARI, BELGILARI VA XUSUSIYATLARI

*SOLIYEVA*

*Nargisa,*

*Toshkent davlat o'zbek tili adabiyoti  
universiteti tadqiqotchisi*

Lingvistik ekspertizada siyosiy matnlar ekspertizasi asosiy tadqiqot obyektlaridan biri sanaladi. Ijtimoiy tarmoq xabarları, shuningdek, turli mikro-bloklar orqali salbiy axborotning ifodalanishi, xavflilik darajasini baholash muhim o'rinn tutadi. Ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka tahdid soluvchi matnlar turli ko'rinishda ifodalanishi mumkin. Maqolada ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka tahdid soluvchi matn tiplari, ularning xususiyatlari va ifodalanish shakllari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** siyosiy matn, siyosiy nutq, lingvistik ekspertiza, sud-siyosatshunoslik eksper-tizasi, tahdid, da'vat, ekspertiza, ijtimoiy tarmoq xabari, mikroblok.

## АННОТАЦИЯ

В лингвистической экспертизе одним из главных исследовательских действий считается исследование политических текстов. Очень информативной является оценка степени негативных информации, распространенных через разные микро-блоки, сообщений через интернет-сайты, содержащих различные политические тексты. Тексты, угрожающие социально-политической безопасности, могут излагаться в различных видах. В статье широко описываются типы, особенности и формы излагания текстов, угрожающих социально-политической безопасности.

**Ключевые слова:** политический текст, политическая речь, лингвистическая экспертиза, судебно-политологическая экспертиза, угроза, пропаганда, экспертиза, сообщение интернет-сайта, микро-блок.

## ANNOTATION

The examination of political texts is one of the main research objects in linguistic expertise. Social network messages, as well as the expression of negative information through various micro-blocks, assessment of the level of danger is important. Texts threatening social and political security can be expressed in different ways. The article talks about types of texts that threaten social and political security, their characteristics and forms of expression.

**Key words:** political text, political speech, linguistic expertise, forensic political science expertise, threat, invitation, expertise, social network message, micro-block.

Lingvistik ekspertizada konfliktli matn tiplarini ajratishda ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka daxl qiluvchi matnlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-siyosiy aloqalarning kuchayishi, ommaviy axborot vositalarining ochiqligi, va ayniqsa, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari sonining keskin oshganligi axborot xavfsizligini ta'minlash zaruratini paydo qiladi. Oxirgi vaqtarda aynan ijtimoiy tarmoqlar istalgan turdag'i axborotlarni uzatish, yashirin kommunikativ maqsadni ifodalashning eng qulay vositasiga aylandi. Dunyo global siyosiy beqarorlik davriga kirdi. U yer va bu yerda ijtimoiy keskinlik o'choqlari paydo bo'ladi, "rangli inqiloblar" sodir bo'ladi. Hozirgi vaqtda har qachongidan ham dolzarblik kasb etayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni obyektiv jihatdan tushunish va ilmiy jihatdan baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'zaro murakkab bo'lgan obyektiv va subyektiv omillarni o'rganish, tahlil qilish va xulosalash siyosiy matnlar bilan bog'liq lingvistik ekspertizalarni tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Odatda, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik xavfi siyosatshunoslar muayyan vaziyatlar va aniq lingvistik ekspertizalarni amalga oshirishida muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy diskurslarni tilshunoslar asosan siyosiy shaxslarning harakatlarini tahlil qilish asosida o'rganadilar. Biroq siyosatshunoslik tahlili juda subyektivdir, chunki u o'z baholarida juda farq qilishi mumkin bo'lgan aniq ekspertlarning fikrini aks ettiradi. Statistik ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan beqarorlik indekslarini qo'llash siyosiy tahlilning obyektivligini oshiradi, ammo muayyan hududda sodir bo'layotgan beqarorlikning tub ildizi, o'choqlarini aniqlash va bartaraf etish biroz murakkabliklarni yuzaga keltiradi.

Muayyan mamlakatda ijtimoiy-siyosiy beqarorlik xavfini tahlil qilishning murakkabligi shundaki, ko'p jihatdan unda yuzaga keladigan siyosiy vaziyat har doim uzoq tarixga ega bo'lib, uning xususiyatlari keyingi voqealar qaysi yo'nalishda rivojlanishi uchun muhimdir. Shu sababli, mamlakatdagi mavjud vaziyatni aks ettiruvchi beqarorlik indekslari yordamida

nutq tahlili, odatda, ishonchli natija bermaydi. Tahlilning ishonchli va samaradorligini ta'minlashda siyosiy matn tiplarini o'rganish, turli kommunikativ vaziyatlarda voqelanishini tanqidiy baholash, nutqqa ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni o'rganish, shuningdek, siyosiy matnlar tahliliga taalluqli leksik semantik birliklar bazasini shakllantirish kelgusida amalga oshiriladigan ekspertizalarning samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu ilmiy muammoni hal qilish uchun quyida metodik yondashuv taklif etiladi.

Ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka qarshi matnlar turli tiplarga bo'linishi mumkin. Boisi, kommunikativ maqsadni ifodalash yo'llari ham turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan, quyidagi xususiyatga ega matnlarni ijtimoiy-siyosiy xavflilik darajasi mavjud (quyi, o'rta, yuqori) deb baholash mumkin:

- Tahdid ko'rinishidagi matnlar (yakka bir shaxs, yoki jamoaga qo'rquv, tazyiq vositasida tahdid ko'rsatish orqali ta'sir ko'rsatish);
- Da'vat ko'rinishidagi matnlar (biror diniy oqimga qo'shilish, inqiloblarni amalga oshirishga da'vat etish. Missionerlikni targ'ib qilish. Insonlarning diniy e'tiqodlariga salbiy ta'sir ko'rsatish);
- Tashviqot ko'rinishidagi matnlar (salbiy mazmunga ega bo'lgan targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish, matnli audio, vizual vositalar orqali muayyan ishni qilish/ qilmaslikka undash. Inson erkini bevosita bo'ysundirish).

Tahdid – do'q qilish, qo'rqtish. 1. *Qo'rqtuv, do'q-po'pisa. Gulnorning zaharlanganini Mirza karimboy va o'g'illari qat'iyan rad qilib, ma'suma qurbonning ota-onalarining tillarini do'q, tahdid bilan muhrlashga tirishdilar. Oybek.*

Tahdid qilmoq. Tahdidli xatti-harakat qilmoq, do'q-po'pisa qilmoq. *U Hamidani chaqirib olib, Haydarga tayoq bilan tahdid qilib qo'ydi.*

Tahdidning semalari orasida aynan ushbu ko'rsatilgan biofrinch'i semasi lingvistik ekspertizada ijtimoiy-siyosiy xavfsizlikka daxl qiluvchi matnlar tahlilida ishtirot etadi. Bugungi kunda tahdid bilan bog'liq murojaatlarning soni ham kundan kunga oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, tahdid bilan bog'liq murojaatlarni oxirgi o'nyillikda keskin oshgan. Bunday murojaatlarning asosiy salmog'ini shaxsni obro'sizlantirish, qadrini tushirish, omma oldida sharmanda qilish, ijtimoiy tarmoqlar orqali

ovoza qilish, shaxsiy ma'lumotlarini tarqatish, yaqinlarining hayotiy daxlsizligiga rahna solish, ishiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq holatlarga aloqador.

Muloqot va yozma matnda tahdidning semantikasini olib berish Rossiya qonunchiligidagi nazarda tutilgan jinoyatlarning bir qator elementlari bo'yicha ekspert tadqiqotlarini o'tkazishda zarurdir. Xususan, bularga gijgijlash, tovlamachilik, odam o'ldirish bilan tahdid qilish, har xil turdag'i majburlash bilan bog'liq jinoyatlar, shuningdek, ekstremistik faoliyat, poraxo'rlik, bosqinchilik va shu kabi jinoyat turlari: tahdidlar – jazo va ogohlantirish tahdidlari kiradi.

Xususan, shaxsiy yozishmalardan olingan quyidagi misollarga diqqat qaratamiz:

- A) *O'zidan ketma. Sekunta ishini hal qilaman. Luboy tochkangni topaman. Qigan chpelarini hammasini zapis ovat qivoganman. Hozilc. Ga junataman. K.t...ni q...b yur. Qo'limda yana nimalar borligini bilmaysan. Urug'aymog'in bn enagnikiga t...b kelishga quadratim yetadi.*

B) *Qo'lizdan keganini qilin. Qurqadigan joyim yu.*

A) *Kop chiranimagin. Sharmandeyni chiqaraman\**:

- *Hurmatali xodimlar, ertadan hamma yuz foiz ishga chiqishi shart. Otpuska tugagan qachon edi, kecha birorta xodim o'z o'rnidamas. Yangi o'quv yiliga ko'p qolmadi, qattiq tayyorlanish kerak. Hujjatlarining taxlang. Toifaga topshiradiganlar birorta hujjat topshirmadingiz, aylib qo'yay, muktab sizga ball bermaydi. Bir hafta qattiq kuni bilan ishliymiz. Kimdakim vaqtida kelmasa va bo'yin tovlasa avansga yozilmaydi;*

- *Premyadan umidlaringni uzaveriylar. 15 soatdan ortiq dars ham berilmaydi. Oylik, ish kerak bulsa vaqtida kelib ishlaringni bitiringlar. Kechgi beshda yana bir yo'qlama qilinib uyga jo'natilasiz. Xabarni olganlar izoh qoldiring.*

Har ikki matnda tahdid elementlari ko'zga tashlanadi. Lingvistik ekspertizada tahdid sifatida baholanuvchi matnlarning semantik darajasiga ham diqqat qilish lozim. Ya'ni, tahdidning quyi/yuqori/o'rta darajasi, shuningdek, insonning hayoti, shaxsiy daxlsizligiga ta'sir etish darajasiga ko'ra. Yuqoridagi matnlarda tahdidning semantik tabiatini quyidagicha belgilash mumkin:

**1-matnda.** A shaxs B shaxsga nisbatan ustunlikka ega. B shaxs A shaxsning tazyiqi ostida. A shaxs tomonidan tahdidning ikki ko'rinishi amalga oshirilgan: a) hayotiga tahdid; b) sha'ni, or-nomusiga tahdid.

**2-matnda.** X shaxs tomonidan birdan ortiq shaxslarga jazo qo'llash bilan tahdid qilingan. Matnga muvofiq shaxslarning kasbi, mavqeyi, moddiy tushumiga nisbatan tahdid, ogohlantirish mazmuni ifodalangan.

Tahdid-jazoni semantik izohlashda asosiy semantik urg'u adresatni qo'rqtishdir. Sharhdan ko'rini turibdiki, istalmagan A harakatini takrorlash orqali shaxsiy hayotiga daxl qilishga intiladi. Shuningdek, tahdid tarbiyaviy funksiyaga ega bo'lishi ham mumkin. Ikkinci misolda undash, loqaydlikning oldini olish maqsadida tahdid usulidan foydalangan.

Odatda kontekstual vaziyatga muvofiq tahdid tarbiyaviy funksiyani bajarishi mumkin. Bunda asosiy e'tibor, axloqiy tuzatish, aybini to'g'rilashga qaratiladi. B ni X uchun yomon ish qilmaslikka undashi mumkin. Biroq bu rag'batlantirish juda zaif. Shunday qilib, dialog yoki yozma matnda tahdid-jazoni aniqlash, masalan, tovlamachilik holatini ko'rsatmaydi.

Haqiqatan ham, yomon narsa allaqachon qilingan. Biroq ekstremistik nutq uchun tahdid-jazo tabiiydir.

Ba'zi hollarda, tovlamachilikni amalga oshirish paytida tahdid buyurtmalari ham amalga oshiriladi. Bunday holda, X shaxs uchun qanchalik yomon, bu deklarativ, o'zini o'zi, mulk huquqini va hokazoni olish va boshqa bosim omili sifatida ishlatiladi. Bunday holda semantik tovlamachilikning tuzilishi murakkablashadi.

Tahdidlar – dastlabki retseptlar bo'lgan yana bir vaziyat. Ma'ruzachi qabul qiluvchi unga (yoki tegishli shaxslar) istalgan narsani qila oladigan va bunga yo'l qo'ymaslikka harakat qiladigan holatlarda ogohlantirish tahiddilari qo'llaniladi. CF. Quyidagi turdag'i misollar: X jabrlanuvchining ko'rsatmasi:

- *Avval yaxshi gapirdi. Keyin siz haqingizda so'radi. Qayerda ishlashingizni so'radi. Bilmayman dedim, ishonmadi. Keyin qanaqadir ko'k fleshka, disklar op keldimi deb so'rab qoldi. Ko'rmadim dedim. Xiringlab kuldiyu birdan avzoyi o'zgarib bo'g'zimdan oldi.*

*Agar aytmasam shu joyni o'zida sharmandamni chiqarishini, keyin itday o'ldirib ketishini aytdi. Noiloj hammasini aytdim.*

Tahdid haqida ogohlantirish uchun quyidagi semantik tushuntirish taklif qilinishi mumkin:

X shaxs y shaxsga tahdid qilmoqda. Agarda Y shaxs X shaxsnинг talabini bajarmasa, X shaxs uni ikki xil usulda jazolash bilan qo'rqiadi. Shuning uchun Y shaxs X shaxsdan qo'rqiadi va natijada beixtiyor uning talabini bajardi.

Tahdid-majburlash – so'zlovchi qabul qiluvchidan harakatsizlikni (harakat qilishdan bosh tortishni) emas, balki harakatni xohlaydigan vaziyatda amalga oshiriladigan tahdid-ogohlantirishning bir variantidir: bu polkovnikka nima javob berganimni umuman eslay olmayman. ...faqt vaqt vaqt bilan takrorladim: "Men imzo chekmayman!". Keyin u tahdid qildi, keyin ko'ndirdi, eri bilan, bolalari bilan uchrashishni va'da qildi. [E. Ginzburg. Tikmarshrut]. Majburlash tahdidi, umuman olganda, tahdid-ogohlantirishning yuqoridagi talqini bilan tavsiflanadi, farqi majburlash tahdidi ko'pincha qabul qiluvchining manfaatlarini ko'zlaydi

(albatta, so'zlovchining tushunishida). Agar uy vazifasini bajarmasangiz, sayrga chiqmaysiz! Biroq, bu ma'ruzachiga adresatning harakatsizligini so'zlovchining o'zi uchun nomaqbul hodisa deb hisoblashiga to'sqinlik qilmaydi.

Ijtimoiy-siyosiy xavfsizlik mazmuniga ega matnlar da'vat yoki tahdid ko'rinishida faol uchraydi. Da'vat ko'rinishidagi matnlarning ijtimoiy-siyosiy xavfsizlik darajasini baholash, da'vatning semantik yo'naliшини aniqlash ekspert zimmasidagi vazifa sirasiga kiradi. Tahdid mazmunli matnlar insonning shaxsiy daxlsizligi, yurt tinchligi, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga salbiy mazmundagi tahdidni ifoda etadi. Aksariyat hollarda bunday tipdag'i matnlarning semantik mundarijasida bir ishni bajarishga qat'iy taqiq qo'yish, qo'rqiish, tazyiq o'tkazish singari kommunikativ maqsad yashiringan bo'ladi. Tahdid mazmunli matnlarda tahdidning semantik darajasini baholash, uning ijtimoiy xavfli yoki xavfsizlik darajasini baholash, har bir qo'llangan leksik birlikni obyektiv baholashda lingvistik ekspertizaga zarurat paydo bo'ladi.

## ADABIYOTLAR

1. Коротаев А.В., Медведев И.А., Шульгин С.Г., Слинько Е.В., Билюга С.Э., Малков С.Ю., Халтурина Д.А., Дерболова Е.В., Зинькина Ю.В., Романов Д.М. Системы глобального мониторинга рисков социально-политической дестабилизации: опыт систематического обзора. Гринин Л.Е., Коротаев А.В., Мещерина К.В. (отв. ред.). Системный мониторинг глобальных и региональных рисков: ежегодник. Т. 9. Социально-политическая и экономическая дестабилизация: анализ страновых и региональных ситуаций в мир-системном аспекте. – Волгоград: "Учитель", 2018. – С. 5–64.
2. Гловинская М.Я. Словарная статья "Угрожать, пригрозить, грозить, грозиться". - Новый объяснительный словарь синонимов русского языка. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 1190–1194.
3. Апресян В.Ю., Апресян Ю.Д., Бабаева Е.Э., Богуславская О.Ю. и др. Новый объяснительный словарь синонимов русского языка. – М; Вена: Языки славянской культуры, 2004.

## ANNOTATSIYA

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYAVIY TUZUMIGA TAJOVUZ QILISH UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

**IBROHIMOV**

*Jamshid Abdug'ofur o'g'li,  
yuridik fanlar bo'yicha (PhD)  
falsafa doktori,*

*Toshkent davlat yuridik universiteti  
mustaqil izlanuvchisi (DSc)*

Maqolada O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilganlik uchun jinoiy javobgarlik hamda uni takomillashtirish masalalari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyati terrorchilik xususiyatiga ega jinoyatlar sifatida amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Xorijiy va milliy olimlarning fikrlari keltirilib, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyatining yuridik tahliliga to'xtalingan. Shuningdek, mazkur jinoyatda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi normaning yangi tahriri ishlab chiqilgan. Yakdil, milliy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** konstitutsiyaviy tuzum, terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat, hokimiyat, fitna, siyosiy zo'ravonlik, tajovuz, isyon, jinoyatning obyekti, predmeti, obyektiv tomoni, subyekti va subyektiv tomoni.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы уголовной ответственности за посягательство на конституционный строй Республики Узбекистан и ее совершенствование. Констатируется, что посягательство на конституционный строй Республики Узбекистан совершается как преступление террористического характера. Представлены мнения зарубежных и отечественных ученых, а также дан правовой анализ такого посягательства как преступления против конституционного строя Республики Узбекистан. Сделаны выводы по совершенствованию национального законодательства.

**Ключевые слова:** конституционный строй, преступление террористического характера, власть, сговор, политическое насилие, посягательство, мятеж, объект, субъект, объективная сторона, субъект и субъективная сторона преступления.

## ANNOTATION

The article deals with the issues of criminal liability for encroachment on the constitutional order of the Republic of Uzbekistan and its improvement. It is stated that the crime of encroaching on the constitutional order of the Republic of Uzbekistan is committed as a crime of a terrorist nature. The opinions of foreign and domestic scientists are presented, as well as a legal analysis of the crime for infringement against the constitutional order of the Republic of Uzbekistan. A new edition of the incentive norm provided for this crime has also been developed. Conclusions are drawn on the improvement of national legislation.

**Key words:** constitutional system, crime of a terrorist nature, power, conspiracy, political violence, encroachment, rebellion, object, subject, objective side, subject and subjective side of the crime.

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish O'zbekiston Respublikasiga qarshi terrorchilik xususiyatiga ega jinoyat hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida taqiqlangan harakatlarni nazarda tutadi. Xususan, Asosiy Qomusimizda unda nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyyati vakolatlarini o'zlashtirish, hokimiyyat idoralari faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitusiyaga xilof hisoblanishi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo'lishi (7-modda), shuningdek, O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmas (3-modda) ekanligi belgilangan. Ta'kidlash lozimki, konstitutsiyaviy tuzumni Konstitusiya orqali muhofaza qilish amaliyoti Germaniya (20-modda), Slovakiya (20-modda), Rossiya va boshqa davlatlar konstitutsiyalarida ham uchraydi.

Yuridik adabiyotlarda konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish jinoyati davlat hokimiyyati organlari tomonidan hokimiyyatlar taqsimlanishi prinsipiiga muvofiq davlat hokimiyyatini mustaqil amalga oshirishiga qarshi qaratilgan, Jinoyat qonunida jazo qo'llash tahdidi bilan taqiqlangan ijtimoiy xavfli qilmish tushunilishi ko'rsatiladi[1]. Biroq, muallifning yondashuvi juda tor bo'lib, konstitutsiyaviy tuzumga tajovuzni to'la-to'kis qamrab olmagan.

Konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilishning ijtimoiy xavfliligi shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga jiddiy xavf solishi bilan belgilanadi. Konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish natijasida hamisha Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarga vayronkor ta'sir ko'rsatiladi, inson hayoti va sog'lig'iga turli darajada zarar yetkaziladi, molumkun nobud bo'ladi, jiddiy moddiy va ma'naviy zarar yetkaziladi hamda boshqacha og'ir oqibatlar keltirib chiqaradi.

Konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilish jinoyatiga tatbiqan zo'ravonlik harakatlarini davlatga nisbatan zo'rlik sifatida baholash mumkin. Ta'kidlash lozimki, davlatga nisbatan zo'rlik uning mavjud bo'lishi, faoliyat ko'rsatishi,

xavfsizligi va mustaqilligini ta'minlash bilan shug'ullanadigan asosiy elementi – davlat apparatiga ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadi. Ushbu holatda zo'rlik tahdidi ostida bo'lган obyektning ko'lami juda keng bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, bunday katta hajmdagi zo'ravonlik ta'siri faqatgina bir guruh shaxslar tomonidan jamoaviy harakatlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni, davlatda amal qilib turgan siyosiy institutlarni o'zining irodasiga bo'ysundirishga majburlash faqatgina katta miqdordagi odamlarning birgalikdagi jamoaviy ta'sir kuchi bilan erishish mumkin bo'lган mushkul ish hisoblanadi.

Konstitusiyaviy tuzumga tajovuz qilish jinoyatining **obyekti** masalasiga to'xtalar ekan, professor M.X.Rustamboyevning ta'kidlashicha, "jinoyatning bevosita obyekti sifatida Konstitusiya tomonidan o'rnatilgan O'zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlari – respublikaning konstitusiyaviy tuzumi asoslari, davlat hokimiyati tuzilishi va faoliyatining tartibi hisoblanadi. Asosiy bevosita zarar, bu yerda xalq manfaatlariiga hamda davlatda hokimiyatni ifodalovchi jismoniy va yuridik shaxslarning konstitusiyaviy manfaatlariiga yetkaziladi. Qo'shimcha bevosita obyekt bo'lib, jabrlanuvchining sog'lig'i, jismoniy daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi" [2].

A.P.Kuznetsov ushbu jinoyatning maxsus obyekti sifatida davlat hokimiyatining qonunchilikda belgilangan normal faoliyat ko'rsatishi, barqarorligi manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarni ko'rsatadi. Davlatning konstitusiyaviy tuzumi va xafsizligi asoslarining muhofaza qilinganlik holatini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar uning turdosh obyekti bo'lib hisoblanadi[3].

V.A.Bikmashev esa, mazkur jinoyatning maxsus obyekti sifatida barqarorlik, barcha hokimiyat tarmoqlarida davlat hokimiyati institutlarining normal mavjud bo'lishi va faoliyat ko'rsatishi, suverenitet, ichki va tashqi xavfsizlikni ta'minlash, turdosh obyekt sifatida davlatning konstitusiyaviy tuzumi asoslari va xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni ko'rsatadi[4].

Y.P.Sergun esa, ushbu jinoyatning turdosh obyekti sifatida konstitusiyaviy tuzumni

ko'rsatadi[5]. V.N.Voronin ushbu jinoyatning asosiy bevosita obyekti sifatida davlatning legitimligi va konstitutsiyaviy tuzum asoslari hamda asosiy qo'shimcha obyekti sifatida inson hayoti va sog'lig'ini ko'rsatadi[6].

A.A.Kuznetsov esa, ushbu jinoyatning asosiy bevosita obyekti sifatida davlat siyosiy tizimining asoslarini, davlat hokimiyatining legitimligini, davlat hokimiyati va uning organlari faoliyatini belgilash va amalga oshirishning konstitutsiyaviy tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi, deb yozadi. Uning fikricha, ushbu jinoyatning qo'shimcha bevosita obyekti sifatida zo'ravonlik qo'llanilgan shaxsning sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmati hisoblanadi. Shu bilan birga konstitusiyaviy tuzumni qurol ishlatgan holda zo'ravonlik bilan o'zgartirishda davlat siyosiy tizimining amalga oshirilishi va faoliyat ko'rsatishi ham asosiy bevosita obyekta aylanadi[7].

Yuqoridaqilar asosida ushbu jinoyatning **maxsus obyekti** sifatida tinchlik va xavfsizlikni ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar, **turdosh obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasining hayotiy muhim manfaatlarini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hamda **asosiy bevosita obyekti** sifatida konstitusiyaviy tuzumni ko'rsatish mumkin.

"Tuzum" so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida "jamiyat va davlat tuzilishi (qurilishi) tizimi" sifatida ta'riflanadi[8]. Yuridik adabiyotlarda konstitusiyaviy tuzumga turlicha ta'rif beriladi. Xusan,I.A.Durnova tomonidan konstitusiyaviy tuzumga Konstitusiyada mustahkamlangan, eng yuqori oliv yuridik kuchga ega bo'lган hamda davlat butun huquqiy tizimining mazmunini belgilab beruvchi davlat va jamiyatni tashkil etishning o'zak asoslari sifatida ta'rif beriladi[9].

"Konstitusiyaviy tuzum" – keng ma'noli tushuncha bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va boshqa ma'nolarda qo'llaniladi hamda maqsad, vosita, jarayon va natija sifatida namoyon bo'ladi[10].

Aksiologik yondashuvda konstitusiyaviy tuzum faqat konstitutsiya va unda mustahkamlangan asoslarning mavjudligi bilan bog'lanmaydi, zero konstitusiyaviy tuzumning asosiy belgisi sifatida konstitutsiya va uning demokratik xususiyatiga roya etish tanolinadi[11]. Konstitusiyaviy tuzumni bu tarzda tushunish konstitusiyaviy tuzumni jinoyat-huquqiy

muhofaza qilish masalalariga bag‘ishlangan ishlarda ham uchraydi[12]. Fikrimizcha, jinoyat huquqida aksilogik yondashuvning qo‘llanilishi to‘g‘ri emas. Jinoyat qonuni to‘g‘ri qo‘llanilishi uchun konstitutsiyaviy tuzumga nisbatan yuridik yondashuv qo‘llanilishi hamda Konstitutsiyada belgilangan normalar asos sifatida qabul qilinishi kerak.

Ya’ni, konstitutsiyaviy tuzum konstitutsiyaga ega bo‘lgan har qanday davlatga nisbatan qo‘llanilishi mumkin[13]. Shunga ko‘ra o‘z konstitutsiyasiga ega bo‘lgan har qanday davlat, konstitutsiyaning mafkuraviy yo‘nalishi va demokratik mazmunidan qat‘i nazar, uni himoya qilish uchun jinoyat-huquqiy muhofaza choralarini qo‘llashi mumkin.

A.G.Xlebushkin konstitutsiyaviy tuzumning quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi: 1) “konstitutsiyaviy” elementi “tuzum”ning huquqiy shakli hisoblanadi. Bunda aniq jinoyatning obyekti sifatida konstitutsiyaviy tuzum mazmuni tegishli sohalar, huquqiy munosabatlar, zarar yetkazish mexanizmi va b.larni qamrab oladi; 2) yuridik jihatdan konstitutsiyaviy huquq mahsuli sifatida u jinoyat-huquqiy muhofaza obyektlari doirasiga, ya’ni jinoyat huquqining amal qilish sohasiga kiritilgan; 3) jinoyat-huquqiy siyosat muhofaza qiluvchi ta’sir obyekti sifatida konstitutsiyaviy tuzum butun davlat tizimining poydevori bo‘lib hisoblanadi hamda o‘zi ham jinoyat-huquqiy ta’sir doirasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Konstitutsiyaviy tuzum asoslari yuridik funksiyaga ega bo‘lgan konstitutsiyada mustahkamlangan[14].

Yuqoridagilar asosida **konstitutsiyaviy tuzum** deganda, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan shaxs, jamiyat va davlat faoliyatining siyosiy-huquqiy, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy, axloqiy-ma’naviy asoslарini nazarda tutuvchi ijtimoiy munosabatlar majmuyini tushunish maqsadga muvofiq. Konstitutsiyaviy tuzumning tarkibiy elementlari sifatida davlat suvereniteti, davlat tuzumi, davlat hokimiyyati, demokratik respublika, dunyoviy davlat, hududiy yaxlitlik, davlat chegarasi daxlsizligi, konstitutsiyaviy organlarning qonuniy faoliyati, O‘zbekiston Respublikasining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishi, davlat iqtisodiy tizimi asoslari, ko‘ppartiyaviylik,

siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi kabilarni ko‘rsatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish (JK 159-moddasi) jinoyatining **predmeti** O‘zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o‘zgartirishga, hokimiyyatni bosib olishga yoxud qonuniy ravishda saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan hokimiyyat vakillarini hokimiyyatdan chetlatishga yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzish mazmunidagi materiallar hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyati **obyektiv tomonidan** bir qator harakatlar bilan sodir etiladi.

Xususan, O‘zR JK 159-moddasi **birinchi qismi** O‘zbekiston Respublikasining amaldagi davlat tuzumini Konstitutsiyaga xilof tarzda o‘zgartirishga, hokimiyyatni bosib olishga yoxud qonuniy ravishda saylab qo‘yilgan yoki tayinlangan hokimiyyat vakillarini hokimiyyatdan chetlatishga yoxud O‘zbekiston Respublikasi hududiy yaxlitligini Konstitutsiyaga xilof tarzda buzishga ochiqdan-ochiq da’vat qilish, shuningdek, bunday mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida tayyorlash, saqlash yoki tarqatish orqali sodir etiladi.

Guvohi bo‘lganimizdek, O‘zR JK 159-moddasi birinchi qismi “ochiqdan-ochiq da’vat qilish” hamda tegishli (taqilangan) mazmundagi “materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish” orqali sodir etiladi.

“Chaqiriqlar – aybdorning odamlarning ongiga, irodasiga va harakatlariga o‘zi istagan ma’lum harakatlarni sodir etish istagini shakllantirish maqsadida yo‘naltirilgan harakatlarining tashqi ifodasidir. Shu bilan birga chaqiriqlar umumiyl tavsifga ega bo‘lib, alohida shaxslarga aniq yo‘naltirilmasligi, aniq joy, vaqt yoki jinoyatni sodir etish usulini tashkil etmasligi kerak” [15].

O‘zR JK 159-moddasi **ikkinci qismi** obyektiv tomonidan hokimiyyat konstitutsiyaviy organlarning qonuniy faoliyatiga to‘sinqlik qilish yoki ularni Konstitutsiyada nazarda tutilmagan parallel hokimiyyat tuzilmalari bilan almashtirishga qaratilgan zo‘ravonlik harakatlari, shuningdek, davlat hokimiyyati vakolatli organlarning Konstitutsiyada nazarda tutilmagan

tartibda tuzilgan hokimiyat tuzilmalarini tarqatib yuborish to‘g‘risidagi qarorlarini belgilangan muddatda bajarmaslik orqali sodir etiladi.

Guvohi bo‘lganimizdek, O‘zR JK 159-moddasi ikkinchi qismi “zo‘ravonlik harakatlari” va “davlat hokimiysi vakolatlari organlarining tegishli qarorlarini belgilangan muddatda bajarmaslik” orqali sodir etiladi.

A.G.Xlebushkin ushbu jinoyatni zo‘ravonlik usuli belgisi bo‘yicha ko‘rib chiqar ekan, zo‘ravonlik ishlashish tahlidi uchun javobgarlikni alohida belgilash zarurligini ta‘kidlaydi hamda “zo‘ravonlik” tushunchasi ostida faqatgina jismoniy zo‘rlikni tushunish zarur deb hisoblaydi[16].

O‘zR JK **159-moddasi to‘rtinchchi qismi** hokimiyatni bosib olish yoki O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini ag‘darib tashlash maqsadida fitna uyuştirish orqali sodir etiladi.

Hokimiyatni bosib olish deganda, A.A.Kuznetsov mamlakat yoki uning alohida olingen mintaqasida(ma’muriy-hududiyligida) davlat hokimiyatini amalga oshiruvchi davlatning oliv organlari ustidan nazorat o‘rnatishni yoxud muayyan hududda, uning doirasida istiqomat qiladigan aholi va resurslar ustidan mavjud davlat organlariga muqobil bo‘lgan, o‘zining boshqaruv va majburlov apparatiga ega siyosiy institutlarni tashkil etish orqali nazorat o‘rnatishni tushunadi[17].

Hokimiyatni bosib olish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin: zo‘rlik ishlatisib, qurol yoki portlovchi moddalardan foydalaniib yoxud fitna uyuştirish shular jumlasidandir.

Ta‘kidlash lozimki, dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hokimiyatni bosib olish ko‘pincha oldindan puxta rejalashtiriladi, qoida tariqasida, noqonuniy harakatlarni amalga oshirish vaqt va ketma-ketligi oldindan aniq reja asosida kelishilgan bo‘ladi. Shuningdek, ko‘pincha hokimiyatni bosib olish harakatlari u yoki bu siyosiy hodisa bilan bog‘lanadi, masalan, davlat boshlig‘i hayotiga suiqasd qilish orqali kuchishlalar tizimni falaj qilish orqali boshlanadi. Bunga misol sifatida 2016-yil iyulda Turkiyada bo‘lib o‘tgan davlat to‘ntarishiga urinishni ko‘rsatish mumkin. Yoki bo‘lmasa, Ukrainada 2014-yil fevralda, Qozog‘istonda 2022-yil yanvar oyida bo‘lib o‘tgan davlat hokimiyatini egallab

olishga urinish kabi voqealar dastlab miting va namoyishlar bilan boshlanib, keyin hokimiyatni egallab olishga aylanib ketishi yaqqol misol bo‘la oladi.

Shu bois ham qonunchilikda davlat hokimiyatini egallab olishga tayyorgarlik ko‘rish va bu boradagi reja tafsilotlari bo‘yicha oldindan xabar berish ham jinoyatning oldini olishda muhim va samarali chora hisoblanadi. Shu bilan birga JK 159-moddasida javobgarlikdan ozod etish bo‘yicha rag‘batlantiruvchi norma faqatgina “fitna” to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar bergan shaxslarga nisbatan qo‘llanilgan. Fikrimizcha, JK 159-moddasi to‘rtinchchi qismi dispozitsiyasidan kelib chiqib, ushbu normani **“hokimiyatni bosib olish yoki fitna to‘g‘risida”** degan tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq. Bu bilan hokimiyatni bosib olish to‘g‘risida ixtiyoriy ravishda xabar bergan shaxs, basharti, ko‘rilgan choralar natijasida hokimiyatni bosib olishning oldi olingen bo‘lsa, jazodan ozod qilinadi. Bu ham ushbu jinoyatga qarshi kurashish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga JK 159-moddasi to‘rtinchchi qismida rag‘batlantiruvchi normani qo‘llash uchun asos sifatida faqatgina “fitna to‘g‘risida hokimiyat organlariga ixtiyoriy ravishda xabar berish” nazarda tutilgan. Vaholanki, hokimiyatni bosib olish yoki fitnani tayyorlashda ishtirot etgan shaxs, hokimiyat organlariga o‘z vaqtida xabar berishdan boshqa usul bilan og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining hamda jinoiy maqsad amalga oshirilishining oldini olishga faol ko‘maklashgan bo‘lsa, basharti bu shaxsning harakatlari jinoyatning boshqa tarkibi bo‘lmasa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi maqsadga muvofiq.

Shu munosabat bilan JK 159-moddasi beshinchchi qismi dispozitsiyasini quyidagi tahrirda bayon etish maqsadga muvofiq: **“Hokimiyatni bosib olish yoki fitnani tayyorlashda ishtirot etgan shaxs, agar u hokimiyat organlariga o‘z vaqtida xabar berish yoki boshqa usul bilan og‘ir oqibatlar yuzaga kelishining oldini olishga faol ko‘maklashgan va natijada hokimiyatni bosib olish yoki fitnaning oldi olingen bo‘lsa, basharti bu shaxsning harakatlari jinoyatning boshqa tarkibi bo‘lmasa, jazodan ozod etiladi”.**



Hokimiyatni bosib olish yoki fitna ishtirokchilarining harakatlariga baho berishda ularning ikki xil shaklda – faol va passiv ishtirokini farqlash mumkin. Bunda faol ishtirok deganda hokimiyatni bosib olish yoki fitna ishtirokchilarining bevosita jinoyat oqibatiga erishishga qaratilgan faol xatti-harakatlarini (hokimiyat vakiliga hujum qilish, binoga o't qo'yish, bostirib kirish va b.) sodir etishini va shu orqali jinoiy oqibat kelib chiqishi – konstitutsiyaviy tuzumni o'zgartirish yoki hududiy yaxlitlikni buzish uchun sezilarli ta'sir ko'rsatishini tushunish mumkin.

Hokimiyatni bosib olish yoki fitnadagi passiv ishtirok ishtirokchilarning tashabbuskorlik darajasi, shuningdek, jinoyatni sodir etishdagi ishtiroki va jinoiy natijaga erishishga qo'shgan hissasining miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan baholanishi lozim. Passiv ishtirok sifatida hokimiyatni bosib olish yoki fitna ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlagan (oziq-ovqat, kiyik-kechak taqdim etgan va b.) hamda bevosita noqonuniy harakatlarni sodir etishda ishtirok etmagan shaxslarni ko'rsatish mumkin, ularning harakatida jinoyatda yordamchi sifatida ishtirok etish belgilari bo'lgan hollar bundan mustasno.

Hokimiyatni bosib olish va fitna ruhiy, jismoniy yoki boshqacha zo'rlik ishlatgan holda sodir etiladi. Bunday zo'rlik hamisha huquqqa xilof, noqonuniy, taqiqlangan yoki qonunda nazarda tutilmagan harakatlar bilan sodir etiladi. Bunda noqonuniy harakatlar obyekti sifatida shaxs, jamiyat yoki davlat namoyon bo'ladi.

Ko'pincha noqonuniy harakatlar shaxsning irodasini o'ziga majburan bo'ysundirishga va o'zi xohlagan harakatlarni sodir etishga yoki ularni bajarishdan tiyilishga qaratilgan bo'ladi.

Hokimiyatni bosib olish va fitna qonun bilan belgilangan tartibda, shu jumladan, saylov orqali shakllantirilgan hamda mamlakat suvereniteti, hududiy yaxlitligi, ichki va tashqi xavfsizligini ta'minlovchi davlat hokimiyatining olyi organlariga qarshi qaratilgan.

Ta'kidlash lozimki, davlatchilik tarixi hokimiyatni bosib olish va fitna turli xil usullarda sodir etilishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Xususan, XXI asrda "siyosiy zo'ravonlik" usuli – yarim qonuniy maxsus siyosiy texnologiyalardan keng foydalangan holda hokimiyat tepasiga mustaqil siyosiy kuch bo'lgan bir guruh shaxslarning kelishi holatlari keng yoyilganligini ta'kidlash lozim. Hokimiyatni bosib olishning bunday shakliga so'nggi bir necha o'nyillikda keng qo'llanilgan "rangli" inqiloblar, ya'ni mamlakatdagi hokimiyatni keng ko'lamli harbiy harakatlarni amalga oshirmagan holda almashtirishni misol sifatida keltirish mumkin[18].

"Rangli" inqiloblar bilan bog'liq texnologiyalarni qo'llash ijtimoiy munosabatlarni maqsadli beqarorlashtirish maqsadida jiddiy moliyaviy va boshqa resurslarni (aksariyat hollarda tashqaridan) jalb etishni taqozo etadi.

Tashqaridan kuchli moliyaviy va boshqacha yordamga asoslangan holda bunday "muxolifat" muayyan vaqtda kuchli axborot qo'llab-quvvatlovi

bilan fuqarolarning ommaviy chiqishlarini tashkil etadi hamda ulardan foydalangan holda eng muhim siyosiy lavozimlarni egallaydi va keyinchalik oliv qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatini bo‘ysundiradi hamda pirovardida amalga oshirilgan o‘zgarishlarning qonuniyligini e’lon qiladi. Davlat hokimiyatini amalda egallab olganidan so‘ng yangi siyosiy kuch o‘z maqomini qonun yo‘li bilan mustahkamlashga harakat qiladi[19].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “fitna” (arabcha maftun etish; yo‘ldan ozdirish; isyon, g‘alayon) – g‘arazli maqsadga erishish yo‘lida birovni qoralash uchun qilinadigan yashirin xatti-harakat, buzg‘unchilik; ma’lum siyosiy maqsadga erishish niyatida yashirin til biriktirish yo‘li bilan davlatga, siyosiy rahbarga, tashkilotga yoki shaxsga qarshi qilingan harakat” sifatida ta’riflanadi[20].

Shu bilan birga hokimiyatni egallah shakllaridan yana biri qurolli bosqin hisoblanadi. Qurolli bosqin hokimiyatni egallahning eng qadimi va an‘anaviy usullaridan biri hisoblanadi. Hokimiyatni qurolli bosqin yordamida egallah ichki yoki tashqi qurolli to‘qnashuvlar, urush, tashqi agressiya orqali amalga oshiriladi[21].

Qurolli bosqin bilan hokimiyatni egallahning o‘ziga xosligi shundaki, mazkur usulda mamlakat, uning ma’muriy-hududiy birligi va uning aholisining irodasini sindirish maqsadida jismoniy kuch – armiya yoki boshqa harbiylashtirilgan bo‘linmalardan foydalaniladi[22]. Hokimiyatni egallahning ushbu usuli qoida tariqasida ommaviy qon to‘kishlar, qurbanlar bo‘lishi bilan hamohang bo‘ladi hamda aksariyat huquqshunoslar ta’kidlaganidek, qonuniy

(legitim) hokimiyat sifatida tan olinmaydi[23]. Mamlakat ichida qurolli isyon, g‘alayon, inqilob yoki fuqarolik urushi bo‘lishi mumkin. Boshqa davlatlar tomonidan tajovuz esa harbiy aralashuv, anneksiya va b. ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, muayyan hududga kelib, unda yangi hokimiyatni o‘rnatish hamisha eski hokimiyatni ag‘darish, mavjud siyosiy instittlarni yo‘q qilish bilan hamohang kechadi[24].

Yuqoridagilar asosida hokimiyatni egallah deganda, davlat yoki uning ma’muriy-hududiy birligidagi hokimiyat organlarini Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan davlat hokimiyatini o‘zgartirishning qonuniy tartibiga zid bo‘lgan har qanday usulda egallab olish hamda eng asosiy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini yangi shaxs yoki shaxslar guruhiga bo‘ysundirish, shu jumladan, davlat hokimiyati lavozimlarini qonunga zid ravishda egallah, davlat hokimiyati vakolatlaridan foydalanish tushuniladi.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyati **subyektiv tomonidan** to‘g‘ri qasd bilan sodir etiladi.

JK 159-moddasida jinoyat maqsadi qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, JK 159-moddasi birinchi qismidagi harakatlar tegishli mazmundagi materiallarni tarqatish maqsadida sodir etilishi lozim. Ushbu maqsad nazarda tutilmagan hollarda jinoyat subyektining harakatlari JK 159-moddasi birinchi qismi bilan malakalanishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumiga tajovuz qilish jinoyati **subyekti** jinoyat sodir etgunga qadar o‘n olti yoshga to‘lgan, aqli raso jismoniy shaxslar hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR

- Султаналиев М.Б. Понятие, объект и классификация преступлений против основ государственной власти в законодательстве России и Кыргызстана // Социально-политические науки. – 2016. – № 3. – С. 116.
- Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. III tom. Maxsus qism. Darslik. – Toshkent: HTI, 2018. – В. 427.
- Кузнецов А.П. Понятие, общая характеристика преступлений против основ конституционного строя и безопасности государства // Социально-политические науки. – 2017. – № 4. – С. 87.
- Бикмашев В.А. Преступления против основ конституционного строя – преступления против национальной безопасности Российской Федерации // Гуманитарные, социально-эконо-

мические и общественные науки. – 2018. – № 1. – С. 71–73.

5. Сергун Е.П. Вопросы уголовно-правовой классификации преступлений против основ конституционного строя и безопасности России // Вестник Московского университета МВД России. – 2011. – № 3. – С. 109.

6. Воронин В.Н. Насильственные преступления против основ конституционного строя и безопасности государства: проблемы качества конструирования уголовно-правовых норм // Вестник Нижегородской академии МВД России. – 2018. – № 1 (41). – С. 118.

7. Кузнецов А.А. Новые формы посягательств на основы конституционного строя и безопасности государства // Вестник Московского университета МВД России. – 2016. – № 3. – С. 119-120.

8. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida // n.ziyouz.com

9. Дурнова И.А. Правовой механизм защиты основ конституционного строя Российской Федерации: Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук. – Саратов, 2013. – С. 8-9.

10. Боброва Н.А. Конституционный строй и конституционализм в России. – М.: ЮНИТИ, 2003. – С. 40.

11. Баглай М.В., Туманов В.А. Малая энциклопедия конституционного права. – М.: БЕК, 1998. – С. 298. / Баглай М.В. Конституционное право Российской Федерации: учебник. 6-е изд., изм. и доп. – М.: Норма, 2007. – С. 115.

12. Царев Д.В. Общее понятие и признаки преступлений против основ конституционного строя и безопасности государства: Дисс. ... канд. юрид. наук. – Иваново, 2005. – С. 101.

13. Невинский В.В. Основы конституционного строя как система основополагающих конституционных принципов // Основы конституционного строя Российской Федерации: понятие, содержание, значение: сборник статей / Под ред. В.В.Невинского. – Барнаул: Изд-во Алтайского университета, 2003. – С. 36.

14. Хлебушкин А.Г. Основы конституционного строя как объект уголовно-правовой охраны // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2012. – № 4 (56). – С. 73-74.

15. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi.

III том. Maxsus qism. Darslik. – Toshkent: HTI, 2018. – В. 427.

16. Хлебушкин А.Г. Уголовно-правовая охрана политических основ конституционного строя // Вестник Санкт-Петербургского университета МВД России. – 2015. – № 2 (66).

17. Кузнецов А.А. Уголовно-правовая характеристика насильственных форм захвата власти: дисс. ... канд. юрид. наук. – М., 2022. – С. 15–18.

18. Москаленко М.Н. “Цветные революции” и иные угрозы конституционному строю Российской Федерации: история и современность: монография. – М.: Дашков и К, 2015. – С. 94.

19. Меркуров В.В., Агапов П.В. Противодействие технологиям “цветных революций” в системе мер по предупреждению преступлений против основ конституционного строя и безопасности государства // Криминологический журнал Байкальского государственного университета экономики и права. – 2014. – № 2. – С. 63–71.

20. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. – В.350. (n.ziyouz.com)

21. Трифонова И.А. Классификация вооруженных конфликтов в современном международном праве // Представительная власть — XXI век: законодательство, комментарии, проблемы. – 2017. – № 2-3 (153-154). – С. 10–14.

22. Татарникова А.Н. Международное вооруженное вмешательство: опыт практического применения и оценка результативности // Стратегическая стабильность. – 2018. – № 3 (84). – С. 9–15.

23. Ветрюк М.С., Фоломеев Ю.Н., Макаров В.А. Внутренние вооруженные конфликты и возможные пути их решения // Новая наука: Современное состояние и пути развития. – 2017. – Т. 3. – № 3. – С. 75–78.

# FRANSIYA VA O'ZBEKISTONDA MA'MURIY SUD ISHLARINI YURITISHNING BA'ZI JIHATLARI

## SOME ASPECTS OF ADMINISTRATIVE LEGAL PROCEEDINGS IN FRANCE AND UZBEKISTAN

*KVITKOV  
Yaroslav*

*Senior Researcher Institute  
of State and Law of the Academy  
of Sciences of the Republic  
of Uzbekistan, 3rd class lawyer*

### ANNOTATION

The article examines the models of organization and functioning of administrative legal proceedings in France and Uzbekistan. Based on a comparative analysis of the Uzbek and French models of administrative proceedings, the author identified their advantages and disadvantages.

**Keywords:** administrative proceedings, administrative justice, code of administrative proceedings, administrative courts, state council, dispute tribunal, supreme court.

### АННОТАЦИЯ

В статье исследуются модели организации и функционирования административного судопроизводства во Франции и Узбекистане. На основе сравнительного анализа узбекской и французской моделей административного судопроизводства автор выявил их достоинства и недостатки.

**Ключевые слова:** административное судопроизводство, административная юстиция, кодекс административного судопроизводства, административные суды, государственный совет, трибунал по конфликтам, верховный суд.

### ANNOTATSIYA

Maqolada Fransiya va O'zbekistonda ma'muriy sud ishlarini yuritishni tashkil etish va faoliyat ko'rsatish modellari tadqiq qilingan. Muallif ma'muriy sud ishlarini yuritishning o'zbek modeli va fransuz modellarini taqqoslash orqali ularning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlagan.

**Kalit so'zlar:** ma'muriy sud ishlarini yuritish, ma'muriy odil sudlov, ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeks, ma'muriy sudlar, davlat kengashi, ziddiyatlar bo'yicha tribunal, oliy sud.

In French legal literature, administrative proceedings are understood as a set of judicial and quasi-judicial bodies involved in control activities and resolving disputes related to the implementation of the functions of executive authorities, which are controlled by the Council of State. These bodies deal with disputes between various entities, for example, between the taxpayer and the tax authorities, or determine the possibility of annulling any decision of the government or ministers due to their illegality [1, p.130-131].

As N. Bonnal writes, modern French judicial institutions form two pyramids - they consist of administrative courts and general jurisdiction courts. At the top of each of the pyramids are the State Council at the head of the system of administrative courts and the Court of Cassation at the head of the system of courts of general jurisdiction; the structures themselves include various courts [2, p.45].

They are independent and complement each other. Disputes between them related to the definition of areas of competence are resolved by the Dispute Tribunal [3].

The Dispute Tribunal is at the junction of two branches of the judiciary. Either the Court of Cassation or the Council of State applies to it when, during the consideration of a case, a question arises about the competence between the courts of general jurisdiction and administrative courts.

The Dispute Tribunal consists of an equal number of members of the Council of State and the Court of Cassation.

To solve the problem of equal distribution of votes, the law provides that the head of the Dispute Tribunal is the Minister of Justice, who exercises this power quite rarely, only in the event of the above legal situation.

The presence of two judicial systems: courts of general jurisdiction and administrative justice bodies, is a feature of the French judicial system, and is a fundamental principle recognized by the laws of the republic and having constitutional significance [2, p.46].

Below, the system of administrative courts will be considered.

The administrative judicial institutions of first instance are administrative courts (administrative tribunals), administrative courts of special jurisdiction, which also include financial courts (such as the Court of Accounts, Regional Courts of Accounts, the Court of Budgetary and Financial Discipline) and others, such as the National Court on the right of asylum, the High Council for Education, commissions for the provision of compensation to repatriated persons, departmental commissions for the provision of social assistance, departmental commissions for persons with disabilities.

Administrative courts have jurisdiction over all administrative disputes, except for cases where the law refers the consideration of the case to the jurisdiction of some other judicial body.

N. Bonnal notes that the principle of collegiality is used in the work of administrative courts. Decisions are usually made by a panel of three judges, and significant cases are considered at a plenary session of the entire court [2, p. 57].

According to the French Department of Legal Information, as of July 2022, there are 42 administrative courts in France, 31 on the French mainland (including 5 in Ile-de-France) and 11 abroad [4].

The Administrative Courts of Appeal, composed of chambers of various specializations, serve as administrative courts of second instance.

The Code of Administrative Justice of France (hereinafter – CAJ of France) gives the administrative courts of appeal the right to consider appeals against judicial acts issued by the administrative courts of first instance, taking into account the competence of the State Council as an appellate instance and the competence determined by the CAJ [5, art. L211-2, L552-1 and L552-2].

There are currently nine administrative courts of appeal in France [4].

The heads of administrative courts and administrative courts of appeal, in accordance with the CAJ of France, can, if the parties agree to this, organize the procedure for conciliation of the parties and appoint one or more persons to conduct it [5, art. L211-4].



The CAJ of France establishes that, in addition to judicial powers, administrative courts and administrative courts of appeal perform advisory functions [5, Art. L212-1].

The highest administrative judicial institution in France is the Council of State [5, art. L111-1]. The Council of State is empowered to hear cases as a court of last instance on cassation appeals against decisions taken by various administrative tribunals, as well as to hear cases as a court of first instance or appeal.

The State Council is divided into sections of two categories – the administrative sections and the section of litigation. The administrative sections are:

- 1) finance section;
- 2) internal affairs;
- 3) public works;
- 4) for social affairs and, finally,
- 5) preparing reports and conducting research.

At the head of each section is a chairman who plays a very important role in its work. The range of problems considered by each of the sections is under the jurisdiction of several ministries.

For example, the Home Affairs section deals with all matters relating to the services of the Prime Minister, the Ministries of Justice, the Interior, National Education, Culture and Communications, Youth and Sports.

The aforementioned administrative sections give their opinions at the request of the

government, the relevant ministers in relation to the acts they prepare.

What is the legal force of the conclusions given by the Council of State? After analyzing its legal basis and activities, it can be concluded that they are not binding on the government, but the importance of the Council, the qualifications of its members, the possibility of publicity always make government agencies take into account its opinion.

Conclusion: in France, the institution of administrative proceedings was formed within the executive branch, and the independence of administrative courts is achieved here by their isolation from the bodies directly involved in public administration.

In the Republic of Uzbekistan, administrative justice was formed on the basis of universally recognized norms of international law within the framework of judicial and legal reform, the purpose of which is to strengthen the status of the judiciary as the most important guarantee of the effective protection of the rights, freedoms and legitimate interests of citizens, ensuring the true independence of the courts, strengthening their role in the formation of a democratic state and a strong civil society.

The Constitution of the Republic of Uzbekistan has formed the legal basis for the formation and development of administrative justice: everyone has the right to appeal to the court against

illegal actions of state bodies, officials, public associations [6, art. 46].

Administrative proceedings act as one of the forms of implementation of the judiciary, among which the Constitution of the Republic of Uzbekistan also names criminal, civil, economic and constitutional proceedings. All these proceedings received independent legal regulation in special laws and codified acts: criminal – in the Code of Criminal Procedure, civil - in the Code of Civil Procedure, economic – in the Economic Procedure Code, constitutional – in the Constitutional Law on the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan and a number of other legislative constitutional legal acts.

With the adoption of the Code of the Republic of Uzbekistan on administrative proceedings [7], a complete system of administrative and procedural regulation of relations related to challenging decisions, actions (inaction) of state authorities and their officials in court has been formed. The system of judicial protection against illegal actions or decisions that violate the rights and freedoms of citizens, which has been in force since 1991, the partial regulation in the Code of Civil Procedure and the Code of Administrative Liability of the procedures for considering relevant cases, obviously, did not constitute an impeccable system that ensures effective protection of the rights, freedoms, legitimate interests of citizens and organizations. Mainly, this system could

not be considered appropriate from the point of view of the unity of the subject, the logic of the interaction of substantive and procedural legal regulation.

The adoption of the Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Procedure is a very significant and important event in the development of the judicial system of the country, in improving the legal system, bringing the structure of justice into proper order, corresponding to the standards of ensuring the rights, freedoms, legitimate interests of individuals and organizations.

The administrative court system in Uzbekistan consists of:

- the Supreme Court, which is the highest body of judicial power in the field of administrative proceedings;

- Administrative court of the Republic of Karakalpakstan, administrative courts of regions and the city of Tashkent;

- inter-district administrative courts.

The Law of the Republic of Uzbekistan “On Courts” [8, art. 18] gives the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan the right to supervise the judicial activities of lower courts.

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan:

- considers cases within its competence as a court of first, appellate and cassation instances, including repeatedly in a cassation court, as well as on newly discovered circumstances;

- considers topical issues of judicial practice at



the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan and provides clarifications on the application of legislation;

- studies the organizational activities of the Administrative Court of the Republic of Karakalpakstan, administrative courts of regions and the city of Tashkent, inter-district courts;
- exercises control over the implementation by the courts of the explanations of the Plenum of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan;
- carries out a systematic analysis of judicial practice and judicial statistics;
- organizes work to improve the skills of judges and employees of the court apparatus.

The Judicial Collegium for Administrative Cases operates within the Supreme Court. The Chairman of the Judicial Collegium for Administrative Cases is the First Deputy Chairman of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan [8, art. 19].

The next link in the system of administrative legal proceedings is the Administrative Court of the Republic of Karakalpakstan, the administrative court of the region, the city of Tashkent, consists of the chairman, deputy chairman of the court, judges and act as part of presidiums and judicial collegiums.

Administrative court of the Republic of Karakalpakstan, administrative court of the

region, Tashkent city:

- considers cases within its powers as a court of first and appellate instances;
- supervises the judicial activities of inter-district administrative courts;
- generalizes judicial practice and judicial statistics, carries out their systematic analysis;
- prepares reviews of judicial practice;
- organizes work to improve the skills of judges and employees of the court apparatus.

The last link in the administrative justice system is the inter-district administrative courts, which consist of a chairman and judges. In the inter-district administrative court, where there are more than six judges, the position of deputy chairman of the court is introduced [8, art. 39].

In conclusion, I would like to note that, having analyzed the models of organizing administrative proceedings in France and Uzbekistan, we came to the conclusion that the model of administrative proceedings functioning in Uzbekistan is more similar to the German model, which provides for a separate system of administrative courts, than to the French one, where the institution of administrative proceedings was formed within the executive branch, and the independence of administrative courts is achieved here by their isolation from the bodies directly involved in public administration.

## ADABIYOTLAR

1. Maklakov V.V. Administrative justice in France // Legal studies in France: Sat. scientific tr. / RAN. INION. Center for social science-inform. Research dep. jurisprudence; under total ed. Maklakova V.V. - M., 2007.
2. Bonnal N. French Judicial Institutions // Judicial System and Judicial Institutions / Ed. P. Trusha / Embassy of France in Russia. – M.: Gnosis/Logos, 2003.
3. Official website of the Tribunal for Conflicts of France // Electronic resource: URL: <http://www.tribunal-conflits.fr>.
4. Information resource // URL: <https://www.vie-publique.fr/fiches/269216-combien-de-tribunaux-administratifs-et-de-cour-administratives-dappel>.
5. Code of Administrative Justice of France (as amended on July 02, 2022) // Electronic resource: URL: <https://www.legifrance.gouv.fr/codes/id/LEGITEXT000006070933>.
6. The Constitution of the Republic of Uzbekistan // Electronic resource: URL: <https://lex.uz/docs/35869>.
7. Code of the Republic of Uzbekistan on administrative proceedings // Electronic resource: URL: <https://lex.uz/docs/3527365>.
8. Law of the Republic of Uzbekistan “On Courts” dated July 28, 2021 No. ZRU-703 // Electronic resource: URL: <https://lex.uz/ru/docs/5534928>.

# O'ZBEKISTON HUDUDIDA MUSTAQILLIKKA QADAR TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BILAN BOG'LIQ MA'MURIY NIZOLARNI SUDDA KO'RISHNING RIVOJLANISH TARIXI

**MADRIMOV**  
*Xushnud Kuvandikovich,  
 Toshkent davlat yuridik universiteti  
 mustaqil izlanuvchisi*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston hududida mustaqillikka qadar tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishga oid ma'muriy nizolarni sudda ko'rishning rivojlanish tarixi tahlil qilingan. Bunda, o'rta asrlar va xonliklar davrida ma'muriy yustitsiyaga o'xshash bo'lgan institutlarning yuzaga kelishi hamda sovet davrida ma'muriy yustitsiya elementlarining shakllanishi jarayonlari alohida tadqiq etilgan. Bundan tashqari, ma'muriy yustitsiya institutining kontinental huquq va umumiy huquq tizimida paydo bo'lishi jarayonlari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** qozi, mazalim, xalq sudi, Ma'rifatparvarlik davri, politsiya davlati, huquqiy davlat, burjua tuzumining elementi, ma'muriy nizo, ma'muriy yustitsiya.

## АННОТАЦИЯ

В статье анализируется история развития судебного рассмотрения административных споров, связанных с защитой прав предпринимателей на территории Узбекистана до обретения независимости. При этом отдельно исследованы возникновение институтов, подобных административной юстиции в средних веках и в период существования ханств, а также процессы формирования элементов административной юстиции в советский период. Кроме того изучены процессы возникновения института административной юстиции в системе континентального права и общего права.

**Ключевые слова:** кази (судья), мазалим (судья, рассматривавший в прошлом административные споры), народный суд, эпоха просвещения, полицейское государство, правовое государство, элемент буржуазного строя, административный спор, административная юстиция.

## ANNOTATION

This article analyzes the history of the development of judicial hearing of administrative disputes on protection of entrepreneurs rights in the territory of Uzbekistan before independence. At the same time, it separately studies the emergence of institutions similar to administrative justice in the Middle Ages and during the existence of regional kingdoms (the Khanates), as well as the processes of formation of administrative justice elements during the Soviet period. Besides, the article studies the processes of emergence of administrative justice in continental law and common law systems.

**Key words:** kaziy (the judge), mazalim (a judge who heard administrative cases in history), people's court, Age of Enlightenment, police state, legal state, bourgeois element, administrative dispute, administrative justice.

Tadbirkorlik subyektlarining huquqlarini himoya qilishga oid ma'muriy nizolarni sudda ko'rish masalasining tarixi, eng avvalo, ma'muriy yustitsiya institutining vujudga kelishi doirasida o'rganishi lozim.

Turli tarixiy davrlarda davlat siyosiy va huquqiy tizimining o'ziga xosliklaridan kelib chiqqan holda, ma'muriy nizolar sudlar, kvazisudlov idoralari va shunga o'xshash institutlar tomonidan ko'rib hal qilib kelingan.

Masalan, Angliyada XIV asrdagi aholining soliq, bojxona, politsiya kabi organlar bilan nizolarini hal qilgan sudlar, Fransiyada XVII–XVIII asrlardagi boshqaruv va nazorat funksiyalarini birlashtirgan magistratura va intendantlar, sudlov funksiyaga ega parlamentlar ma'muriy yustitsiyaga xos vazifalarni amalgalashgan.

Lekin hozirgi tushunchamizdagi ma'muriy yustitsiyaning yuzaga kelishi Yevropada XVII–XVIII asrlardagi tarixiy vaziyat bilan bog'liq bo'lib, unga Angliyadagi "Shonli inqilob" va Fransiyadagi "Buyuk fransuz inqilobi" natijasida qabul qilingan hujjatlar hamda "Ma'rifatparvarlik davri" mutafakkirlarining siyosiy-huquqiy qarashlari kuchli ta'sir ko'rsatgan.

Jumladan, Huquqlar haqidagi Bill (Angliya, 1689-yil), "Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi" (Fransiya, 1789-yil) davlat hokimiyatiga nisbatan xususiy shaxs manfaatlarini e'tirof etgan dastlabki yuridik hujjatlardan bo'lib, barchaning tengligi, sud qarorisiz javobgarlikka tortmaslik, fuqaroning shikoyat qilishi kabi kafolatlarni belgilab bergan.

Ushbu tarixiy hujjatlar ma'muriy yustitsiyaning rivojida siyosiy-huquqiy asos rolini bajargan bo'lsa, T.Gobbs, J.Lok, J.J.Russoning ijtimoiy shartnoma nazariyasi, Sh.L.Monteskyening hokimiyat vakolatlari taqsimlanishi haqidagi g'oyalari falsafiy asos bo'lib xizmat qilgan.

Ma'muriy yustitsiya yuzaga kelishida huquqiy davlatning asoslaridan biri hisoblangan davlatning javobgarligi prinsipi ham muhim rol o'yagan.

Ushbu mutafakkirlarning g'oyalalarini oddiy

qilib tushuntirganda, dastlab ibtidoiy jamoa tuzumida odamlar qo'rquvini yengish va umumiyligi himoyalanish maqsadida davlat degan ijtimoiy tuzilmaga birlashadi va ushbu tuzilma fuqarolarga xizmat qilishi uchun unga o'z huquqlarining bir qismini beradi.

Keyinchalik ushbu davlat organlarining o'zi tomonidan odamlarga nisbatan turli xil suiste molchiliklar qilina boshlaydi va ularda davlatning mansabdorlaridan himoyalanish ehtiyoji paydo bo'ladi.

Shuning uchun, tarixdagi turli inqiloblar natijasida, fuqarolar qiroq yoki xon timsolidagi davlatning huquqlarini cheklash va inson huquqlarini e'tirof etishga erishadi. Ma'muriy yustitsiya instituti esa odamlarning huquqini o'zlarini tashkil etgan davlatning mansabdorlaridan himoya qiluvchi mexanizm sifatida vujudga kelgan.

Zero, ma'muriy yustitsiyaning ideologik asoslari ko'ra ham xususiy shaxslar davlat idoralarining fuqarolar bergan vakolatdan tashqari qilgan xatti-harakatlari, mansabdorlar ko'rsatayotgan xizmatlari bo'yicha norozilik bildiradi hamda o'z shikoyatlari davlatning alohida tuzilmasi tomonidan ko'rib chiqilishini talab qiladi.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib, dastlab kontinental huquq va umumiyligi huquq tizimida ma'muriy yustitsiyaning yuzaga kelishi tarixiga to'xtalib, shundan keyin hozirgi O'zbekiston hududida ushbu institutning rivojlanish jarayonlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Ma'muriy yustitsiya Yevropada XVIII asrning oxiri – XIX asrda vujudga kelgan bo'lib, kontinental huquq doirasida Fransiya va Germaniyada ushbu tizimning ikkita katta yo'nalishi shakllangan.

Ko'pchilik huquqshunos olimlar ma'muriy yustitsiyaning vatani sifatida Fransiyani e'tirof etishadi.

"Buyuk fransuz inqilobi"dan keyin inson huquqlarining ustuvorligi e'lon qilingan va ushbu huquqlarni amalda ta'minlash masalasi dolzarb bo'lib qolgan. Ya'ni, revolyutsionerlar xususiy shaxs huquqlarini qaysi davlat idorasi orqali qanday tartibda himoya qilamiz, degan masala ustida bosh qotirganlar.

E'tiborli jihat shundaki, shu davrlarda Fransiyada ma'muriyat (boshqaruv organlari) va

yustitsiyani (sudlov organlari) alohida ajratish zarur va ularning har biri o‘z vazifasiga ega bo‘lishi kerak, degan qarashlar ustuvor bo‘lib qolgan. Shuning natijasida, sudlar fuqarolik va jinoyat ishlarini hal qilish bilan cheklanishi, ommaviy nizolarni ko‘rishga aralashmasligi va bu bilan ma’muriyatdagi alohida tuzilmalar shug‘ullanishi haqidagi g‘oyalar qonunlarda ham o‘z aksini topgan.

G.Brebanning fikriga ko‘ra, Fransiyada ma’muriy yustitsiyaning sud tizimidan tashqarida yuzaga kelishiga inqilobdan keyin hokimiyatga kelgan shaxslar eski sud tizimiga to‘liq ishonmagan, hatto 1790-yil 16- va 24-oktabrdagi qonunlar bilan sudlarga davlat boshqaruv organlarini nazorat qilish taqiqlangan.

Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishiga ko‘ra, Fransiyada boshqaruv va sudlov idoralari o‘zaro ajratilganligi sababli, ma’muriy yustitsiya ijro hokimiyatining tarkibida tashkil topgan.

Mazkur tizim hududiy ma’muriy sudlar (tribunallar), ma’muriy apellyatsiya sudlari va oliv instansiya bo‘lgan Davlat kengashidan iborat uch bosqichdan iborat bo‘lgan. Bu tizimning o‘ziga xos xususiyati shundaki, Davlat kengashi sud funksiyasini amalga oshirish bilan birga, Hukumatning maslahat organi ham hisoblangan.

Huquqshunos olim J.Ne’matov ham Fransiyada ma’muriy huquq masalasini o‘rganib, noqonuniy ma’muriyatni to‘g‘rilash vakolati sud hokimiyatiga emas, balki tashkiliy jihatdan ma’muriy hokimiyatning ichki organi hisoblanadigan organga berilganini, keyinchalik shu organ sud kabi mustaqillikni qo‘lga kiritib, ma’muriy sud tizimini shakllantirib borganini ko‘rsatib o‘tgan.

Bundan tashqari, Fransiyada 1872-yilda umumiy sudlar va ma’muriy sudlar o‘rtasida nizolarning taalluqliligi haqidagi nizolarni hal qilish uchun Konfliktlar bo‘yicha tribunal tashkil etilib, u istisno hollarda ma’muriy ishlarni ham ko‘rib chiqishi mumkin bo‘lgan.

Germaniyada esa ommaviy nizolarni ixtisoslashgan sud – ma’muriy sudlar tomonidan hal qilish yo‘li tanlangan. Lekin mazkur tizimning shakllanishi ham bir xil maromda yuz bermasdan, turli xil bahs-munozaralar va tajribalarning hosilasi bo‘lgan.

Jumladan, Germaniyada ma’muriy yustitsiya tizimi nisbatan kechroq, ya’ni XIX asr ikkinchi

yarmida vujudga kelib, dastlab unga fransuz tizimi ham ta’sir o‘tkazgan. Unga ko‘ra, ommaviy nizolarni hal qiladigan sudlar ma’muriyatdan to‘liq mustaqil bo‘lmagan va Germaniyaning turli o‘lkalarida ijro hokimiyati tarkibidagi kvazisudlov idoralari faoliyat yuritgan.

Bu borada olimlar o‘rtasida ham turli qarashlar mavjud bo‘lib, ayniqsa nemis olimlari Otto Ber va Rudolf fon Gneyst o‘rtasidagi munozaralar e’tiborga molik. Xusan, O.Ber fuqarolarning ma’muriyat bilan ommaviy nizolarni umumiylashtirish surʼatlarda hal qilish haqidagi g‘oyani ilgari surʼat bo‘lsa, R.Gneyst bu borada alohida ixtisoslashgan sudlarni tashkil etish samarali ekanligini bildirgan.

Germaniyada ma’muriy sudlarning vujudga kelishi “politsiya davlati” dan “huquqiy davlat” ga o‘tish haqidagi g‘oyalar ilgari surʼat jarayonlar bilan birga yuz bergan. Chunki huquqiy davlat g‘oyasi ma’muriy organlarning aniq belgilangan huquqiy normalar doirasida faoliyat yuritishini talab qilgan va ma’muriy sudlar ushbu tartibni ta’minlaydigan institut bo‘lib maydonga chiqqan.

Ushbu muhokamalar natijasiga ko‘ra, R.Gneystning fikr-mulohazalarini ta’sirida dastlab 1863-yili Badenda, 1870-yillarda Prussiya, Gessen, Vyurttemberg, Bavariya kabi shaharlarda bиринчи ma’muriy sudlar tashkil topib, tuman, okrug va oliv ma’muriy sudlardan iborat uch bosqichli ma’muriy yustitsiya tizimi shakllangan.

Ta’kidlash joizki, ushbu davrda Germaniyada ham ma’muriy sudga davlat organlarning barcha qarorlari ustidan shikoyat qilish mumkin bo‘lmagan va 1949-yilgi Konstitutsiyadan keyin mansabdorlarning barcha xatti-harakatlari bo‘yicha ma’muriy sudda nizolashish imkoniyati yaratilgan.

Germaniyada ma’muriy sudlar nafaqat ijro hokimiyatidan, shu bilan birga umumiy sudlar tizimidan ham mustaqil ravishda faoliyat yuritgan.

Ushbu tizimning Germaniyada ommaviy va xususiy huquq sohalarining alohida ajralgan holda shakllanganligi ham ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, umumiy sudlar xususiy huquqqa doir ishlarni, ma’muriy sudlar esa davlat hokimiyati bilan bog‘liq ommaviy nizolarni ko‘rib hal qilgan.

Ma’muriy yustitsiya Fransiyada boshqaruv organlarini umumiy sudlardan alohida ajratish, Germaniyada alohida ixtisoslashgan sudlarga ustuvorlik berish asosida shakllangan bo‘lsa,

anglo-sakson tizimida bu vazifani ham umumiylardan, ham alohida kvazisudlov idorasi bo‘lgan tribunallar va komissiyalar amalga oshirgan.

An’anaviy tarzda, Angliyada huquq ustuvorligi prinsipiiga ko‘ra, ma’muriy organlarning har qanday qarori umumiylardan tomidan ko‘rib chiqilishi shart bo‘lgan va fuqarolardan farq qilgan holda, mansabdorlarning nizolari uchun kontinental tizimdagisi kabi alohida davlat idorasining bo‘lishi ushbu prinsipni buzish deb tushunilgan.

Shu bilan birga, XX asr boshlarida temir yo‘llar bo‘yicha komissiya, pensiya tribunalni, sug‘urta tribunalni kabi tuzilmalar tashkil etilib, umumiylardan va ma’muriyat o‘rtasida oraliq bo‘g‘in sifatida ma’muriy yustitsiya funksiyasini amalga oshirgan. Dastlab, tribunallar ham boshqaruv, ham sud funksiyasini bajargan.

XX asrning 40-yillarda pensiya tribunalni, sug‘urta tribunalni faoliyati isloq qilinib, yer tribunalni tuzilgan va boshqaruvning aksariyat sohalarida shu kabi kvazisudlov idoralari soni ko‘payib borgan.

O‘ziga xos jihat shundaki, yuristlar bilan birga, tegishli sohada zarur malakaga ega bo‘lgan shaxslar ham ma’muriy tribunal a’zosi hisoblangan.

1958-yilda ushbu ma’muriy tribunallar bo‘yicha qonun qabul qilinib, ularning ijro hokimiyatiga ham, umumiylardan tizimiga ham kirmaydigan maqomi belgilab berilgan.

AQSHda ham ma’muriy yustitsiya institutlari Angliyaga o‘xhash tizimda shakllangan.

Jumladan, AQSHda ma’muriy organlar qarorlari ustidan shikoyatlarni umumiylardan ko‘rib chiqqan bo‘lib, qonun ijodkorligiga o‘xhash funksiyaga va sud kabi qaror chiqarish vakolatiga ega bo‘lgan ma’muriy komissiya (agentlik)larning roli ham kuchli bo‘lgan. Amalda ma’muriy nizolarning ko‘pchiligi umumiylardan qolishiga nisbatan ma’muriy komissiyalarda hal qilingan.

Jumladan, AQSHda ko‘pchilik olimlar fikriga ko‘ra, federal ma’muriy huquq 1887-yilda Kongress tomonidan dastlabki mustaqil ma’muriy komissiya bo‘lgan Shtatlararo tijorat komissiyasi tashkil etilgan davrdan boshlab vujudga kelgan.

AQSHda ma’muriy yustitsiya tizimini o‘rgangan olim D.T.Karamanukyan esa o‘z tadqiqotida federal ma’muriy huquq

shakllanishining boshlanish vaqtini 1790-yilda Patent byurosi tashkil etilishi bilan bog‘laydi.

Shundan kelib chiqib, bizning tadqiqot misolida aytish mumkinki, AQSHda ma’muriy yustitsiya kvazisudlov tizimining dastlabki ko‘rinishlari tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, XVIII asr oxirida shakllana boshlagan va XIX asr oxirlariga kelib yanada rivojlangan.

AQSHda ma’muriy komissiyalar ijro hokimiyatini tarkibidagi organ bo‘lib, bajarilishi majburiy bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilgan va faoliyatiga doir huquqiy nizolarni ko‘rib chiqqan.

Ushbu idoralar nomidan ham kollegial organ, ham alohida mansabdor shaxs ish olib borgan.

Hozirgi O‘zbekiston hududida tadbirkorlar ishtirokidagi ma’muriy nizolarning ko‘rib chiqilishi tarixini quyidagi uch davr doirasida o‘rganish lozim:

- sovet davriga qadar ma’muriy yustitsiya institutlariga o‘xhash bo‘lgan institutlarning yuzaga kelishi;

- sovet davrida ma’muriy yustitsiya elementlarining shakllanishi;

- mustaqillik davrida ma’muriy yustitsiyaning rivojlanishi.

Ta’kidlash joizki, VIII asrda XX asr boshiga qadar O‘rta Osiyo aholisining kundalik hayotida va davlat boshqaruvida shariat normalari huquqning asosiy manbasi bo‘lib, ma’muriy yustitsiyaning elementlari ham bevosita islom huquqi bilan bog‘liq holda shakllangan.

Ushbu hududda ma’muriy yustitsiya elementlarining o‘ziga xos xususiyati shunday bo‘lganki, boshqaruv va sudlov hokimiyatini bir-biridan aniq ajratilmagan hamda ular tomonidan davlat qonunlari, diniy normalar va urf-odat qoidalari birgalikda qo‘llanilgan.

Shu sababli, sud faoliyati ham bir vaqtning o‘zida ijro hokimiyatini rahbari bo‘lgan xon yoki amir timsolidagi davlat rahbari nomidan amalga oshirilgan.

Sovet davriga qadar O‘zbekiston tarixida xususiy shaxslarning hokimiyat bilan nizolarni hal qiladigan huquqiy institutlarning o‘ziga xos dastlabki ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, tadqiqotchilar tomonidan, eng avvalo, qozi, mazalim, biylar faoliyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Jumladan, sud hokimiyatini asosan qozi instituti tomonidan amalga oshirilgan va u

aholining kundalik turmushidagi ko‘pchilik nizoli masalalarni ko‘rib chiqqan.

Qozilar faoliyati, ularga qo‘yiladigan talablar Burhoniddin Marg‘iloniyning “Hidoya”, Nizomulmulkning “Siyosatnoma” asarlarida va “Temur tuzuklari”da batafsil olib berilgan. Davlat va huquq tarixi bo‘yicha chuqur tadqiqotlar olib borgan olim Z.Muqimov Amir Temur davriga to‘xtalib, “sud amaliyotiga kelsak, shariatga oid ishlarni islom qozisi, dunyoviy ishlarni va odat huquqlaridan kelib chiqadigan ishlarni qozi, sipoziy askarlar orasida yuz beradigan huquqiy nizolarni qozi askar ko‘rib hal qilgan”ligini yozgan.

Shu o‘rinda, Z.Muqimov ispaniyalik elchi Rui Gonsalesga havola qilib, Amir Temur davrida ayrim qozilar muhim ish va nizolarni hal etishgani, boshqalari moliya ishlarni yuritgani, ba’zilari esa yerlar va shaharlardagi noiblar faoliyati bilan shug‘ullanganiga e’tibor qaratadi hamda ixtisoslashgan qozilar ham bo‘lganligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, 1785–1800-yillardagi Buxoro amiri Shohmurod sud islohotlarini o‘tkazib, har bir musulmon, hatto qul ham qoziga o‘z shikoyati bilan kelishga va noqonuniy ish qilgan xo‘jayinini javobgarlikka tortishga haqli ekanligini belgilagan. Bu islohotga ko‘ra, qirq nafar qonunshunosdan iborat olyi sud tuzilib, unga amirning o‘zi rahbarlik qilgan.

Ushbu holatlardan, ya’ni qozilar noiblar faoliyatiga oid nizolarni, quyi va yuqori toifalar o‘rtasidagi ishlarni hal qilganidan ko‘rinadiki, Amir Temur va Shohmurod davridagi qozilar tomonidan hozirgi tushunchamizdagи ommaviy nizolar ham ko‘rib chiqilgan.

Movarounnahrdagi yana bir tarixiy-huquqiy institut – mazalim misolida ma’muriy yustitsiyaning elementlari yanada yaqqol ko‘rinadi.

Jumladan, fuqarolarning davlat amaldorlari, ruhoniylar va boshqa katta obro‘ga ega shaxslar bilan nizolarini yoki ushbu obro‘li shaxslarning o‘zaro nizolarini ko‘rib chiqish qozilar uchun qiyinchilik tug‘dirgan hamda alohida sudlovga ehtiyoj yuzaga kelgan.

Chunki ushbu shaxslar ishning qonuniy hal etilishida qoziga ta’sir qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Shuninguchun, hozirgitushunchamizdagи ommaviy nizolar mazalim instituti tomonidan

ko‘rib chiqilgan bo‘lib, odatda xon, amir yoki podshohning o‘zi, vazirlar va obro‘-e’tiborli shariat ulamolari ushbu vazifani bajargan.

Mazalim lavozimiga tayinlash davlat boshlig‘ining vakolati bo‘lib, u yuqoridagi vazifasidan tashqari harbiylar nizolarini hal qilish, boshqaruв idoralarini nazorat qilish, olyi diniy nazoratni amalga oshirish funksiyalariga ham ega bo‘lgan.

Tarixchi olimlar tomonidan mazalim instituti Movarounnahrdagi zardushtiylik zamonda yuzaga kelib, sovet davriga qadar sudlov vazifasini amalga oshirib kelganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Mazalim instituti ma’muriy yustitsiyaning Movarounnahrdagi o‘ziga xos ko‘rinishi ekanligini ushbu mavzu tarixini o‘rgangan olim S.Ibragimov aniq misollar bilan asoslab bergen. Xususan, S.Ibragimov mazalim o‘z tashabbusiga ko‘ra guvohlarni chiqarish, ulardan tushuntirishlar olish, ish bo‘yicha tekshiruvlar o‘tkazish va dalillarni ishonchli deb topish vakolatlariga ega bo‘lganligini ta’kidlab, bu – ixtisoslashgan ma’muriy sudlarning inkvizitsion-tergov funksiyasiga o‘xshashligini ko‘rsatib bergen.

Mazkur holat ma’muriy sudda nizolarni ko‘rishning o‘ziga xos xususiyati bo‘lgan sudning faol ishtiroki prinsipiga to‘g‘ri keladi.

O‘rta asr mutafakkirlari asarlarida ham xususiy shaxs va davlatning mansabdorlari o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha falsafiy fikrlar ilgari surilgan. Xususan, huquqshunos olim L.B.Xvan ham Sa’diy Sheraziyning “Bo‘ston” va Xo‘ja Samandar Termiziyning “Dastur al-muluk” asarlaridagi odil sudlov va mansabdorlarga qo‘yilgan talablar haqida to‘xtalib, ma’muriy yustitsiya bizning huquqiy tizimga begona emasligini asoslab bergen.

Yuqoridagi tahlillar O‘zbekiston hududida chor Rossiya qadar hozirgi tushunchamizdagи ma’muriy yustitsiya instituti bo‘lmasa-da, uning dastlabki ko‘rinishlari va keyinchalik rivojlanishi uchun yetarli tarixiy shart-sharoitlar mavjudligi haqida xulosa qilish imkoniyatini beradi.

Chor Rossiysi bosqini oqibatida, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilib, Xiva xonligi va Buxoro amirligi o‘z mustaqilligini yo‘qotganidan keyin ushbu hududlardagi sud tizimida ham qisman o‘zgarishlar yuz bergen.

Xususan, Turkiston general-gubernatorligida rus fuqarolari uchun umumimperiya sudlari, viloyat sudlari, harbiy-dala sudlari tashkil etilgan.

Xiva xonligi va Buxoro amirligida mahalliy aholi uchun saylanadigan qozi va biy sudlari (Turkiston general-gubernatorligida xalq sudi) saqlanib, oila va fuqarolik huquqiga oid masalalarni ko'rib chiqqan.

Mahalliy aholining yerga doir da'vo va nizolari, umuman nizo taraflaridan biri hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan ishlar imperiya sudlarida hal qilingan bo'lib, ularni ommaviy nizo deb hisoblash mumkin.

Lekin bu davrda chor Rossiyasida sud islohotlari davom etayotganligi va Angliyaning Hindistondagi mahalliy an'analarni rad etish tajribasi ish bermaganligi sababli, imperiyadagi sud tizimi to'liq joriy etilmagan.

Chor Rossiyasida XIX asrda ma'muriy yustitsiya instituti hisoblangan Senat birinchi departamenti va "gubernskiye prisutstviya" kabi kvazisudlov idoralarining vakolati O'zbekiston hududiga deyarli tartibq etilmagan.

Rossiyada Muvaqqat hukumat tomonidan 1917-yil mayda ma'muriy sudlar tashkil etilgan bo'lsa-da, keyingi katta tarixiy voqealar oqibatida, bu sudlar faoliyatini tartibga soluvchi nizom nafaqat O'zbekiston hududida, balki umuman imperiya miqyosida kuchga kirmagan.

Sovet davrining dastlabki yillarda ma'muriy yustitsiyani tiklashga harakatlar qilingan bo'lsada, bu davr uchun umumiyl qilib aytganda, mazkur institut burjua tuzumining elementi sifatida tan olinmagan.

Jumladan, 1918-yilda fuqarolarning davlat organlari faoliyatidan norozi bo'lib sudga shikoyat qilish huquqi e'tirof etilgan, shikoyatlar byurosi, yer va boshqa masalalar bo'yicha sud komissiyalari kabi idoralar tashkil etilib, sof ma'muriy yustitsiya instituti emas, balki uning elementlarini rivojlantirishga urinishlar bo'lgan.

Lekin, sovet tuzumi mustahkamlanib, ma'muriy-buyruqbozlik metodlari to'liq ishlay boshlagandan keyin, davlat organlari ustidan sudga shikoyat qilish masalasini tuzum o'zi uchun qabul qila olmagan.

Eng asosiysi, davlat va xususiy shaxs o'rtasida nizoning mavjudligi – sovet tuzumining hech qanday konfliktsiz kommunizm qurish haqidagi ustuvor g'oyasiga zid kelgan.

Xususan, O.V.Chumakovning fikriga ko'ra, "XX asrning 20-yillarda sovet huquqida ma'muriy organning qaror va xatti-harakati

ustidan sudga shikoyat qilishga yo'l qo'yilmasligi haqidagi politsiya davlatiga xos bo'lgan prinsip mustahkamlangan, ushbu prinsipga muvofiq, "hokimiyat-bo'ysunuv" munosabatidan kelib chiqadigan barcha bahsli masalalar faqat ma'muriy tartibda hal qilinishi mumkin bo'lgan".

Ikkinchiji jahon urushidan keyin ham, sovet ilm-fanida ma'muriy yustitsiya institutini e'tirof etish emas, balki unga nisbatan yet unsur sifatida qarash haqidagi fikr-mulohazalar ustunlik qilib kelgan.

Stalin davridan keyin jamiyat hayotida yuz bergen nisbatan ijobjiy o'zgarishlar ta'sirida xususiy shaxslar huquqlarini tan olish bo'yicha ham ayrim siljishlar kuzatilgan.

Bu vaqtga kelib, ma'muriy yustitsiya institutiga doir masalalar nafaqat olimlar o'rtasidagi babs-munozaralarning predmeti bo'lib qolgan, shu bilan birga ularni qonun hujjalarda ham e'tirof etish boshlangan.

Jumladan, sobiq Ittifoq Oliy Kengashi Prezidiumining 1961-yil 21-iyundagi "Ma'muriy tartibda solinadigan jarimalarni qo'llashni yanada cheklash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, xususiy shaxslar ma'muriy organning qarori ustidan sudga shikoyat qilishi mumkin bo'lgan.

Afsuski, ushbu o'zgarishlarni keyinchalik mustaqil ma'muriy huquq doirasida rivojlantirish emas, balki fuqarolik protsessual qonunchiligidan umumiyl tarzda aks ettirish yo'li tanlangan.

Postsovet hududida amaliyotchilar o'rtasida ham, ilmiy doiralarda ham ma'muriy nizo, ma'muriy huquqbazarlik va fuqarolik (iqtisodiy) nizo tushunchalari bo'yicha hozirga qadar mavjud bo'lgan chalkashliklarning ildizi mana shu davrlarga borib taqaladi.

Xususan, ma'muriy yustitsiya fuqarolik sud ish yuritvi doirasida tartibga solingandan keyin, jamiyatda konflikt bo'lmasligi haqidagi mafkuraga asosan ma'muriy nizoning da'vo xarakteriga egaligi rad etilgan.

Bundan tashqari, ma'muriy ish deganda ma'muriy yustitsiyaning mazmunini tashkil etuvchi ommaviy nizolar qolib ketib, ma'muriy huquqbazarliklarga asosiy e'tibor qaratilgan.

Buning sabablari ham siyosiy rejimning mohiyatiga borib taqaladi, chunki sovet hokimiyati xususiy shaxs huquqini himoya

qilishni emas, balki davlat tuzumini muhofaza etishni sudning asosiy vazifasi deb tushungan.

Shu bilan birga, XX asrning 70-yillariga kelib V.F.Sirenko, A.T.Bonner, V.T.Kvitkin kabi olimlar davlat va xususiy shaxs o'rtasida konflikt bo'lishi mumkinligi va bu har bir jamiyat kabi sovet jamiyat uchun ham xos xususiyat ekanligi haqidagi fikrlarni ilgari surgan.

Mazkur jarayon sovet qonunchiligiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, 1977-yilgi sobiq Ittifoq Konstitutsiyasi 58-moddasida fuqarolarning davlat va jamoat organlari, mansabdar shaxslar xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi belgilangan.

Lekin keyingi o'n yil davomida mazkur norma deklarativ xarakterga ega bo'lib qolgan. Faqat, qayta qurish davriga kelib 1987-yil 30-iyunda ushbu normani amalga oshirish tartibini belgilovchi alohida qonun qabul

qilingan, 1989-yil 2-noyabrdagi qonun bilan uning qo'llanish doirasi kengaytirilgan va 1990-yil 27-iyulda SSSR Oliy sudi Plenumining 7-sonli qarori chiqqan.

1991-yilda sobiq Ittifoqning qulashi oqibatida, butun davlat tuzumi kabi endi-endi huquqiy asoslari yaratilayotgan ma'muriy yustitsiya instituti ham har bir mustaqil davlatda turli xil ko'rinishlarda rivojlanish yo'lini qaytadan boshlashga majbur bo'lgan.

Shu o'rinda bir jihatni ta'kidlash zarur – sovet davri boshlangan 1917-yilda ma'muriy sudlar tashkil etilib va uning so'ngida bu masala bo'yicha qonun qabul qilinib, ushbu voqealar ma'muriy yustitsiyani rivojlantiradigan nuqta bo'lishi kerak edi. Biroq keyingi katta tarixiy hodisalar ta'sirida tuzum o'zgarganligi ushbu rivojlanish nuqtalarining ahamiyatini tushirib yuborgan.



# DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARI TIZIMIGA “ELEKTRON HUKUMAT”NING JORIY ETILISHIDA XORIJ VA MILLIY TAJRIBA

*OMONOV  
Ravshanjon Rustamovich,  
Mirzo Ulug’bek nomidagi  
O’zbekiston Milliy universiteti  
tadqiqotchisi*

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada davlat hokimiyati organlari tizimiga “elektron hukumat”ning joriy etilishida xorij va milliy tajriba haqida fikrlar ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash va davlat xizmatlari ko’rsatish tizimini takomillashtirish haqidagi fikrlar yoritilgan.

**Kalit so’zlar.** Davlat, hokimiyat, axborot, globallashuv, kommunikatsiya, “elektron hukumat”, raqamli texnologiya, tadbirkorlik.

## АННОТАЦИЯ

В статье научно анализируются мнения о зарубежном и отечественном опыте внедрения «электронного правительства» в систему органов государственной власти. Также освещаются взгляды на обеспечение гласности деятельности государственных органов и совершенствование системы государственных услуг.

**Ключевые слова:** государство, власть, информация, глобализация, связь, «электронное правительство», цифровые технологии, предпринимательство.

## ANNOTATION

This article scientifically analyzes opinions on foreign and domestic experience in the implementation of «electronic government» in the system of public authorities. The article also highlights the views on ensuring the transparency of the activities of state bodies and improving the system of public services.

**Key words.** State, power, information, globalization, communications, e-government, digital technologies, entrepreneurship.

Bugungi kunda mamlakatimizda demokratlashtirish jarayonlarining samaradorligi va sifatini tubdan yaxshilash, fuqarolarning erkinligi, huquqlari, ularning munosib turmush tarzi va manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan davlat va jamiyat munosabatlarini tubdan mustahkamlash, ularning ta'sirchanligini oshirishning samarali mexanizm va uslublarini joriy etishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan xalqparvar siyosat zamirida eng avallo, inson qadrini ulug'lash, xalq manfaatlarini ustun qo'yish asosiy maqsad hisoblanadi. Shu o'rinda, Shavkat Mirziyoyev davlat va boshqaruvi organlari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilot mutasaddilari faoliyatiga baho berar ekan: **"Biz keyingi paytda odamlar bilan muloqot qilishni unutib qo'yidik. Ularning ichiga kirib, ochiq va samimiy gaplashish, dardini eshitish bizning faoliyatimizda, afsuski, oxirgi o'ringa tushib qoldi"**, degan edi. Zero, xalq qabulxonalarining barcha hududlarda ish boshlagani, xalq bilan keng miqyosda muloqot olib borilayotgani davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiq-oshkorraligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini uyg'un holda tasavvur qilib, eng asosiy ustuvor vazifa etib, **"Inson manfaatlari hamma narsadan ustun!"** degan olijanob g'oyani bugungi kun rahbarlari izchillik bilan hayotga tatbiq etishi lozimligini aytib, buning uchun quyidagilarni ustuvor vazifa sifatida belgilab berdi:

**Birinchi** – fuqarolar bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yishning yangi samarali usul va mexanizmlarini tatbiq qilish, jumladan, barcha darajadagi rahbarlarning aholi oldida hisobot berish tizimini joriy etish.

**Ikkinci** – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi, har bir tuman va shahardagi Xalq qabulxonalari, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini samarali tashkil etishni ta'minlash rahbar xodimlar uchun yangi zamonaviy talab hisoblanadi.

Yurtboshimiz shu munosabat bilan rahbarlar, joylardagi hokimlar va ularning birinchi o'rinbosarlari o'z ish uslubi va dunyoqarashini tubdan o'zgartirishi shart ekanligini, bugungi kunda hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'yayotganligini va ular quyidagilardan iboratligini ta'kidlaydi:

**Birinchedan**, ayrim idoralar va ularning rahbarlari real hayotdan va xalq ehtiyojlaridan ma'lum darajada uzilib qolmoqda.

**Ikkinchidan**, tarmoq va hududlarni rivojlantirish konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda yuzaki yondashuvga yo'l qo'yilmoqda.

**Va niyoyat, uchinchi** asosiy kamchilik – ko'pchilik rahbarlarning murakkab muammolarni kabinetdan chiqmasdan, joylardagi ishlar qanday ahvolda ekanini chuqur o'rganmasdan hal etishga odatlanib qolgani bilan bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. Zero, bugungi zamon talabi mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvining mutlaqo yangi va samarali faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni talab etadi. Shu munosabat bilan mamlakatda davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish va modernizatsiya qilish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash va davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish uchun elektron portallar va ma'lumotlar bazalari yaratildi. Xususan, ruxsat beruvchi hujjatlar va litsenziya olishni soddalashtirish uchun www.license.gov.uz, "yagona darcha" tamoyili bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishni ta'minlash uchun birdarcha.uz veb-saytlari yaratildi. Davlat xizmatlarini qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish natijasida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatga olishning tartib-taomillari 4 martaga, ro'yxatga olish uchun zarur vaqt esa 30 daqiqa qadar qisqartirildi. Shu bilan birga, so'nggi yilda amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarning obyektiv tahlili, davlat boshqaruvi organlari faoliyati, aholi bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqot natijalari mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli



hal etishga ehtiyoj vujudga kelganligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonuning 3-moddasiga ko'ra "elektron hukumat – davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi"dir, deb ta'rif berilgan. Biroq bizni qiziqtiradigan tushunchani ifodalashdan oldin "klassik" ma'noda tushunishda davlat boshqaruvi o'zida nimani ifodalashini yetarlicha tasavvur qila olamizmi degan savol haqida o'ylab ko'raylik. Bundan oldin ommaviy adabiyotlarda keng yoyilgan bir tushunchaga to'xtalib o'tamiz. Bu "elektron hukumat" tushunchasidir. O'z navbatida, elektron hukumat davlat organlarining jismoniy hamda yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida davlat xizmatlari ko'rsatish orqali davlat idoralari o'rtasida elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimidir. Shu o'rinda, mazkur tushuncha, ilk bor AQSH sobiq prezidenti Bill Clinton davrida ma'muriy boshqaruvin sohasiga oid tushuncha sifati qo'llanilgan. "Elektron hukumat" tushunchasining ko'p o'lchamliligi va keng ma'noga ega ekanligi BMTning "Elektron huku-

mat chorrahada" nomli hisobotida ham tilga olin-gan. Mazkur hisobotda qayd etilishicha, elektron hukumatning joriy qilinishi kelgusida kompyuter xizmatiga bo'lgan cheklowni anglatmaydi. "Elektron hukumat" tushunchasi birmuncha keng qamrovli bo'lib, u keng ma'noda zamonaviy kompyuter va kommunikatsiya texnologiyalari orqali samarador davlat boshqaruvini amalga oshirishni anglatadi. Bu haqda Rossiya hukumati axborot departamenti boshlig'i Andrey Korotkovning fikricha, "bu (elektron hukumat) noaniq atama, biz elektron hukumat to'g'risida emas, balki axborot texnologiyalari xizmatidan foydalanuvchi hukumat to'g'risida, axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi Federal majlislar to'g'risida, axborot texnologiyalaridan foydalanuvchi Sudlar to'g'risida va umuman davlat hamda fuqarolik jamiyati tuzilmalari, shuningdek, tadbirkorlar uchun o'zaro bir-birlarini tushunish, qolaversa, yagona standart asosida aloqaga kirisha olish imkonini beruvchi kommunikativ muloqot muhiti haqida gapirishimiz kerak", degan fikrni bildirib o'tadi.

Siyosatshunoslikda keng qabul qilingan "hukumat" atamasi Encyclopædia Britannica hukumatni uning vositasida davlat va jamiyatni boshqarish va ularga rahbarlik qilish va amalga oshiriladigan siyosiy tizim sifatida ta'riflangan. Shu o'rinda, elektron hukumatning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi. Jumladan:

– davlat organlari faoliyatining samadorligini, tezkorligini va shaffofligini ta'minlash, ularning mas'uliyatini va ijro intizomini kuchaytirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan axborot almashishni ta'minlashning qo'shimcha mexanizmlarini yaratish;

– ariza beruvchilar uchun mamlakatning butun hududida davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni elektron hukumat doirasida amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlar yaratish;

– o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar doirasida davlat organlarining ma'lumotlar bazalarini, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini va Elektron davlat xizmatlarining yagona reyestri ni shakllantirish;

– aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi, davlat organlarining o'zaro hamkorligi va ularning ma'lumotlar bazalari o'rtasida axborot almashinuvni mexanizmlarini shakllantirish hisobiga davlat boshqaruvi tizimida "Yagona oyna" tamoyilini joriy etish;

– tadbirkorlik subyektlarini elektron hujjat aylanishidan foydalanishga, shu jumladan statistika hisobotini taqdim etish, bojxona rasmiylashtirivi, litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar berishda, shuningdek, davlat organlaridan axborot olish jarayonlarida elektron hujjat aylanishidan foydalanishga o'tkazish;

– tadbirkorlik subyektlarining elektron tijorat, Internet jahon axborot tarmog'i orqali mahsulotni sotish va xaridlarni amalga oshirish tizimlaridan foydalanishini, shuningdek, kommunal xizmatlarni hisobga olishning, nazorat qilishning va ular uchun haq to'lashning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etishni kengaytirish;

– naqd bo'lmagan elektron to'lovlar, davlat xaridlarini amalga oshirish, masofadan foydalanish tizimlarini va bank-moliya sohasidagi faoliyatning boshqa elektron shakllarini rivojlantirishni o'zida namoyon etadi. Shu o'rinda, bugungi kunda O'zbekistonda ham dunyoning boshqa mamlakatlari qatori elektron hukumatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Mamlakatimizda elektron hukumatning asosi 2003-yilda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi bilan bevosita bog'liq. Mazkur qonunda axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilangan. Jumladan:

– O'zbekiston Respublikasining yagona axborot maydonini yaratish;

– davlat axborot resurslarini shakllantirish, axborot tizimlarini yaratish va rivojlantirish, ularning muvofiqligi va o'zaro hamkorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Shular qatorida davlat boshqaruvi tizimi ni axborotlashtirish bo'yicha "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida" va "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunlar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qonunlarning birinchisi markaziy va joylardagi hukumat boshqaruv organlarida axborot tizimlari orqali muassasalar o'rtasida hujjat almashinuvini o'zaro tartibga soladi. "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonun elektron hukumat sohasini davlat tomonidan tartibga solish orqali davlat xizmatlari ko'rsatishni muvofiqlashtirib turadi. Shu bilan birga mazkur qonunda elektron davlat xizmatlarining yagona reyestri ni yuritish shartlari va xizmatlarning sifatini baholash tartibi ko'rsatib o'tilgan.

Hozir O'zbekistonda yaratilgan "Elektron hukumat" tizimi ushbu hujjatlar almashinuvida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bir qator muammolarni bartaraf etishdagi asosiy yechimlardan biri bo'lmoqda. Mamlakatimizda "Elektron hukumat" tizimi shakllantirilishi natijasida turli yo'nalishdagi ma'lumot va xizmatlarning aholiga, tijorat va davlat organlari bo'limlariga, tashkilotlar rahbarlariga yetib borishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanuvchi aholi va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda masofani qisqartirishga zamin yaratmoqda.

Shu o'rinda, "elektron hukumat" tizimining yanada afzalligi – fuqarolar hukumatga murojaat qilmoqchi bo'lganida, xohlagan vaqtlarida murojaat etishlari va davlat xizmatlaridan foydalanishlari mumkin bo'ladi. "Elektron hukumat"ning afzalligi – davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tubdan o'zgartiradi. Davlatning xalq oldidagi mas'uliyati ortib, davlat organlari boshqaruvida yangi imkoniyatlar yaratadi. Elektron hukumat ikki muhim vazifani bajaradi: **birinchisi**, hukumat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi, **ikkinchisi**, turli darajadagi davlat tashkilotlari (markaziy, hududi, mahalliy) va turli sohalardagi (qonunchilik, ijro, sud hokimiyati) idoralar o'rtasidagi ichki munosabatlarni mustahkamlaydi. Chindan ham, elektron hukumat shakllangan 200 dan ziyod davlat xizmatlari



turlari haqidagi ma'lumot va xizmatlarni aholiga, bank, biznes va davlat organlari shaxobchalariga, idora va tashkilot rahbarlariga yetkazish, axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanib, buyurtmachi va davlat o'tasidagi o'zaro munosabatlar masofasini qisqartirish vazifasini yaxshi ado etmoqda.

Bugungi kunda yurtemizda elektron hukumat tizimi tobora rivojlanib bormoqda. Elektron hukumatning asosiy vazifasi aholi, xususan xalqning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, davlat xizmatlarini taqdim etish, aholi va tadbirkorlik subyektlariga elektron xizmatlar ko'rsatish bo'yicha interaktiv faoliyatni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugun taraqqiyot sari da-dil odimlayotgan O'zbekiston yaqin kelajakda aholining turmush darajasini tubdan yaxshilash orqali dunyoning rivojlangan 50 ta davlati qatoriga kirish uchun harakat qilmoqda. Albatta, mamlakatimizning bu sohada amalga oshirayotgan islohotlari dunyo miqyosida alohida e'tirof etilayotir. Mana shunday ijobjiy natijalar bois, mamlakatimiz jahondagi nufuzli "Ekonomist" jurnali tomonidan 2019-yilda eng jadal islohotlar amalga oshirgan davlat sifatida "Yil mamlakati" deb e'tirof etilgani e'tirofga loyiqdir.

O'rganishlarga ko'ra, o'rtacha bir yarim yilda axborot oqimi ikki barobarga oshib bor-

moqda. Aynan shu bois, bugun jadal sur'atlarda rivojlanish jarayonida raqamlashtirishga bo'lgan zaruriyat tobora oshib bormoqda. Bu esa, hozirgi zamona talabidan kelib chiqib tezkorlik bilan raqamli iqtisodiyotga o'tishni muhim vazifaga aylantirmoqda. Davlat boshqaruvida elektron hukumatning joriy etilishi, avvalo, davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi, hukumatning idoralararo hujjat almashishi, hukumat va biznes, hukumat va fuqarolar o'tasidagi munosabatlarni optimallashtiradi. Elektron hukumatni yanada kengroq joriy etish orqali an'anaviy byurokratik to'siqlarga chek qo'yadi, fuqarolar uchun davlat xizmatlaridan foydalanish qulayligini, davlat xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirishni, fuqarolarning davlat qonunchiligiga rioya etishini soddashtirishni, fuqarolarning jamiyatga bo'lgan faolligini va ishonchini oshirishni, korrupsiyaning oldini olishni, firibgarlikni kamaytirishni va davlat xarajatlari samaradorligini oshirishni anglatadi.

Iqtisodiyot tarmoqlari va davlat boshqaruvi tizimiga zamona viy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida elektron hukumatni yanada rivojlantirish muhim

vazifalardan hisoblanadi. Bunda mamlakat miy-yosida sifatli va talab yuqori bo‘lgan elektron davlat xizmatlarini yanada kengaytirish, bosqich-ma-bosqich barcha davlat xizmatlarini raqamli shaklga o‘tkazish, shu jumladan ko‘rsatilayotgan avtomatlashtirilgan xizmatlar ulushini 2030-yilga qadar 90 foizga yetkazish lozim.

**Tadqiqotchi B.Berdiev olib borgan tadqiqotida “Jamiyat rivojlanishi natijasida insoniyatning turli sohalardagi hayotiy ehtiyojlari ortib borgan va ushbu ehtiyojlarning qondirilishi uchun boshqaruv (siyosat) sohasi ham doimiy takomillashuvni talab qilgan” degan fikrni ilgari suradi. Tadqiqotchingin fikriga ko‘ra, boshqaruvning takomillashuvi natijasida siyosatda modernizatsiya jarayonlari tabiiy ravishda vujudga keladi. Axborot texnologiyalarining zamonaviy imkoniyatlari boshqaruvning “an’anaviy inson bajaradigan” sxemalarida tasavvur ham qilib bo‘lmaydigan operatsiyalar bajarilishiga yo‘l qo‘yib, qaror qabul qilish tartib-qoidasini tubdan o‘zgartirish imkonini beradi.**

Davlat muassasalarining oddiy “elektronlashtirilishi” boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari yanada kengayishiga xizmat qiladi.

“Elektron hukumat” tizimining tadrijiy rivojiga, uning strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish va tadqiq qilishga, shuningdek, jahon tendensiylarini, xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish hamda ularni tatbiq etishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratish asosiy maqsad hisoblanadi. Ya’ni davlat va xalq o‘rtasidagi masofani yaqinlashtiradi. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma’muriy islohotlar O‘zbekistonda davlat boshqaruvida AKT tizimini amalda joriy etish va takomillashtirish uchun bir qator

qulayliklar yaratmoqda.

Bugungi kunda elektron hukumatni rivojlantirish darajasi bo‘yicha O‘zbekiston dunyo reytingida ko‘tarilib bormoqda. Shu o‘rinda, milliy elektron hukumatni yanada rivojlantirishning muhim natijasi sifatida, O‘zbekiston 2030-yilga cha BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi va Butunjahon bankining Tadbirkorlikni yuritish indeksida dunyoning eng rivojlangan 30 ta davlatlari safiga kirishi uchun dadil harakat qilmoqda. Shu maqsadda, kelgusida elektron hukumatni rivojlantirish va axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha elektron hukumat xizmatlarini to‘liq integratsiyalash masalalariga alohida e’tibor qaratish ko‘zda tutilmoqda. Bu esa, O‘zbekistonda elektron hukumat tizimi jamiyat modernizatsiyalashuvining samarali bo‘lishiga xizmat qiladi. Jumladan, bu tizim aholiga va tadbirkorlarga qulay, tezkor xizmat ko‘rsatish, fuqarolarning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish jarayonlari izchilligini oshirish, ularning texnologik savodxonlik darajasini ko‘tarish, saylovchilarining faolligi va ijtimoiylashuvini ta’minlash; fuqarolar geografik joylashuvi ta’sirini kamaytirish, hududlar aholisi siyosiy madaniyatidagi farqlar qisqarishiga qo‘sishimcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Shu o‘rinda aksariyat rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari iqtisodiy rivojlanishning lokomotivi ekanligini, mamlakatga investitsiyalar jalb etilishi, yangi ish o‘rinnari tashkil etilishi, ilg‘or texnologiyalar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etayotir. Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining davlat boshqaruviga tatbiq etilishi mamlakatda axborot ayrboshlashda chiqimlar qisqartirilishiga, bozor qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirishga zamin yaratadi.

## ТИНЧЛИК ВА ОСОЙИШТАЛИКНИ АСРАБ-АВАЙЛАШ – ДАВР ТАЛАБИ

**КАХАРОВА**  
**Мунира,**  
**Ижтимоий-маънавий**  
**таадқиқотлар**  
**институти директори**  
**ўринбосари, ф.ф.д (PhD)**

### АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада юртнинг тинчлиги, халқнинг фаровон яшashi учун нималар қилмоқ кераклиги мисоллар билан очиб берилган. Яқин қўшничилик муносабати мустаҳкамлаши мухимлиги келтирилган.

**Калит сўзлар:** тинчлик, маънавият, фаронлик, соғлом фикрлилик, таҳдид, тафаккур, миллат, давлат, дин, ватан, мафкура, иммунитет.

### АННОТАЦИЯ

В статье на примерах раскрывается мир в стране и что нужно сделать, чтобы людям жилось комфортно. Отмечена важность укрепления тесных добрососедских отношений.

**Ключевые слова:** мир, духовность, процветание, здравомыслие, угроза, мировоззрение, нация, государство, религия, Родина, идеология, иммунитет.

### ANNOTATION

In this article, examples reveal peace in the country and what needs to be done to make people live comfortably. The importance of strengthening close good neighborly relations was noted.

**Key words.** peace, spirituality, prosperity, sanity, threat, worldview, nation, state, religion, homeland, ideology, immunity.

**Кириш.** Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев Президентлик фаолиятининг дастлабки давридан бошлаб асосий эътибор қаратган энг муҳим фаолият йўналишларидан бири ёшлар масаласи хисобланади. Президентизнинг Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисидаги қарашлари ўтган давр давомида бир қатор қонун ҳужжатларида ўз аксини топди. Албатта, стратегик вазифа сифатида ёшларга қаратилаётган эътибор мутахассислар, олимлар ва кенг жамоатчилик томонидан алоҳида эътироф билан кутиб олинди.

Бозор муносабатларининг жадаллашиши ва эркинлашуви шароитида ижтимоий-сиёсий ҳамда иқтисодий жараёнларнинг мураккаблашуви, турли соҳаларда муаммоларнинг кучайиши кузатилади. Ташқи алоқаларнинг кенгайиши ва ахборот глобаллашуви эса бутун жамият, айниқса ёшлар онгида чуқур ўзгаришларга олиб келади. Муаммолар кўпайгани сари уларнинг ечими борасида жамият аъзоларида ноодатий, баъзи ҳолларда ноконуний усулларни қўллаш одати кузатилади. Айнан мана шу туфайли кўпгина жамиятларда ижтимоий-сиёсий бўхронлар рўй беради ва ёшлар воситасида конституциявий тизимга қарши оқимлар, харакатлар вужудга келади. Бундай шароитда турли тизимларда фаолият кўрсатаётган ёш кадрлар давлат томонидан бериладиган дастурий кўрсатмаларга муҳтож. Чуқур тадқиқотларсиз ва илмий асоссиз ёшлар, айниқса ёш раҳбарлар борасида аниқ стратегия шакллантириш мураккаблашади ва кутилган натижага бермайди.

Бунинг сабаби, айнан қайд этилган мураккаб шароитда ижтимоий зиддиятларнинг кучайиши ёшларда мафкуравий, маънавий, иқтисодий қадриятларнинг емирилишига бориб тақалади. Эркин бозор муносабатлари шароитида ижтимоий муносабатлар ўта мураккаб тус олади, шафқатсиз меркантилистик қадриятлар ёшларнинг асосий мезонига айланади.

Хозирда дунёning турли минтақаларида содир бўлаётган нохуш воқеалар ҳар қандай соғлом фикрли инсонларни чуқур ташвиш

га солмасдан кўймайди. Ҳар хил кўриниш ва шаклдаги можаролар, давлатлараро, миллатлараро ва динлараро, шу жумладан, конфессиялараро қарама-қаршиликлар, низолар ҳамда уларнинг натижаси ўлароқ қон тўкилишлар жаҳоннинг қайси мамлакатида рўй бермасин, бундан соғлом тафаккурли ҳар бир инсоннинг кўнгли фаш тортади.

Бу каби воқелик биздан узокда, деб лоқайдликка берилиш ҳам жамият, ҳам миллат келажаги учун заарли эканини яқин қардошимиз Қорақалпоғистонда бўлиб ўтган ҳодисалар кўзимизга кўрсатди ва чуқур тафаккур қилишга мажбур этди. Чунки бундай бало бир мамлакат ёки минтақа доирасида чегараланиб қолмас экан. Вақтида бартараф этилмас экан, тобора кучайиб, бошқа мамлакат ва минтақаларга ҳам кенг ёйилиши муқаррарлигини тушундик. Шунинг учун дунёда содир бўлаётган воқеа ва ҳодисалардан – хоҳ у бунёдкор бўлсин, хоҳ вайронкор – ҳамиша огоҳ бўлиш, она Ватанимиздаги тинч, осойишта ва фаровон хаётнинг қадрига этиш, шу фаровон, осуда ҳаётни янада мустаҳкамлаш учун ҳар бир инсон ўз хиссасини қўшмоғи, эл-юрт тақдири, келажаги учун дахлдорлик туйгусини дилига жо қилмоғи даркор. Чунки кўриниши бунёдкор бўлган айрим мафкуралар аслида вайронкор бўлиши ҳам мумкин.

Умуман, ҳамиша эзгу ва хайрли ниятлар билан яшайдиган ҳалқимизнинг орзуси, мақсади битта – жаҳондаги барча мамлакатларда, элларда тинчлик ва барқарорлик хукм сурини, одамлар баҳти ва фаровон ҳаёт кечириши ҳамда улар бунга ҳақли эканини истайди.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ҳозирги глобаллашуви даврида, инсон онги ва қалби учун кураш кучайган бир пайтда турли ғоявий таҳдид ва хуружлар жамиятимизнинг маънавий ҳаётига таъсир кўрсатишнинг кучли куроли сифатида намоён бўлмоқда[1]. Дарҳақиқат, интернет олами инсонни тўғри йўлдан оғдириш ҳамда унинг онги ва қалбини эгаллашга энг қулагай бўлган майдонга айланди. Бу майдонда ёвуз кучлар истаганча ўзининг вайронкор ғоялари билан таъсирини ўтказмоқда. Мақсади – ҳалқинг давлатга бўлган ишончини сусайтириш, низо келтириб чиқаришдан иборат. Шу сабабли давлат раҳбари ҳар бир маърузасида сергак ва ҳушёр бўлишга чақириш

моқда. Тинч-тотув яшашга ҳеч нарса тенг кел маслигини кўп бора таъкидламоқда.

Тинчлик ва осойишталикни асраб-авайлаш, ҳимоя қилиш фақат муайян соҳалар ходимларининг вазифасигина эмас. Шу сабаб бу йўлда барча яқдил бўлиб, ҳамжиҳат ҳаракат қилиши лозим. Унутмайлик, тинчлик, баҳт берилмайди, аксинча, унга эришилади. Илм ҳамда таълим ва тарбия билан.

Дунё ҳаритасидаги давлатлар, миллатлар тарихий шарт-шароит, жўғрофий жойлашуви, геостратегик ҳолатига кўра турли мавқега эга. Ҳозир – гоявий қарама-қаршиликлар ғоят мураккаблашган, мафкура полигонлари ҳар қачонгидан ҳам хавфли тус олган давр. Шундай экан, уларнинг ўзига хос манфаатларини ифодалайдиган мафкуравий таъсир усуслари ҳам бўлиши шубҳасиз. Жаҳон сиёсий ҳаритасида турфа сиёсий кучлар, партиялар, дин ва диний оқимлар, мазҳаблар, гуруҳ ва қатламлар фаолият кўрсатмоқда. Улардан ҳар бири ўз манфаатлари – мафкурасига эга. Айнан мана шу манфаатлар ўзга халқлар, турли минтақалар, давлатларнинг аҳолиси ёки ижтимоий гурухлар онгига, турмуш тарзига таъсир ўтказиш, уларни бўйсундириш учун йўналтирилган мақсадларни шакллантиради.[2]

Масалан, Япониядаги мафкуравий иммунитетнинг асосий ядроси бу япон халқига хос бўлган ахлоқий фазилатлар, яъни ҳалоллик, камтарлик, ишчанлик, меҳнасеварлик, сабр-тоқат, итоаткорлик, садоқат, қонунга бўйсуниш, ҳар қандай тўқнашувлардан узоқ бўлиш истаги, берилган ваъдага содиқлик ва бошқалар ҳамда ушбу ахлоқий қадриятларни бузиш ёки эътиборсиз қолдириш жамоатчиликнинг кескин танбеҳига олиб келади. Халқ бу каби ахлоқсизлик ва эътиборсизликларга эътиrozлар билан чиқади.

Жамиятнинг бирдамлиги, айниқса, табиий оғатлар пайти, японлар яқинларининг ўлими ва мулкларининг йўқотилишига қарамай, юқори даражадаги бағрикенглик ва камтарликни кўрсатишлари билан намоён бўлади. Уларга буни болалигидан таълим масканларида қатъий ўргатилади. Улғайгани сари урф-одатлар, қадриятлар, одоб-ахлоқ онгига мустаҳкам ўрнашиб боради. Вояга етганида мустаҳкам мафкуравий иммунитетга эга бўлади.

Умуман олганда, жамиятнинг мафкуравий

иммунитети ва уйғунлиги кундалик ҳаётда чуқур илдиз отган ва япон аҳолисининг кўп асрлик урф-одатлари, анъаналари, қадриятларига қатъий содиқлигига асосланган бўлиб, бу ўз навбатида японларни ўта эҳтиёткор бўлишга ва бегона нарсалардан, шу жумладан мафкуравий нарсалардан воз кечишга мажбур қиласди.

Зоро, бугун аксар давлатлар мақсад-муддаосида – миллий ғоясида умуминсоний қадриятлар ва демократик тамойилларга асосланган мафкуралар устуворлик касб этмоқда. Миллий хавфсизлик, сарҳадлар даҳлсизлиги – бирламчи мақсад. Уларда тинчлик ва тараққиёт, инсон ва жамият камолотига хизмат қилалиган умуминсоний ғоялар муҳим саналади. Шунинг баробарида инсон онгидаги янгича дунёқараш ва тафаккур тарзи шаклланадиган бир даврда муайян кучларнинг мафкура майдонида хукмронлик қилишга, ўз таъсир доирасини кенгайтиришга қаратилган интилиши ҳам тобора кучайиб бормоқда. Бундай вазиятларда давлатлар бир-бири билан яқин қўшнилик муносабатларини мустаҳкамлаши зарурдир. Юртимизда ҳам сўнгги йилларда қўшни давлатлар билан яқин қардошлик алоқалари кучайтирилди. Доно халқимиз “қўшнинг тинч, сен тинч” дейди. Шу мақсадда Давлатимиз раҳбари 2022-йил 26-июлда бўлиб ўтган “Афғонистон: хавфсизлик ва иқтисодий тараққиёт” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига ўз нутқида “Ўзбек ва афғон халқлари минг йиллар давомида ёнма-ён яшаб келади. Бизни умумий маданий, маънавий ва тарихий қадриятлар, ягона дин ва буюк аждодларимизнинг мероси бирлаштириб туради”, деб таъкидлади.

Ҳар қандай жамият ўз сиёсатига эга. Аммо уларнинг барчаси ҳам тинч эмас. Шунга кўра, бошқалардан кучлироқ сиёsat юргизувчи давлатгина кўзлаган мақсадига осон ва муваффақиятли эришади. Шунингдек, таърифдан сиёсатнинг муайян маконга тегишли экани кўринмоқда ва у инсонлараро муносабатнинг ажаб кўринишидир.

**Таҳлил ва натижалар.** Ўзбекистоннинг куч-қудрати манбаи – халқимизнинг умуминсоний қадриятларга содиқлиги, улуғ аждодларимиздан авлодларга ўтаётган маънавий мероснинг кучлилигига, фуқароларимизнинг

эл-юрга, она заминга битмас-туганмас меҳрида, миллий ғуруримизда. Шу ўринда, садоқат – ватанга, оиласа, дўстга, касбига каби бўлишига кўплаб мисоллар келтиришимиз мумкин. Том маънода, инсон садоқатининг исботи жонини фидо қилиш, вафодорлигининг намоёни ҳамдир. Ватанга бўлган садоқатни сўнгги икки йилда барчамиз синовли қунларда сабр-бардошимиз билан кўрсатишимиш зарурлигини давлат раҳбари қайта ва қайта тақоролашдан тўхтамади. Ҳа, инсоннинг садоқати бошига ташвиш тушганида яққол кўриниши ҳаммамизга аён бўлган жараён. Оилаларнинг мустаҳкам бўлиши ёки парокандаликка юз тутиши ҳам шунда намоён бўлади. Она Ватанга садоқат туйғусини чиройли эзгу амалларимиз билан кўрсатайлик. Унутмайлик, ватан сизу бизни боққан, едирган, ичирган, таълим берган, тарбиялаган.

“Иккинчи муаллим” номи билан машҳур буюк аждодимиз Абу Наср Форобий: “Давлатни ақл-идрок билан бошқариш халқ бошига тушган хавф-хатарни камайтириш ва бартараф этишдан иборат”, [3] деган эди. Бизнингча, ушбу таърифга “тушиши мумкин бўлган” иборасини ҳам кўшиш мақсадга мувофик. Зоро, буни давр талаб қилмоқда. Ёт сиёсалар шунга мажбур қилмоқда. Бугун келажакни, амалга оширилаётган ислоҳотлар натижасини олдиндан кўра олмаслик, мамлакатга, унинг халқига таҳдид солиши мумкин бўлган ёт таъсиirlардан огоҳ бўлмаслик, локайдликка берилиш ҳар қандай жамият тараққиётини шубҳа остида қолдиради.

Аждодларимиз юрга қаратилган турли кўринишдаги таҳдидлардан огоҳ ва хушёр бўлишган. Буни муқаддас бурч деб билишган. Ушбу масалада адолатли раҳбар орзусида уларга сидқидилдан хизмат қилишни тарғиб қилишган. Биз уларнинг орзуларига эришдик. Садоқатимизни давлат раҳбари бошчилигига амалга оширилаётган ислоҳотларга қалбимиздаги тўғён ураётган ташаккуrimизни айтиб, шукrona келтириш ва ҳалол хизматимиз билан исботлаймиз.

Реал, мавжуд хавфни олдиндан кўра билиш, унинг хавфлилик даражасини аниқлаш, лозим ҳолатга қарши кураш усул ва услубларини аниқлаш ва амалга ошириш мақсадида Амир Темур салтанатида мунтазам, узлуксиз

ишлайдиган ахборот тизими шакллантирилган эди. Бу буюк Сохибқирон учун бош вазифа ҳисобланган: “Ҳар бир диёр аҳолисининг ахволидан огоҳ бўлиб турдим. Ҳар бир мамлакат аҳволи, сипоҳу раиятнинг кайфиятини, туриш-турмушини, қилмиш-қидирмишларини, булар ўрталаридағи алоқаларини ёзиб менга билдириб туриш учун диёнатли, тўғри қаламли кишилардан воқеанавислар белгиладим”[4]. Бу ҳозирда долзарблик касб этаётган ахборий огоҳликни эслатмаяптими?! Бундан минг йиллар олдин аждодларимиз бу тизимни ишлаб чиқкан, мукаммал даражада амалиётга жорий этган эди. Чунки мамлакат ҳақида унинг халқи фикр-ўйлари, аскарлари кайфијати, фуқаролари турмуш тарзи сўзлайди. Бу воқеаларнинг “диёнатли, тўғри қаламли” кишилар томонидан қайд этиб борилиши, ижрога йўналтирилиши эса кенг қамровли сиёсанинг натижадорлиги кафолатидир.

Бундан мамлакатимиз учун ҳам ташқи, ҳам ички хавфсизлик бирдек аҳамиятли экани аён бўлади. Зоро, халқимиз тинчлиги, юртимиз осудалиги, сарҳадларимизнинг таҳдидлардан холилиги, қолаверса, жамоат тартибини сақлаш, юртда яшаётган ҳар бир фиқаронинг ҳам бурчи, ҳам мажбуриятидир. Бу бурч ва мажбуриятилизни бугун бажарадиган вақт келди. Келажак учун ҳам, яхши яшаш учун ҳам, ватанимиз тинч ва осойишталигини сақлаш учун ҳам шундай қилишимиз зарур.

Садоқат ҳақида ўйлар эканмиз ногоҳ Нажмиддин Кубро сиймоси кўз олдимизда гавдаланади. Унга, яқинларига омонлик ваъда қилинди. Акс ҳолда... Аммо буюк сўфий буни қабул қилмади. Нима учун? Ҳар ким фикр қилиши керак бўлган мавзу. Шундай эмасми? Ахир, у умрининг қолган қисмини ўз яқинлари даврасида тинч, осуда ўтказиши мумкин эди-ку!? Алломани ўлимга тик боришга нима мажбур қилди экан? Албатта, маънавий масъулият. Халқи олдидағи, ватани олдидағи. Душмани таклифини қабул қилганида бир умр виждан азобига гирифтор бўлар, бу тавки лаънат уни то қиёмат тинч қўймас эди. Олим қилган иши билан уйини, демакки, ватанини ҳимоя қилди. Мана шу – қадрият. Широқ ҳам шундай... Ўзи чўпону жасорати унча-мунча мардларда йўқ. Бундан кўринадики, ватан учун қайфуриш факат ҳарбийлар, раҳбарлар

эмас, балки олимнинг ҳам, дехқоннинг ҳам, чўпоннинг ҳам – ҳамманинг иши, масъулияти, мажбурияти.

**Хулоса ва таклифлар.** Демак, хулоса қилиб айтганда, тинчликка, юртимизда амалга оширилаётган ислоҳотларга шукроналик, синовлар келса сабр-бардошли бўлишга факат одамларга маънавият ва маърифат орқали тушунтириш билан эришилиши англанмоқда. Халқимизнинг мағкуравий иммунитетини ошириш, ёвуз кучларга қарши соғлом фикрини айта олишга даъват қилиш зарур. Айниқса, ёшларнинг маънавий иммунитетини оширишга барча бирдек масъул экани қабул қилинган маънавий-маърифий соҳани тақомиллаштиришга қаратилган қарорларда белгилаб берилиди. Фақат буни англаш ва тафаккур қилиш лозим. Амалларимизда унинг ижроси бўлиши зарур. Ёшлар сеники ёки менини деб масъулиятдан чекиниш эмас, бугун сидқидилдан ишлаш керак. Йўқса, унинг бадали оғир

тўловдир. Маънавиятда кечикиш йилларга татигулик вайронкорликни юзага чиқаради ва чиқармоқда ҳам. Бунга мисолни узоқдан эмас, яқинимизда бўлиб ўтаётган воқеа-ходисалардан англаш мумкин. Тинч ва фаровон яшашимиз учун ҳам маънавият ва маърифат йўналишида барча тизимлар бирлашган ҳолда ишни ташкил этиши зарур ва муҳим. Зоро, бирдамлик – эзгуликка йўл очади. Бугунги кунда “Бирлашган ўзар” наклида ишлаш мақсадга мувофиқ. Шунда натижаси тинч-тотувликда яшаш бўлади.

Хуллас, озгина эътиборсизлик сабаби жаҳолат, натижаси залолат билан боғлиқ. Мўътабар манбаларда эзгулик йўлида рақобат қилишга тарғиб қилинган. Бу одамларнинг ёмонликда рақобат қилиши мана шу манбаларнинг инкор этилиши ҳам экани унтулаётгани ёмон. Демак, энг аввало “Жаҳолатга қаршিমан!” шиори ҳар бир инсон онгидаги бўлиши ҳар доимгидан-да бугун зарур.

## АДАБИЁТЛАР

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. – Тошкент.: O‘zbekiston, 2021. – Б. 263.
2. Кахарова М. Тақдиримдасан Ватан. Рисола. – Тошкент.: Ma’naviyat, 2019. – Б. 8.
3. Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2016. – Б. 49.
4. Темур тузуклари. – Тошкент.: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б. 55-56.

# YOSH YIGITNING YURAK MIKSOMASIDAN O'LIM HOLATI TADQIQI

**KAMALOV**  
*Sherzod Shukuralievich,*  
**BOBONAZAROV**  
*Sanjarbek Salomovich,*  
*Respublika sud-tibbiy ekspertiza*  
*ilmiy-amaliy markazi*  
*Toshkent viloyati filiali*

## ANNOTATSIYA

Maqlada Toshkent viloyatida sodir bo‘lgan odatda juda kam uchraydigan kasallik – yurak miksomasidan vafot etgan yosh yigitning o‘lim holati tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** sud-tibbiy ekspertiza, gistologik tekshiruv, miksoma.

## АННОТАЦИЯ

В статье разбирается случай смерти в Ташкентской области молодого парня от редко встречающегося заболевания – миоксомы сердца.

**Ключевые слова:** судебно-медицинская экспертиза, гистологическое исследование, миоксома

## ANNOTATION

The article examines the case of death in the Tashkent region of a young boy from a rare disease – myxoma of the heart.

**Key words:** forensic medical examination, histological examination, myxoma.

**Mavzuning dolzarbligi.** Miksoma – yaxshi sifatli o’sma (dobrokachestvennaya opuxol) bo‘lib, yurakning chap yoki o‘ng bo‘lmachasida oyoqcha yordamida mahkamlanadi (86% holatlarda yurakning chap bo‘lmachasida) [1, 2]. Chap bo‘lmachada joylashgan miksoma qon oqimiga qarshi mexanik to‘siq bo‘lib, kichik qon aylanish doirasida bosim ko‘tarilishiga sababchi bo‘ladi. Ma’lumotlarga ko‘ra miksoma hozirgi kunda 1 mln aholidan 0,5-1 nafarida uchrashi mumkin [2], ko‘proq 30–60 yoshdagি insonlarda kuzatilib, ayollarda erkaklarga nisbatan 4 barobar ko‘proq uchraydi [2-5]. Tashqi ko‘rinishidan jelesimon konsistensiyalik polip bo‘lib, o‘lchami 5–10 sm.gacha, 8-30% holatlarda yurak klapanlarini berkitib qo‘yishi natijasida to‘satdan yuz bergen o‘limga olib kelishi mumkin [1-5]. Patologoanatomik tekshiruvlar natijasiga ko‘ra, miksomani aniqlash 0,0005% dan 0,02% gacha [1-5]. Shu sababli, sud-tibbiy ekspertning faoliyatida bunday holat juda kamdan-kam uchraydigan topilmadek qabul qilinadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Maqolamizda yurak miksomasiga sud-tibbiy ekspertlik nuqtayi nazaridan ta’rif berib, bunday holatlarda nimaga e’tibor qaratish kerakligi va miksomaning makro va mikroskopik ko‘rinishini yanada batafsil yoritib berishga harakat qildik.

**Tadqiqot materiallari va uslublari.** Tadqiqot obyektlari sifatida RSTEIAMning Toshkent viloyati filiali Bo‘stonliq tuman bo‘limida 2021-yil dekabr oyida o‘tkazilgan sud-tibbiy tekshiruv xulosasi va sud-gistologik tekshiruv dalolatnomasi olindi. Marhum 2002-yilda tug‘ilgan X.L.Z. Gistologik tekshiruv uchun ichki a’zolardan 19 ta bo‘lakcha kesib olindi. Suvsizlantirish uchun 960 etil spirtidan o‘tkazildi, parafin bilan singdirildi. 8 ta buyum oynachada 24 ta kesma tayyorlandi va №2851/21 raqam bilan belgilandi, gematoksilin-eozin bo‘yog‘ida bo‘yaldi.

Tekshiruv O‘zR SSV tomonidan 2015-yilda tasdiqlangan “E-1, E-2” standartlari asosida o‘tkazildi. Gistologik preparatlar LOMO “Mikmed-6”(Rossiya) binokulyar mikroskopi yordamida tekshirilib, SONY XS1691(Yaponiya) maxsus raqamli fotokamera bilan suratga olindi.


**Tadqiqot natijalari va muhokamasi.** Marhum X.L.Z. nomiga yuritilgan kasallik tarixidagi yozuvlarga ko‘ra 29.02.2021 kungi reanimatsiya bo‘limidagi ko‘rik: “Bemor L. (2002-y.t.) qabul bo‘limida ko‘rilib, umumiy ahvoli o‘ta og‘ir agonal-terminal holatda reanimatsiya bo‘limiga yotqizildi. Shikoyati: Tez-tez qaytalanuvchi talvasa xurujlari, o‘zini bilmay hushidan ketib qolish. Anamnezidan: bemor o‘rtoqlari bilan Chorboqqadamolishgakelib, basseyndacho‘milib chiqib, talvasa xuruji tutgan va TTY chaqirib bizga olib kelingan. Umumiy ahvolini inobatga olib reanimatsiya bo‘limiga gospitalizatsiya qilindi. Ko‘rvuda bemor reanimatsiya bo‘limiga





olib kelinganda to'satdan nafas va yurak faoliyati to'xtashi kuzatildi. Zudlik bilan reanimatsion chora-tadbirlar ko'rilib, yurak yopiq massaji, Ambu qopchasi orqali sun'iy nafas berilib, 7,6 o'lchamli ETT orqali bir urinishda traxeya intubatsiyasi o'tkazildi va IVL qurilmasi ulandi hamda yurak yopiq massaji davom ettirilib, 100-150-200-250 kuchlanishda yurak defibrilatsiyasi o'tkazildi va yurak yopiq massaji davom ettirildi, reanimatsion tadbirlar davom ettirildi, yurak yopiq massaji davom ettirilib, 150-200-250 kuchlanishda yurak defibrilatsiyasi o'tkazilib, yurak yopiq massaji davom ettirilib, reanimatsion chora-tadbirlar va intensiv chora-tadbirlar davom ettirildi. Olib borilgan reanimatsion tadbirlar va intensiv davo muolajalariga qaramasdan bemorda 2021-yil 29-dekabr kuni, soat 16.25 da biologik o'lim holati qayd qilindi. O'limidan keyingi tashxis: O'tkir yurak qon-tomir va nafas



yetishmovchiligi og'ir darajasi. Yurak ishemik kasalligi. O'tkir miokard infarkti. Kardiogen shok. Noma'lum etiologiyali tez-tez qaytalanuvchi talvasa xurujlari bilan. Aspiratsion sindrom. O'pka arteriyasi tromboemboliyasi". Sud-tibbiy tekshiruv vaqtida quyidagilar aniqlangan: Yurak, o'lchamlari  $10,0 \times 9,0 \times 7,0$  sm, vazni – 297,0 gramm, epikard silliq, yuzasi joylarda yupqa, sariq yog' bilan qoplangan, mayda qon quyilishlar bilan; kesmalarda yurakning o'ng bo'lmacha va qorinchasida iviq aralash suyuq qon bor, chap qorinchasida bo'sh; chap bo'lmacha bo'shlig'ida noto'g'ri sharsimon shaklli tugunli hosila aniqlandi, o'lchami  $5,5 \times 5,0 \times 3,8$  sm bo'lib, sathida sharsimon va yarim sharsimon shakklardagi mayda tugunlari bilan, diametrлari 1,5 sm.gacha; hosila yuzasi silliq, xira sarg'ish-kulrangdan qo'ng'ir-jigar ranggacha, yaltiroq, ushlab ko'rilmaga yarim yumshoq va zichlashgan konsistensiyali,



*Yurakdagi hosilaning tashqi ko'rinishi.*

asosida oyoqcha ko‘rinishida bo‘lmacha devori bilan oqimtir-kulrangli fibroz to‘qima hosil qilib birlashib ketgan, erkin ko‘chmaydi; hosila sathida kesma o‘tqazilganda, kesim yuzasi notejis, joylarda zich, joylarda yarim yumshoq va xira sarg‘ish-pushtirang zardobli ajralmali; kesim yuzalari periferiyasida xira sarg‘ish-jigarrangdan, markaziga tomon qo‘ng‘ir-qizg‘ish ranggacha, joylarda bo‘lakchali tuzilishi(bo‘lmacha bilan birga gistologik tekshiruvga olindi). Yurak, aorta va o‘pka arteriyalari qon tomir qopqoqchalari to‘g‘ri shakllangan, elastik. Yurak mushak devorlari qalinliklari – chap qorinchada 1,3 sm, o‘ng qorinchada 0,5 sm. Yurak mushaklari kesmalarda qizg‘ish-havorang, notejis qonli, bo‘shashgan, joylarda yengil tolalanadi. Qolgan ichki a’zolarning o‘lchamlari va tuzilishi deyarli o‘zgarishsiz.

Yurakning gistologik tekshiruvida quydigilar aniqlandi: epikard qavatida to‘laqonlik, yog‘ infiltratlari. Miokard qon tomirlarida venoz to‘laqonlik, ayrimlarida leykotsitoz, ba’zi mayda arteriyalarning spazmi, perivaskulyar qon quyilishlar va diapedezlar. Oraliq to‘qimada shish. Kardiomiotsitlarning o‘choqlarida gipertrofiya, distrofik o‘zgarishlar, yirik o‘choqlarda foramentatsiya, to‘lqinsimon kechishi. Yurak chap bo‘lmachasi tugunli hosilasidan – 3 ta kesmada yurak to‘qimasi bo‘lib, notejis to‘laqonlik, kardiomiotsitlarning gipertrofiyasi va o‘choqli fragmentatsiyasi; qolgan kesmalarda iviqsimon modda farqlanib, unda ko‘plab har xil shakl va kattalikda bo‘lgan giperxrom bo‘yalgan yirik hujayralar, mayda kollagen tolalar, ovalsimon shakldagi bo‘shliqlar va yirik sohalarda gemolizga uchragan eritrotsitlardan iborat qon quyilishlar farqlanmoqda.



*Yurakdagi hosila (miksoma)ning gistologik ko‘rinishi, bo‘yash gematoksilin-eozin bilan, x100, x400.*

**Xulosalar.** Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, yurak miksomasini (miksomatoz hosilalari) odatda juda kam uchraydigan yaxshi sifatli mezenximal o‘sma bo‘lib, yosh jihatdan adabiyotlarda ko‘rsatilgan o‘rtacha 30–60 yoshdagilardan ancha yoshroq bo‘lganlarda ham uchrash ehtimoli yo‘q emas. Shunday ekan, umumiy profildagi ekspertlar o‘z amaliyotlarida shunga o‘xhash hollarda e’tiborliroq bo‘lishlari, gistologik tekshiruvga obyektlarni maqsadli va to‘liqroq olishlari talab qilinadi.

## ADABIYOTLAR

1. Abdullaxodjaeva M.S. Patologik anatomiya. II-qism. – Toshkent, 2012.
2. Тодоров С.С., Сидоров Р.В., Дерибас В.Ю., Казьмин А.С., Кузнецов И.И., Насытко А.Д., Осипова А.В. К вопросу о гистогенезе миксомы сердца // Современные проблемы науки и образования. – 2019. – № 1.
3. Кнышов Г.В., Витовский Р.М., Захарова В.П. Опухоли сердца. Проблемы диагностики и хирургического лечения. – Киев, 2005. – С. 256.
4. Коваленко В.Н., Несукай Е.Г. Некоронарогенные болезни сердца: Практическое руководство (под ред. проф. Коваленко В.Н.). – Киев, 2001.
5. Оганов Р.Г. идр. Болезни сердца: руководство для врачей. – М.: «Литтерра», 2006.

## VERAPAMIL DORI VOSITASIDAN SUITSID HOLATLARI

**TURSUNOVA**  
*Barno Xayrullaevna,*  
**NURMATOVA**  
*Maloxat Ismatovna,*  
*Respublika sud-tibbiy ekspertiza*  
*ilmiy-amaliy markazi*  
*Toshkent viloyat filiali*

### ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda yurak kasalligini davolashda qo'llaniladigan Verapamil dori vositasidan noto'g'ri foydalanish suitsid oqibati-da zaharlanish va o'lim holatlari yuzasidan sud tibbiy tekshiruvlari amalga oshirilmoqda. Sud-tibbiy ekspertiza tekshiruviga keltirilgan ashyoviy dalillardan ajratib olingan ajratmalarda va ashyoviy dalil sifatida taqdim etilgan verapamil dori vositasini yupqa qatlam xromatografiq tahlil qilish usuli ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** Verapamil, yupqa qatlam xromatografiya, ekstraksya.

### АННОТАЦИЯ

Проведены судебно-медицинские экспертизы по случаям отравления и смерти в результате неправильного применения препарата “Верапамил”, который в настоящее время применяется для лечения болезней сердца. Разработан метод тонкослойного хроматографического анализа для определения верапамила в вещественных доказательствах, представляемых для судебно-медицинской экспертизы и предъявляемых в качестве вещественных доказательств.

**Ключевые слова:** верапамил, тонкослойная хроматография, экстракция.

### ANNOTATION

Forensic medical examinations were carried out in cases of poisoning and death as a result of the misuse of the drug Verapamil, which is currently used to treat heart disease. A thin-layer chromatographic analysis method has been developed for the determination of verapamil in material evidence submitted for forensic medical examination and presented as material evidence.

**Key words:** Verapamil, thin layer chromatography, extraction.

**Dolzarbli.** Verapamil gidroxlorid ( $\alpha$ -[3-([2-(3, 4-dimetoksi l-fenil)-etil] metilamino) 1-propil]-3, 4-dimetoksi-a-(1-metiletil)benzol asetonitril) L tip I sinf kalsiy kanallarining selektiv blokatori bo'lib, inson organizmiga antianginal va gipotenziv ta'sir ko'rsatadi [1, 254-258 b]. Tibbiyotda asosan yurak ishemik kasalliklari, jumladan stabil zo'riqish stenokardiyasi, nostabil stenokardiya, postinfarkt stenokardiya, aritmiyalar, paroksizmal yurak qorinchalari ustki taxikardiyasi, tez atrioventikulyar o'tkazuv-chanlik bilan bo'lgan yurak bo'lmachalarining qaltirashida qo'llaniladi [2, 135-142b; 3, 206 b]. Keyingi vaqtarda yurak kasalligini davolashda ishlataladigan dori vositalaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida zaharlanish holatlari yuz berayotganligi kuzatilmoqda. 2020-2021-yillarda Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Toshkent viloyati filiali sud-kimyo bo'limiga 2001-yilda tug'ilgan "S.V" ismli qiz murdasining ichki a'zolari (jigar, buyrak, oshqozon) bo'laklari hamda ashovyiy dalil sifatida murda yonidan topilgan verapamil dori vositasi yozilgan dori qutichasi, quticha ichida dorilardan ajratilgan 1 dona bo'sh plastinka va 3 dona verapamil dori vositasi taqdim etildi. Hozirgi kunda voyaga yetmagan

yoshlar orasida verapamil dori vositasidan suitsid holatlari yuzasidan sud-tibbiy ekspertiza tekshiruviga ashovyiy dalillar taqdim etilmoqda. Shularni inobatga olgan holda, sud-tibbiy ekspertlari oldiga verapamil dori vositasidan zaharlanish holatlarida ularni aniqlashning tezkor tahlil usullarini ishlab chiqish vazifa qilib qo'yildi.

**Ishning maqsadi:** Murda ichki a'zo bo'laklaridan ajratib olingan ajralmalardan Verapamil dori vositasini kimyo-toksikologik tahlil qilish usullarini ishlab chiqish.

**Usul va uslublar.** Tahlillar nordonlashtirilgan suv (A.A. Vasilyeva) usulida olib borildi [4, 48-54 b]. Buning uchun 200 ml quruq kolbaga 100 g biologik obyektlar (jigar, oshqozon) bo'laklari alohida olinib, yaxshilab maydalandi va ustidan 200 ml distillangan suv solindi, suyuqlik sharoiti 10% natriy ishqori yordamida universal indikator yordamida pH muhiti 8-10 ga qadar yetkazildi. So'ngra suvli qism doka filtr orgali toza quruq kolbaga o'tkazildi. Ajralma ajratgich voronkasiга o'tkazilib, 10 ml xloroform yordamida 3 marta ekstraksiya qilindi. Organik eritma qavatlari 5 g suvsiz natriy sulfat tuzi solingan filtr qog'ozidan chinni idishga o'tkazildi va xona haroratida porlatildi. Izlanishlarning keyingi bosqichida ashovyiy dalil sifatida taqdim etilgan verapamil tabletkasi dan 95% etil spirti yordamida 100 mkg/ml ishchi eritma tayyorlandi. Erituvchi sistema sifatida xloroform-aseton-25% ammiak (8:1:1) nisbatdagi



aralashmalaridan foydalanildi. Verapamil dori vositasini zaharlangan ichki a'zolardan ajratib olin-gan ajralmalarda aniqlash uchun bir necha sifat tahlillari amalga oshirildi:

1. Buning uchun quruq qoldiq 1,0 ml spirtda eritildi va plastinkaning start chizig'inining birinchi nuqtasiga shisha kapillyar naycha yordamida verapamilning ishchi eritmasidan 0,1 ml tomizildi, undan 1,5 sm oralig'ida biologik obyekt – jigardan ajratib olingan tekshiriluvchi eritmaning spirtli eritmasidan 0,1 ml tomizildi va xona haroratida quritildi. Plastinka organik erituvchilar xloroform-aseton-25% ammiakning (8:1:1) nisbatdagi aralashmasi bilan to'yintirilgan kameraga tushirildi. Tekshiriluvchi modda finish chizig'iga yetganda plastinka kameradan olinib, xona haroratida quritildi va ochuvchi reaktiv Mun'e bo'yicha tayyorlangan Dragnet ritmasi purkaldi. Bunda biologik obyekt va verapamilning guvoh ishchi eritmalaridan tomizilgan nuqtalarda Rf qiymatlari mos ravishda 0,72 ga teng bo'lган zarg'aldoq rangli dog' kuzatildi.

2. Olingan quruq qoldiq 1 ml 95 % etil spirtida erilib, probirkaga o'tkazildi va ustiga simob (II) xlorid eritmasidan 0,2 ml tomizilganda oq rangli cho'kma hosil bo'ldi. Keyingi bosqichda quruq qoldiq 1 ml 95% etil spirtida eritildi va chinni idishchaga o'tkazildi, ustiga 1-2 tomchi 0,1 n sulfat kislotasi va 1n kaliy permanganat eritmasidan 0,2 ml qo'shilganda oldin binafsha, so'ng yorqin qizil rangli mahsulot hosil bo'lganligi kuzatildi.

3. Quruq qoldiq 1 ml 95% etil spirtida eritildi va chinni idishchaga o'tkazildi. Ustiga 1-2 tomchi 0,1n sulfat kislotasi va 1n kaliy permanganat eritmasidan 0,2 ml qo'shilganda oldin binafsha, so'ng yorqin qizil rangli mahsulot hosil bo'lganligi kuzatildi.

Natija: Sud-tibbiy ekspertiza tekhsiruviga taqdim etilgan ichki a'zo bo'laklari va verapamil dori vositasidan olingan ajralmalar xromatografiyalanganda Rf qiymatlari mos ravishda 0,72 ga



teng bo'lган zarg'aldoq rangli dog'lar hosil qildi. Simob(II) xlorid eritmasi bilan oq rangli cho'kma hosil bo'ldi. Keyingi bosqichda quruq qoldiq 1 ml 95% etil spirtida eritildi va chinni idishchaga o'tkazildi, ustiga 1-2 tomchi 0,1 n sulfat kislotasi va 1n kaliy permanganat eritmasidan 0,2 ml qo'shilganda oldin binafsha, so'ng yorqin qizil rangli mahsulot hosil bo'ldi.

**Xulosa:** Sud-kimyo tekhsiruvi asosida Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Toshkent viloyati filialining sud-kimyo bo'limiga sud-tibbiy ekspertiza tekhsiruviga keltilirilgan 2001-yilda tug'ilgan "S.V" murdasining ichki a'zo bo'laklariidan olingan ajralmadan verapamil dori vositasi topildi va murdaning ushbu dori vositasidan o'tkir zaharlanganligi tasdiqlandi.

## ADABIYOTLAR

1. Машковский М.Д. Лекарственные средства. В 2-х т. – М.: Мед, 2002. –Т. 1-2.
2. Азизова С.С. Фармакология. Учебник. – Ташкент: Издательство медицинской литературы им. Абу Али ибн Сино, 2002. – Б. 135–142.
3. Токсикологическая химия: Учебник для вузов / Т.В. Плетенева, Э.М. Саломатин и др.; под ред. Т.В. Плетеневой. – М.: ГЕОТАР-Медиа, 2005. – С. 512.
4. Nurmatova M.I., Yuldashev Z.A. Imidokloprid va asetomiprid pestisidlarini yupqa qatlam xromatografik tahlil uslubini ishlab chiqish // Farmatsevtika jurnali, 2019. - №1. – S. 48-54.

# TOSHKENT VILOYATIDA 2017–2021-YILLAR DAVOMIDA OSILISH NATIJASIDAGI MEXANIK ASFISIYADAN VAFOT ETGANLARNING UMUMIY TAHLILI

XASANOVA  
*Dilshoda Yunusovna,*  
*Respublika sud-tibbiy ekspertiza*  
*ilmiy-amaliy markazi*  
*Toshkent viloyati filiali*  
*sud-gistologiya bo‘limi eksperti*

## ANNOTATSIYA

Suitsidal harakatlarni amalga oshirishda o‘zini osish natijasidagi mexanik asfiksiya salmoqli o‘rin egallaydi. Xususan, rivojlangan davlatlarda suitsiddan o‘lim sabablari orasida osilish o‘qotar quroldan so‘ng ikkinchi o‘rinda qayd etilgan.

**Kalit so‘zlar:** sud-tibbiy ekspertiza, aholi o‘limi, suitsid, mexanik asfiksiya, osilish.

## АННОТАЦИЯ

Механическая асфиксия в результате само повешения играет значительную роль в совершении суицидальных движений. В частности в развитых странах количество самоубийств среди самоубийц уступает только огнестрельному оружию.

**Ключевые слова:** судебно-медицинская экспертиза, смертность, самоубийство, механическая асфиксия, повешение.

## ANNOTATION

Mechanical asphyxia as a result of self-hanging plays a significant role in committing suicidal movements. In particular, in developed countries, the number of suicides among suicides is second only to firearms.

**Key words:** forensic medical examination, mortality, suicide, mechanical asphyxia, hanging.

**Tadqiqotning maqsadi:** Sud-tibbiy ekspertiza ma'lumotlariga asoslangan holda Toshkent viloyatida osilish yo'li bilan sodir etilgan tugallangan suitsid holatlarining o'ziga xos xususiyatlarni tahlil qilish.

**Tekshiruv materiallari va usullari:** Sud-tibbiy ekspertlik amaliyotida o'tkir gipoksik holatlar ko'p uchraydi, tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, mexanik asfiksiyadan vafot etganlar ekspertizasi zo'raki o'lim holatlarning 25–30 foizini tashkil qildi, shularning 60 – 65% osilishdan mexanik asfiksiyaga to'g'ri keladi [1; 4 b.]. Sud histologik tekshiruv osilishdan mexanik asfiksiyada teridagi strangulyatsion egatda kompressiya va hayotiylik belgilarini aniqlashda yordam beradi, bu sud tibbiy tashxisini tasdiqlashda amaliy ahamiyat kasb etadi [2; 24 b.]. Bo'yin yumshoq to'qimalarining histologik tekshiruvida qon quyilish topilishi aniqlangan shikastlanishlarning hayotiyligini tasdiqlashga imkon beradi[3; 53-55 b.]. Toshkent viloyatida osilish natijasidagi mexanik asfiksiya holatlari yuzasidan RSTEIAM Toshkent viloyati filiali sud

histologiya bo'limida o'tkazilgan sud histologik tekshiruv dalolatnomalari retrospektiv tahlil etildi. Bu jarayonda osilishdan vafot etganlarning yoshi, jinsi, strangulyatsion egatning xususiyatlari kabi masalalarga e'tibor berildi. Tekshiruv obyektlari – osilish yo'li bilan sodir etilgan tugallangan suitsid holatlari 2017–2021-yillar bo'yicha olindi.

**Tekshiruv natijalari:** Mazkur davrda Toshkent viloyati bo'yicha osilishdan yuzaga kelgan mexanik asfiksiya yuzasidan 2027 ta holat qayd etilib, bu ushbu davrdagi barcha mardalar sud-tibbiy ekspertizasining 14,1 foiziga to'g'ri keldi. Tekshirilgan erkaklarning ayollarga nisbati 3:1 atrofida bo'ldi, ya'ni 2027 holatning 1464 tasini (72,2%) erkaklar, 563 tasini (27,7%) ayollar tashkil etdi. Osilishdan mexanik asfiksiya bahor-yozoylarida ko'payishi kuzatilgan, eng ko'p osilish 2021-yilning iyun oyida, eng kam osilish 2020-yilning yanvar oyida sodir bo'ldi. O'rganilgan holatlarning yil oylari va jins bo'yicha taqsimlanishini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval), jadvalda ko'k rangli raqam bilan osilishdan vafot etganlarning umumiyligi soni, yashil rangli raqam bilan osilishdan vafot etgan erkaklar soni, qizil rangli raqam bilan osilishdan vafot etgan ayollar soni ko'rsatilgan.


#### 1-jadval:

	2017	2018	2019	2020	2021	Jami
Yanvar	33 21/12	37 24/13	30 21/9	15 12/3	33 22/11	148 100/48
Fevral	23 16/7	34 23/11	21 12/9	22 18/4	32 25/7	132 94/38
Mart	46 33/13	35 25/10	43 34/9	34 19/15	33 24/9	191 135/56
Aprel	29 24/5	46 33/13	40 30/10	36 24/12	43 32/11	194 143/51
May	30 19/11	34 27/7	36 21/15	32 21/11	46 33/13	178 121/57
Iyun	39 30/9	37 25/12	34 28/6	42 27/15	48 38/10	200 148/52
Iyul	29 22/7	41 32/9	39 26/13	42 29/13	45 35/10	196 144/52

Avgust	40 30/10	40 31/9	36 23/13	37 28/9	36 29/7	189 141/48
Sentabr	37 24/13	39 28/11	30 24/6	31 25/6	36 22/14	173 123/50
Oktabr	34 27/7	27 22/5	29 20/9	41 26/15	245 20/4	155 115/40
Noyabr	26 16/10	37 33/4	30 24/6	27 18/9	28 19/9	148 110/38
Dekabr	27 16/11	18 15/3	23 18/5	29 21/8	26 20/6	123 90/33
Jami	393 278/115	425 318/107	391 281/110	388 268/120	430 322/108	2027 1464/563


Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining yosh tavsifiga asoslanib berilgan yosh intervallari bo‘yicha quyidagi guruhlarga taqsimlandi: 18 yoshgacha bo‘lganlar – 220 ta (10,8%), 18–44 yoshdagilar – 1226 ta (60,4%), 45–60 yoshdagilar – 432 ta (21,3%), 60–75 yoshdagilar – 130 ta (6,4%), 75–90 yoshdagilar – 19 ta (0,8%), 90 yoshdan oshganlar yo‘q. Strangulyatsion asfiksiyadan vafot etganlarning eng ko‘pi, 2027 tadan 1226 tasi (60,4%) 18–44 yoshdagilar guruhida, ya’ni mehnatga layoqatli shaxslar orasida kuzatildi. Ikkinchchi o‘rinda 45–60 yoshdagi, ya’ni pensiya va pensiya oldi yoshdagilar turadi, 2027 tadan 432 ta (21,3%). Uchinchi o‘rinda 18 yoshgacha bo‘lganlar, ya’ni voyaga yetmaganlar bo‘lib, bu guruhda vafot etganlar 2027 tadan 220 ta (10,8%) ni tashkil qiladi.

Osilish natijasidagi mexanik asfiksiya holatlari soni



Yosh guruhlari jinsi bo‘yicha tahlil etildi: 18 yoshgacha bo‘lganlarda – 112 erkak (50,9%) va 108 ayol (49,1%), 18–44 yoshdagilarda – 854 erkak (69,6%) va 372 ayol (30,3%), 44–60 yoshdagilarda – 375 erkak (86,8%) va 57 ayol (13,1%), 60–75 yoshdagilarda – 108 erkak (83,0%) va 22 ayol (16,9%), 75–90 yoshdagilarda – 15 erkak (78,9%) va 4 ayol (21,09%). Suiqasdning eng yuqori ko‘rsatkichi 18–44 yoshdagisi erkaklar orasida qayd etildi – 854 ta, bu guruhdagi ayollarining soni – 372 nafar.

### Osilish natijasidagi mexanik asfiksiyadan vafot etganlarning jinsi bo'yicha tahlili



Gistologik tekshiruvlar natijalariga ko'ra pergamentlashgan egat 58,7 % holatda, yumshoq strangulyatsion egat belgilari esa 8,6% holatda aniqlangan.

Osilish holatlarida gemodinamikaning umum asfiktik o'zgarishlaridan tashqari bosh miya po'stlog'i va o'zagida shish yaqqol namoyon bo'ladi, ma'lumki, miyaning o'zak boshqaruvi mexanik asfiksiyadan o'lim neyrofiziologiyasining asosi hisoblanadi. [4; 83-89 b.] Bundan tashqari ichki a'zolarning to'laqonligi osilish holatlarida mexanik asfiksiyaning boshqa turlariga nisbatan kuchliroq bo'ladi [5; 157-158 b.]. Barcha amaliy holatlarda ichki a'zolarda gemodinamikaning o'tkir buzilishi, qon tomirlar devorining o'tkazuvchanligi ortishi, o'tkir distrofik buzilishlar kuzatilgan.

**Xulosalar:** O'z joniga qasd qilishning oldini olishda ma'naviy, ruhiy tarbiya chora-tadbirlarini o'tkazish, suitsidal moyilligi bor shaxslarga alohida e'tibor qaratish katta yordam beradi. Suitsidal holatlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda sud-tibbiy ekspertiza ma'lumotlaridan foydalanish muhim omillardan biri hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR

1. Витер В.И., Вавилов А.Ю., Кунгуррова В.В., Бабушкина К.А. Механическая асфиксия: судебно-медицинская диагностика и оценка. Учебное пособие. – Ижевск, 2016. – С.4–17.
2. Крат А.И., Лисакович М.В. Труды судебно-медицинских экспертов Украины. – Киев, 1962. – С. 52–56.
3. Miiller E., Simon A., Weidhase R. Kriminalistik und forensische Wissenschaften. – 1981. Bd 44. – S. 53-55.
4. Молин Ю.А. Судебно-медицинская экспертиза повешения. НПО "Мир и семя-95". – Санкт-Петербург, 1996. – С. 83–89.
5. Митяева И.А., Науменко В.Г. Гистологический и ситологический методы исследования в судебной медицине. "Медицина". – Москва, 1980. – С. 157–158.

# ВОЗМОЖНОСТИ МЕТОДА ВНУТРЕННЕГО СТАНДАРТА В КОЛИЧЕСТВЕННОМ ХРОМАТО-МАСС- СПЕКТРАЛЬНОМ АНАЛИЗЕ $\alpha$ -ПИРРОЛИДИНОВА- ЛЕРОФЕНОНА

**АХМЕДОВА**

*Ракия Каримовна,*

*Республиканский Центр судебной  
экспертизы имени Х.Сулаймановой  
при Министерстве юстиции*

*Республики Узбекистан,  
заведующая лабораторией*

*криминалистических  
исследований материалов, веществ  
и изделий из них*

**ПАК**

*Эллеонора Вячеславовна,*

*Республиканский Центр судебной  
экспертизы имени Х.Сулаймановой  
при Министерстве юстиции*

*Республики Узбекистан,  
главный эксперт лаборатории  
криминалистических  
исследований материалов,  
веществ и изделий из них*

## АННОТАЦИЯ

Статья посвящена изучению возможностей применения метода внутреннего стандарта для количественного анализа  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона ( $\alpha$ -PVP) в составе различных материалов, представляемых на криминалистическую экспертизу наркотических средств. Исследование проведено на искусственно созданных модельных смесях с применением н-эйкосана в качестве внутреннего стандарта.

Экспериментально установлена прямолинейная прямопропорциональная зависимость калибровочного графика между соотношением откликов сигналов масс-детектора, концентрациями  $\alpha$ -PVP и эйкосана. Пригодность методики апробирована в экспертном исследовании модельных смесей с «неизвестным» содержанием  $\alpha$ -PVP и некоторых вещественных доказательств в виде кристаллических порошков («закладок»).

**Ключевые слова:** новые психоактивные вещества, криминалистическая экспертиза наркотических средств,  $\alpha$ -пирролидиновалероферон,  $\alpha$ -PVP, метод внутреннего стандарта, ГХ-МС.

## ANNOTATION

The article is devoted to the study of the possibilities of using the internal standard method for the quantitative analysis of  $\alpha$ -pyrrolidinovalerophenone ( $\alpha$ -PVP) as part of various materials submitted for forensic examination of narcotic drugs. The study was carried out on artificially created model mixtures using n-eicosan as an internal standard.

A straight-line, directly proportional dependence of the calibration graph between the ratio of the mass detector signal responses and the concentrations of  $\alpha$ -PVP and eicosan has been experimentally established. The suitability of the technique has been tested in an expert study of model mixtures with an “unknown” content of  $\alpha$ -PVP and some physical evidence in the form of crystalline powders (“bookmarks”).

**Key words:** new psychoactive substances, forensic examination of narcotic drugs,  $\alpha$ -pyrrolidinovalerophenone,  $\alpha$ -PVP, internal standard method, GC-MS

## ANNOTATSIYA

Maqolada giyohvand moddalarni sud ekspertizasi uchun taqdim etilgan turli xil materiallar tarkibida a-pirrolidinovalerofenon (a-PVP) miqdorini tahlil qilish uchun ichki standart usulini qo'llash imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot ichki standart sifatida n-eikosan yordamida sun'iy ravishda yaratilgan model aralashmalarida o'tkazildi.

O'Ichov jadvalining mass-detektori signallarining javob nisbati va a-PVP va eikosan kontsentratsiyasi o'rtasidagi to'g'ri chiziqli to'g'ridan-to'g'ri proporsional bog'liqligi eksperimental ravishda o'rnatildi. Texnikaning yaroqliligi "noma'lum" a-PVP tarkibiga ega model aralashmalarini va kristall kukunlari ("xatcho'plar") ko'rinishidagi ba'zi ashyoviy dalillarni ekspert tadqiqotida sinovdan o'tkazildi.

**Kalit so'zlar:** yangi psixoaktiv moddalar, giyohvand vositalarning sud ekspertizasi, a-pirrolidinovalerofenon, a-PVP, ichki standart usuli, GC-MS

По отчетным данным Управления Организации Объединенных Наций по наркотикам и преступности (УНП ООН) на протяжении последних 10–15 лет распространение новых психоактивных веществ (НПВ) стало особенно заметным в странах Восточной Европы, Средней Азии, Казахстана и Закавказья. Если в 2005–2010 годах количество НПВ, изъятых в этих регионах, составило 116 кг, то в 2015–2020 годах показатель увеличился до 11 тонн. Из них основная часть приходится на синтетические катиноны (мефедрон и а-PVP), которые в некоторых регионах стали наиболее востребованной заменой традиционным наркотикам (опиум, героин).

Высокие темпы роста и распространения НПВ специалисты связывают с их доступностью, поскольку они реализуются и приобретаются посредством многочисленных нелегальных торговых площадок в сети Интернет, невысокой стоимостью по сравнению с классическими наркотиками (кокаин, героин), а также выраженным аддиктивным потенциалом (привыканье). Растущий потребительский спрос на фоне принимаемых мировым сообществом законодательных ограничений служит стимулирующей причиной постоянного увеличения количества видов НПВ (особенно дизайнерских катинонов) на нелегальном рынке.

В частности ужесточение правового контроля за злоупотребление катиноном и его некоторыми синтетическими производными (MDPV) в США повлекло за собой внезапное появление в незаконном обороте наркотиков нового вещества а-пирролидинопентиофенона. За короткий период времени а-PVP под разными мимикриирующими наименованиями ("flakka", "кристаллы", "ванильное небо", "скорость", "огненный шар", "plant food", "e Blast", "Exotic Super Strong") быстро распространился среди наркопотребителей в неблагополучных районах проживания США и стран Европы в качестве дешевой и эффективной альтернативы МДМА ("экстази"), кокаина и метамфетамина.



Способы употребления  $\alpha$ -PVP отличаются многообразием — интраназально, перорально, ректально, интравагинально, сублингвально, парентерально, инъекционно (внутримышечно/внутривенно), в форме таблеток, порошка, капсул, растворов для электронных сигарет и опрыскивания растительных курительных смесей, что определяется поиском потребителями наиболее эффективного варианта с продолжительным эффектом.

Отмечен факт вовлечения в злоупотребление  $\alpha$ -PVP “случайных потребителей” среди молодежи и школьников, особенно на так называемых “техно-пати” вочных клубах. Высокая наркотическая активность, токсичность  $\alpha$ -PVP в сочетании с другими синтетическими

веществами (метамфетамин, мефедрон, бензодиазепины) и широкой вариабельностью разовых доз (от 10 мг до 400 мг) часто сопровождается сильным отравляющим эффектом и нередко смертельным исходом, что привлекло внимание исследователей разных стран. Задокументированы многочисленные случаи реализации  $\alpha$ -PVP под видом кокаина, метамфетамина, героина.

По классификационным признакам  $\alpha$ -пирролидиновалерон относится к группе синтетических катинонов пировалеронового ряда. Физико-химические характеристики  $\alpha$ -PVP в настоящее время детально изучены и частично представлены в таблице 1.

Таблица 1.

Химическая формула	$C_{15}H_{21}NO$
Молекулярный вес	231,33
Химическая структура	
Наименование ИЮПАК	1-phenyl-2-(pyrrolidin-1-yl)pentan-1-one
Синонимы	$\alpha$ -PVP alpfa-PVP $\alpha$ -пирролидинопентиофенон Flakka beta-Ketone-prolintane Prolintanone Gravel
Внешний вид	Кристаллическое вещество белого или светло-розового цвета
Способ синтеза <sup>6</sup>	

Стремительное распространение  $\alpha$ -PVP, участившиеся случаи интоксикации в среде наркотпотребителей способствовало разработке значительного количества аналитических методов обнаружения и количественного определения вещества и его метаболитов в судебно-медицинской практике при исследовании объектов биологического происхождения (моча, кровь, слюна, волосы и др.). Имеется также ряд публикаций, посвященных способам синтеза  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона, его термическому разложению в экспериментальном процессе, реакциям метаболизма в живых организмах, клиническим исследованиям в целях изучения наркологической активности, токсичности.

Исследователями получены аналитические характеристики  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона для методов ИК-спектрометрии, ядерно-магнитного резонанса (ЯМР), газовой хромато-масс-спектрометрии (ГХ-МС), высокоэффективной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ). Полученные данные широко используются специалистами разных отраслей для идентификации исследуемого вещества в различных по природе объектах, преимущественно биологического происхождения.

В связи с относительно недавним появлением  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона в поле зрения криминалистов-материаловедов в открытом доступе имеется значительно меньшее количество научных исследований, посвященных его поведению в объектах криминалистического происхождения, предоставляемых на экспертизу наркотических средств.

Этот факт существенно затрудняет решение диагностических и нередко идентификационных задач при исследовании сложных многокомпонентных объектов, представляющих смесь  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона с другими наркотиками, посторонними веществами и наполнителями (табак, высушенные травы, жидкости и др.). Между тем разложение  $\alpha$ -PVP и его полное исчезновение в насыщении через 1,5-2 месяца хранения отмечено авторами, изучившими скорость деструкции  $\alpha$ -PVP и невозможность его обнаружения в объектах, содержащих насыщай, поступающих на дополнительную и повторную экспертизу спустя длительный период времени.

Таким образом, актуализация существующих и разработка новых методик качественного и количественного анализа НПВ, в том числе  $\alpha$ -PVP, в криминалистических объектах по-прежнему является востребованной и требующей внимания экспертов-криминалистов, чтобы минимизировать и избежать экспертных ошибок, провести полное, объективное, всестороннее исследование предоставляемых вещественных доказательств и сформулировать научно-обоснованные выводы.

### Цель работы

Изучение возможности применения метода внутреннего стандарта в анализе  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона методом газовой хромато-масс-спектрометрии для определения его количественного содержания в объектах криминалистического происхождения.

### Метод внутреннего стандарта

В газожидкостной хроматографии метод внутреннего стандарта нередко используется для определения количественного содержания исследуемого компонента в целях минимизации погрешности результатов, вызванных случайными изменениями основных параметров хроматографического анализа (скорости газа-носителя, температуры инжектора, печи, условия работы детектора). Корреляция связана с тем, что возможные отклонения от заданных условий анализа оказывают равнозначное влияние на характеристики пиков хроматографируемых объектов — исследуемого аналита и стандартного образца (внутренний стандарт Internal Standart), находящихся в одной смеси.

При этом исключается негативное влияние на результат некоторых критически важных условий анализа: строгое дозирование вводимого объема пробы и постоянство переменных параметров хроматографической системы. Основная трудность использования метода внутреннего стандарта заключается в необходимости выбора вещества в качестве Internal Standart и его оптимальной концентрации. Требования, предъявляемые к веществу, которое может использоваться как Internal Standart, в сравнительной форме по отношению к исследуемому веществу (аналиту), представлены в таблице 2.

Таблица 2.

№	Параметры вещества Internal Standart	Требование
1	В составе исследуемого объекта (вещественное доказательство) и используемых химических реактивах	Полное отсутствие
2	Отношение к анализируемому раствору (объекту)	Стабильность, инертность, полная растворимость и смешение с анализируемым раствором
3	Химическая структура (молекулярная масса)	Сходство с исследуемым аналитом
4	Условия хроматографирования и детектирования	Сходство с исследуемым аналитом
5	Параметры удерживания (время/индекс удерживания, RT/RI)	Различие с основным аналитом и другими примесными компонентами (при их наличии)
6	Визуализация на хроматограмме	Полное разделение со всеми веществами, входящими в состав исследуемого объекта
7	Концентрация	Близость с исследуемым аналитом: отношение откликов детектора $D_{\text{аналита}}/D_{\text{внутр.стандarta}}$ гипотетически должно быть равным 1.

При практическом выполнении в анализируемую смесь вводят определенный объем/количество стандартного вещества Internal Standart. Аналогичным образом готовят серию растворов с пропорциональным увеличением содержания основного исследуемого компонента (аналита) и раствора Internal Standart. В процессе калибровки постоянное количество Internal Standart добавляют к определенному объему калибровочных растворов с известной концентрацией аналита. Полученный при этом калибровочный график отражает зависимость между концентрацией основного аналита и отношением высот/площадей пиков аналита и Internal Standart.

Исходя из методических рекомендаций ООН по исследованию синтетических катинонов в криминалистических объектах, в качестве внутреннего стандарта в ГХ-МС анализе вышеуказанным требованиям отвечает эйкозан или другой аналогичный н-алкан.

В настоящих экспериментальных исследованиях использовали раствор эйкозана с концентрацией 0,2 мг/мл (стандарт для ГХ Supelco 99,8%) в метаноле для количественного определения  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона в модельных смесях, имитирующих по компонентному составу некоторые виды предоставляемых на экспертизу вещественных доказательств (в частности кристаллические порошки, расфасованные в полиэтиленовые пакетики, в смеси с незначительными количествами красителей или побочными продуктами органического синтеза, а также высококонцентрированные растворы в смесях с удобрениями и иными посторонними маскирующими веществами).

### Условия анализа

Исследования проводили на хромато-масс-спектрометре «SHIMADZU GCMS-QP2020» в режиме автоматического введения пробы (автосамплера) с применением капиллярной колонки размером 30 м x 0,25 мм с 5% фенилметилсилоксана при следующих условия анализа: температура MS источника — 230°C при программировании температуры печи от 150 до 300°C, газноситель — водород (гелий), скорость потока — 2,1 мл/мин., величина пробы — 1 мкл, деление потока — 1:50. В качестве подтверждающих результаты проведены аналогичные исследования на хромато-масс-спектрометре «Agilent Technology» GC/MS AT 5973N в режиме ручного и автоматического внесения пробы в инжектор.

Для приготовления модельных смесей использовали сертифицированный стандартный образец  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона, полученный Policy Analysis and Public Affairs United Nations Office on Drugs and Crime (Vienna, Austria). Анализ проводился в трех повторностях для концентраций  $\alpha$ -PVP в интервале от 0,1 мг/мл до 1,0 мг/мл.

Идентификацию GC-MS пиков проводили методом сопоставления масс-спектров пиков с имеющимися в базе данных библиотеками NISTFULL, Forensic Toxicologies, DD2019, Wiley275.L, SWDRUG.3.9L, CAYMANSPECTRA.L, PMW\_TOX3.L.

Сбор и обработку данных, построение калибровочного графика, математические расчеты количественного содержания  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона в модельных смесях и растворах «неизвестного состава, подозреваемых на наличие  $\alpha$ -PVP», проводилось в автоматическом режиме с использованием программного обеспечения вышеуказанных хромато-масс-спектрометров (MSD ChemStation, LABSolutein).

### Результаты и обсуждение

Экспериментально полученные данные исследования модельных смесей  $\alpha$ -PVP и эйкозана по основным и фрагментарным ионам масс-спектров исследуемых соединений приведены в таблице 3.

**Таблица 3.**


№	Наименование	$\alpha$ -PVP	Эйкозан
1	Время удерживания (RT), мин	12,6	14,9
2	Время идентификации (IT), мин	12,54	14,86
3	Основные фрагментарные ионы m/z	230, 126, 127	282, 57, 71



В ходе исследований проанализированы модельные смеси, содержащие  $\alpha$ -PVP без введения эйкозана и аналогичные растворы основного компонента с введением эйкозана в качестве Internal Standart.

В отсутствие внутреннего стандарта наблюдали незначительное смещение пиков  $\alpha$ -PVP в зависимости от концентрации и наличия посторонних компонентов (производные фталатов и иных пластификаторов, для их введения использовали смывы с различных неиспользованных полиэтиленовых пленок и резиновых трубок, часто используемых в качестве упаковки для дозирования «закладок» при реализации  $\alpha$ -PVP). Некоторые из полученных данных представлены в таблице 4.

**Таблица 4.**

### Хроматограмма и калибровочный график модельных смесей растворов $\alpha$ -PVP без эйкозана






RT α-PVP = 12,96 мин



Анализ хроматограмм в модельных смесях растворов  $\alpha$ -PVP с введением Internal Standart показывает, что калибровочный график отличается более высокими графическими и математическими характеристиками. Некоторые из представленных данных представлены в таблице 5.

**Таблица 5.**

Хроматограмма и калибровочный график модельных смесей растворов  $\alpha$ -PVP с введением эйкозана (Internal Standart)



RT α-PVP = 12,96 мин

RT  $\alpha$ -PVP = 12,96 минRT  $\alpha$ -PVP = 12,96 мин

В результате проведенных исследований установлено, что выбранный в качестве внутреннего стандарта эйкозан концентрацией 0,2мг/мл отвечает установленным для Internal Standart требованиям, поскольку инертен в условиях хроматографирования, полностью отделяется от основного определяемого вещества ( $\alpha$ -PVP), имеет стабильный отклик, сохраняемый для всех модельных смесей с возрастающей концентрацией  $\alpha$ -PVP до 1,0 мг/мл.

Калибровочный график модельных смесей растворов  $\alpha$ -PVP и эйкозана при вышеуказанных условиях газо-хромато-масс-спектрального анализа имеет прямолинейный характер, что характеризует выполнение требуемого условия отношения градуировочного коэффициента к площадям пиков для аналита и Internal Standart, близкого к единице.

Пригодность предлагаемой методики количественного определения  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона в модельных смесях методом внутреннего стандарта с использованием эйкозана в качестве Internal Standart, опробирована на растворах “неизвестного состава, подозреваемых на наличие  $\alpha$ -PVP” и в экспертных исследованиях вещественных доказательств (порошкообразных веществ, расфасованных на дозы – “закладки”).

## Выводы

В результате проведенных экспериментальных исследований на примере модельных смесей известного состава рассмотрены и подтверждены возможности количественного определения  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона методом внутреннего стандарта с использовани-

ем эйкозана в качестве Internal Standart. Таким образом, положены основы для дальнейшего изучения данного метода в криминалистическом исследовании объектов – вещественных доказательств, подозреваемых на наличие синтетических катинонов, а именно,  $\alpha$ -пирролидиновалерофенона.



**SHIMADZU GCMS-QP2020**



**ANNOTATSIYA**

Maqolada sud-ekspertlik faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning muammoli masalalari ko'rib chiqilgan. Ekspertlik amaliyotida va sud ekspertizasi asoslarini o'qitishda yangi yondashuvlar yordamida ushbu sohalarni takomillashtirish yo'llari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, ekspert texnologiyasi, innovatsion texnologiyalar, metod, metodika, axborot ta'minoti, sud faoliyati.

**АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются проблемные вопросы использования инновационных технологий в судебно-экспертной деятельности. Разработаны рекомендации по совершенствованию данной области с помощью новых подходов к практике проведения экспертиз и преподавания основ судебной экспертизы.

**Ключевые слова:** технология, экспертные технологии, инновационные технологии, метод, методика, информационное обеспечение, судебно-экспертная деятельность.

**ANNOTATION**

The article discusses the problematic issues of the use of innovative technologies in forensic activities. Recommendations have been developed to improve this area, using new approaches to the practice of conducting examinations and teaching the basics of forensic examination.

**Key words:** technology, expert technologies, innovative technologies, method, methodology, information support, forensic expert activity.

Fan va texnikaning zamonaviy yutuqlari sud ekspertizasi institutida mustahkam o‘rin egallaydi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish tufayli nafaqat sud ekspertizasining turli yo‘nalishlari, balki umuman ekspert faoliyati ham takomillashmoqda.

Ma’lumki, texnologiya deganda ma’lum bir kasbiy faoliyat jarayonida uning natijalariga erishish uchun har qanday obyektlar bilan ishlash usullari to‘plami tushuniladi. “Texnologiya (yunoncha techne – mahorat, san’at + logos – ta’limot) – 1) ishlab chiqarishning biror sohasida xomashyo, material, yarimfabrikat va shu kabilarga ishlov berish yoki qayta ishlash, ularning holati, xossalari va shaklini o‘zgartirishda qo‘llaniladigan usullar, metodlar majmuyi; 2) xomashyo va materiallarga tegishli ishlab chiqarish qurollari yordamida ishlov berish usul va yo‘llari haqidagi fan” [1, B.81].

Demak, ekspert texnologiyasi – bu maxsus bilimlarga asoslangan muayyan ketma-ketlikdagi operatsiyalar, harakatlар majmuyi deyish mumkin. Ushbu operatsiyalar obyektlarning ashyoviy dalillarini tekshirishda – ekspertga berilgan vazifalarini hal qilishda amalga oshiriladi.

Sud ekspertizasida innovatsion texnologiyalar – bu qo‘ylgan vazifalarni yuqori sifatli darajada bajarishga yordam beradigan yangi usul va vositalardan foydalanishdir.

Ma’lumki, sud ekspertizasi yangi texnik vositalar, usullar va tadqiqot uslublarining paydo bo‘lishi tufayli doimiy ravishda rivojlanib boradi. Ushbu yondashuv ko‘plab sabablarga bog‘liq, jumladan, bu jinoyatchilikning o‘sishi, jinoyatni sodir etishning yangi usullari, yangi tadqiqot obyektlarining paydo bo‘lishi hamdir. Jinoyat sodir etishning yangi usullari qanchalik murakkab bo‘lsa, ekspertiza tadqiqotlari shunchalik murakkablashib boradi.

Shuning uchun ekspertiza tadqiqotlari uslublariga (metod) qo‘llaniladigan asosiy talablarни – ishonchli natijalarni olish nuqtayi nazardin metodning ilmiy asoslanganligi; metodning qonuniyligi va etikasi, ekspert uchun xavfsizlikni va boshqalarni o‘z ichiga olgan metodni qo‘llash mumkinligi va h.k. – bilish va yangi uslublarni

ishlab chiqishda bu talablarga qat’iy rioya qilish lozim.

Shu sababli, sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirish maqsadida amaliy sud-ekspertlik faoliyatiga yangi usul va uslublarini joriy etish jarayonlarining tahlili ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Sud-ekspertlik faoliyatining axborot ta’moti muammolarini o‘rganishda, bu faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’kidlash mumkinki, sud-ekspertlik faoliyati uning nazariy, uslubiy va tashkiliy asoslarini, yangi usullar, uslublar va texnik vositalarni, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish orqali doimiy ravishda takomillashtib borishi kerak.

Sud-ekspertlik faoliyatining axborot ta’moti sud ekspertlik vazifalarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan, tizimlashtirilgan ilmiy-texnik ma’lumotlarni tanlash, tayyorlash va berishning ilmiy tashkil etilgan doimiy jarayoni bo‘lishi kerak.

Sud-ekspertlik amaliyotini takomillashtirish yo‘nalishlaridan biri ekspertizalarni o‘tkazishni avtomatlashtirishdir. Bunday avtomatlashtirish ekspertizalarni o‘tkazish davomida sud ekspertini axborot olish va ularni qayta ishlash, berish va undan foydalanish jarayonlaridagi bevosita ishtirot etishdan qisman yoki to‘liq ozod qiladigan texnik vositalar, matematik usullar va faoliyat dasturlaridan foydalanishdan iborat.

Shu sababli, sud-ekspertlik faoliyatiga kerakli ma’lumotlarni qidirish, yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, tahlil qilish, berish va uzatish samaradorligini oshirishga yordam beradigan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini joriy etish va bu tizimning samarali faoliyat yuritishini ta’minalashga ehtiyoj yuzaga keladi. Axborot tizimlarining faoliyati texnik vositalardan foydalanish orqali sud-ekspertlik faoliyatini axborot bilan ta’minalash samaradorligini oshirishga kam kuch, pul va vaqt sarflab, kutilgan natjalarga erishishga yordam beradi.

Sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirish deganda ekspert xatolarining oldini olish ham tushuniladi. Shu munosabat bilan, turli xil xatolarni aniqlash, shu jumladan sud ekspertizasini o‘tkazishda yangi uslublardan foydalanish yoki ekspertiza vazifalarini bajarishda noto‘g‘ri natijalar olinmasligi uchun yolg‘on qo‘llamaslik bo‘yicha sud ekspertizasining turli sohalarining amaliyotini ma’lum davriy ravishda umumlashtirish va tahlil qilish lozim bo‘ladi. Bunda kompleks eks-

pertizalar, tadqiqotlarda olingan natijalarni baho-lash va ularni rasmiylashtirishning to‘g‘riligiga alohida e’tibor qaratilishi kerak.

Innovatsion texnologiyalar ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ular orasida axborot dasturlari muhim o‘rin tutadi. Bu kabi yondashuv murakkab sud ekspertizalari, yangi avlod va tur-dagi sud ekspertizalarining ahamiyatini yanada oshiradi, ularni o‘tkazish uchun esa yuqori mala-kali mutaxassislar va tadqiqotchilar talab qilinadi. Shu boisdan, sud ekspertizalarining ilmiy saviyasini oshirish, ilmiy salohiyatlari xodimlar (fan nomzodlari va doktorlari) va mutaxassislar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘ziga xos maxsus faoliyat hisoblangan sud ekspertizasining mohiyatidan kelib chiqib, sud ekspertlarini o‘qitish va tayyorlash o‘ziga xos muhim jihatlarga ega bo‘ladi.

Ekspertiza mutaxassisliklari bo‘yicha o‘qitish samaradorligi o‘qituvchining (ustoz) kasbiy mahorati va malakalariga bog‘liq. O‘qituvchi (tajribali sud eksperti) nafaqat yangi ekspert usullarini, yangi o‘quv va ilmiy adabiyotlarni, sud-ekspertlik faoliyati bilan bog‘liq barcha yo‘nalishlarni o‘zida jamlagan zamonaviy pro-tsessual qonunchilikni bilishi, balki doimiy ravishda amaliyotchilar – sud ekspertlari va ularni tayinlaydigan tergovchilar (surishtiruvchi, sud, prokuror) bilan o‘zaro hamkorlik qilishi kerak.

Sud ekspertlariga o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazidigan o‘qituvchi (mutaxassis)ning kasbiy bilim va malakalarini oshirish faoliyati bir necha

yo‘nalishlardan iborat bo‘ladi.

Birinchisi ekspertiza muassasalarida o‘qituv-chilarning stajirovkasi bo‘lib, u yerda yangi uslublar, yangi texnik-kriminalistik vositalar bazasi bilan tanishish va aniq ekspertizalarni o‘tkazishni o‘rganish mumkin. Bu jarayonda sud ekspertlari bilan amalda qo‘llaniladigan maxsus atamalar (terminologiya), ekspert yakuniy xulosalarining shakli, ularning asoslanganligi va ilmiyligi, ushbu xulosalarga ilova qilingan fotosuratlarning ishonchiligi hamda aniq ekspertizalarni o‘tkazishda yuzaga keladigan boshqa ko‘plab ijobjiy va salbiy jihatlarni muhokama qilish foydalidir.

Bu kabi yondashuv o‘quv jarayonida o‘qituvchi uchun, sud ekspertizalarini o‘tkazishda sud ekspertlari uchun yagona taktikani ishlab chiqishga imkon beradi. Albatta, bu kabi norasmiy mulo-qot ijobjiy samara beradi va har ikki tomoniga ham foya keltiradi. Shuning uchun o‘qituvchi amaliy ekspertlik faoliyati bilan chuqur va mazmunli tanishgan bo‘lishi kerak.

Ta’lim – bu sud ekspertlarini tayyorlaydigan o‘qituvchi (mutaxassis) tinglovchi (sud ekspertlari) bilimlarni o‘zlashtirishi, ko‘nikma va malakalarini egallash jarayonlarini boshqarish bo‘lgani sababli, sud ekspertlarini o‘qitishga yana bir yondashuv sifatida, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, turli didaktik vositalar va kriminalistik texnikalar yordamida tayyor bilimlarni berish maydonga chiqadi.

Shu bois, o‘qitishni, ayniqsa, yangi adabiyotlarni chuqur o‘rganish jarayonlarini samarali



boshqarish uchun, bu kabi adabiyotlarni o‘qishga tavsija etish bilan birga, har bir adabiyot (manba) bo‘yicha kengroq (kengaytirilgan) annotatsiyalar tayyorlash maqsadga muvofiq. Bu sud ekspertlariiga (tinglovchilarga) adabiy manbalar mazmunini to‘g‘ri idrok etish imkonini beradi.

Sud ekspertlarini o‘qitishda pedagoglarning (sud eksperti) mahoratini yanada oshirishga hissa qo‘sadigan yana bir yo‘nalishni ta’kidlash mumkin – bu kriminalistika va sud ekspertizasi fanlari bo‘yicha ma’ruzachi-mutaxassislarning o‘zaro hamkorligidir.

Sud ekspertizasi fani mustaqil o‘quv fani sifatida Respublikamizning sanoqli oliv ta’lim muassasalarida o‘qitilishi sababli, ushbu fan hozirda asosan “Kriminalistika” fanining “Kriminalistik texnika” bo‘limida o‘rganilmoqda.

“Kriminalistik texnika” bo‘limida o‘qitiladigan mavzular “Sud ekspertiza” fani doirasida anchagina chuqurroq o‘rganiladi. Masalan, hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish va uni tergovchi tomonidan o‘tkazish taktikasi hamda ushbu tergov harakatida mutaxassisning (sud eksperti) ishtiroki masalalari. Ushbu protsessual subjektlarning o‘zaro hamkorligi bir-birlarini to‘liq tushunish asosida amalga oshirilishi, ularning harakatlari aniq kelishilgan bo‘lishi kerak.

O‘qituvchilar ma’lum bir o‘quv materialini tinglovchilarga (sud ekspertlariga) berishda umumiyl tamoyil va yo‘nalishlarga ega bo‘lishlari zarur. Natijada sud ekspertiza turlari bo‘yicha yagona fikrlar, g‘oyalar va, muhimmi, ekspertizalarni o‘tkaish metodikaisiga nisbatan yagona yondashuvlar shakllanib boradi.

Aynan shu sababli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldaggi PF-6256-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo‘ljallangan Konsepsiysi”da sud-ekspertlik faoliyati sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarni rivojlantirish, shu jumladan uslubiyot va reglamentlarni takomillashtirish hamda sohaga fan va texnika yutuqlarini joriy etishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida “Sud-ekspertlik vazifalarini hal qilishning ilmiy asoslarini yanada takomillashtirish va yagona ilmiy-metodik yondashuvlarni ishlab chiqish”[2] belgilangan.

O‘quv jarayonining to‘liqligini ta’minlash

uchun o‘qituvchi yangi ekspertiza uslublarini, yangi o‘quv va ilmiy adabiyotlarni bilishi, yangi metodika hamda texnologiyalarni ishlab chiqishda bevosita ishtirok etishi, ularni o‘quv jarayonlariga tatbiq qila olishi (masalan, interaktiv doskalar, multimedia texnikalaridan samarali foydalana olishi) kerak.

Sud ekspertizasining nazariy va huquqiy asoslarini samarali o‘qitish uchun u yoki bu turdagи ekspertizalar bo‘yicha maxsus nashrlar – darsliklar, uslubiy va o‘quv qo‘llannmalarini tayyorlash ishlarni jadallashtirish kerak. Bunday nashrlarni tayyorlashning samarali shakli – bu o‘qituvchilarning va davlat sud ekspertiza muassasalari yetakchi mutaxassislarining o‘zaro hamkorligi hisoblanadi. Muayyan maxsus adabiyotni tayyorlashda bu kabi hamkorlik mutaxassislarining kasbiy bilim va malakalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida shu kabi amaliyat samarali yo‘lga qo‘ylgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-iyuldaggi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6256-son Farmoni [2] bilan Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi tuzilmasida yuridik shaxs tashkil etmagan holda 15 ta shtat birligidan iborat Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi hamda quyidagilar ushbu Institutning asosiy vazifalari etib belgilandi:

sud ekspertizasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarni amalga oshirish; davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga ilmiy-uslubiy ko‘mak berish; sud-ekspertlik vazifalarini hal qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish va yagona ilmiy-metodik yondashuvlarni ishlab chiqish; sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlarga uslubiy yordam ko‘rsatish; sud-ekspertlik faoliyatiga fan va texnika yutuqlarini joriy etish bo‘yicha choralarни ko‘rish; sud ekspertizasi sohasidagi tizimli muammolarni kompleks o‘rganish va ularni hal etishga doir ilmiy asoslangan takliflar va ta’sirchan mexanizmlarni ishlab chiqish; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarning malakali sud-ekspertiza xu-



losalariga bo‘lgan ehtiyojlarini doimiy ravishda o‘rganish orqali sud ekspertizasining yangi turlari hamda uslubiyotlarini ishlab chiqish va bosqicha-ma-bosqich amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha takliflar kiritish; sud ekspertizasi sohasiga rivojlangan axborot texnologiyalari va innovatsiyalarni keng joriy qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

Institutda hozir sud ekspertizasi sohasida o‘quv jarayoniga muvaffaqiyatli kiritilgan innovatsion texnologiyalar sohasida bir qator darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, tavsiyalar tayyorlanmoqda, sud faoliyatining shakllari va usullari takomillashtirilmoqda.

Yuqoridagi kabi hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi: umumiy manfaatlar yo‘lida har xil turdagи kolleksiyalar, axborot fondlarini muntazam ravishda to‘ldirish va ulardan foydalanish; sud ekspertlik amaliyoti uchun kriminalistik texnikaning yangi ishlanmalarini (shu jumladan qo‘shma) yaratish va amalga oshirish; sud ekspertizalarini o‘tkazishning yangi uslublarini yaratish bo‘yicha qo‘shma ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish;

sud ekspertlarining o‘zaro tajriba almashishlari va seminarlarini tashkil etish va o‘tkazish; sud-ekspertlik faoliyatining o‘zaro axborot-uslubiy ta’mintonini amalga oshirish va boshq.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, ekspertizalarning ayrim tadqiqot obyektlarini tavsiflash, izlar va ulardagи umumiyl hamda xususiy belgilarni o‘lchash, ekspert xu-losasining bir xildagi tuzilishini ishlab chiqish uchun yagona metodologiyani ishlab chiqish borasida yangi yondashuvlarni yaratish vaqt keldi. Bundan tashqari, turli xil obyektlar (masalan, poyabzal, inson sochlari, tuproq, lok-bo‘yoq mahsulotlari va boshq.) haqida kerakli ma’lumatlar bilan ishlashga mo‘ljallangan “Avtomatlashtirilgan axborot-qidiruv tizimlari – AAQT”ni yaratish tavsiya etiladi.

Yuqoridagar innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat sud ekspertizalari sifatini, tadqiqotlar jarayonlarining samaradorligini, va umuman, sud-ekspertlik faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi, balki jinoyatlarni ochish va tergov qilishga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

## ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. Т – ҳарф. / Тахрир ҳайъати: Э.Бегматов, А.Мадвалиев, Н.Маҳкамов, Т.Мирзаев (рахбар), Н.Тўхлиев, Э.Умаров, Д.Худойберганова, А.Хожиев. А.Мадвалиев таҳр.ост. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2013. – Б.81

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йил 5-июлдаги “Ўзбекистон Республикасида суд-экспертлик тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6256-сон Фармони / Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 06.07.2021 й., 06/21/6256/0636-сон; 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон.

# SUD-EKSPERTIZA AMALIYOTIDA YANGI “VIRTUAL AUTOPSIYA” TADQIQOTINING IMKONIYATLARI, UNGA BO’LGAN TALAB VA EHTIYOJLAR

**KUDRATOV**  
*Sanjar Marupovich,*  
*Adliya vazirligi huzuridagi X.*  
*Sulaymonova nomidagi Respublika*  
*sud ekspertiza markazi*  
*Sud ekspertlik ilmiy-tadqiqot*  
*instituti bosh ilmiy xodimi,*  
*3-darajali yurist*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sud-ekspertiza amaliyotida yangi “Virtual autopsiya” tadqiqotining imkoniyatlari tadqiq qilinib, unga bo’lgan talab va ehtiyojlar tahlil qilingan hamda bir qator takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** sud-ekspertiza, mutaxassis, tadqiqot, virtual autopsiya, KT(Kompyuter tomografiyasi), xorijiy tajriba.

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются возможности нового исследования «Виртуальная аутопсия» в судебно-экспертной практике, проанализированы востребованность и потребность в нем. Также исходя из исследования разработан ряд предложений.

**Ключевые слова:** судебная экспертиза, эксперт, исследование, виртуальная аутопсия, компьютерная томография (КТ), зарубежный опыт.

## ANNOTATION

This article presents the possibilities of the new “Virtual Autopsy” research in forensic practice, its requirements and needs, as well as a number of proposals.

**Key words:** forensic examination, expert, research, virtual autopsy, CT (Computer tomography), foreign experience.

Kriminalistika va sud-ekspertizaning asosiy vazifalaridan biri jinoyatlarni ochish va tergov qilishning tegishli ilmiy-texnik vositalari hamda usullarini ishlab chiqish, takomillashtirish va joriy etishdan iborat.

Innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy, axborot, ilmiy-texnikaviy sohalarda, balki ijtimoiy sohada – jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilik darajasini pasaytirish va sud-ekspertlik sohasida ham dolzarbdir. Raqamlashtirish va kompyuterlashtirish jarayonlari sud-ekspertiza faoliyati sohasiga ta'sir qilmay qolmadı.

Jinoyatchilikning zamonaviy ko'rinishlari ham sezilarli darajada o'zgarib bormoqda, shu bois sud-ekspertiza faoliyatida zamonaviy texnologiyalar, eng avvalo axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy etish maqsadga muvofivdir.

Bugungi kunda jinoyatlarni ochish va tergov qilishda sud-ekspertizasi va bevosita sud-tibbiyot ekspertizasi sohasida vositalar va usullardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish, ekspertizaga yangi usullarni joriy qilish hamda mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha tashkiliy-uslubiy ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda yangi tadqiqot usullarining joriy etilishi ekspertiza imkoniyatlarini kengaytirish va ekspert muammolarini yuqori sifat darajasida hal etish, shuningdek, ularni hal qilishda nazariy-metodologik yondashuvlarni takomillashtirish imkonini beradi.

Shuni ham ta'kidalsh kerakki, sud-tibbiyot ekspertlari doimiy ravishda shikastlanishlar va ichki organlarga (ko'krak va qorin bo'shlig'i) zarar yetkazilgan tirik odamlarning tekshiruvlarini ishlab chiqishda, uslubiy hamda diagnostik tashxis qo'yishda qiyinchiliklarga duch kelishlari uzoq vaqt dan beri ma'lum.

Butun dunyo bo'y lab barcha sohalarda innovatsion faoliyat yangi sohalarning rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qilayotgan bo'lsa, bundan sud-tibbiy ekspertiza ham xoli emas. Mubolog'asiz, sud tibbiyotini rivojlantirishning ko'plab innovatsion yo'nalishlarini kelajak texnologiyalari deb hisoblash mumkin.

Bugungi kunda o'lim sabablari, kasalliklar, jarohatlar va boshqa masalalarni aniqlash uchun

sud-tibbiyot va o'limdan keyingi ekspertizalarни o'tkazishda tadqiqotlarning asosiy va yagona usuli klassik autopsiya (murdani ochish) hisoblib kelinmoqda.

Bu jinoyat ishlari bo'yicha obyektiv dalillarni olishda muhim vosita bo'lib, o'lim vaqt, uning sababi, shikastlanish mexanizmi va zararning og'irlik me'yorini aniqlash kabi savollarga javob topishga imkon beradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, ayni damda jasadlarni ochishdan bosh tortish amaliyoti mavjud bo'lib, bunda diniy, psixologik va boshqa sabablarga ko'ra murданi ochishga ruxsat bermaydigan taqiqlar o'lim sabablarini, tashxisning to'g'ri va o'z vaqtida qo'yilganligini, ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatini xolisona aniqlashga imkon bermaydi.

Hozirgi kunda sud-tibbiy ekspertiza amaliyotida virtual autopsiya tartibini joriy etish juda istiqbolli hisoblanadi, bu usul a'zo va to'qimalarda to'g'ridan-to'g'ri jismoniy aralashuvni tabab qilmaydi, bunda a'zo va to'qima tuzilmalari o'z joyida tekshirilib, ish jarayoni bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini oladi. Sud-tibbiy ekspertizaning turli sohalarida amalga oshirilayotgan identifikasiya jarayonlarini avtomatlashtirishga ehtiyoj va talab kun sayin ortib bormoqda, biroq ayni paytda ekspertlarni zamonaviy texnologiyalar bilan to'liq almashtirish haqida muammoli savol tug'ilmoqda.

AQSH, Germaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Isroil, Hindiston, Xitoy va Qozog'iston kabi davlatlarda virtual autopsiya – 3D modellashtirish usulidan sud-eksperlik tadqiqotlarida keng foydalanib kelinmoqda.

Rivojlangan davlatlar sud ekspertiza amaliyotlarida yangi texnologiyalardan foydalanish ularning kundalik faoliyatini texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlashning ajralmas qismiga aylanган.

Sud ekspertiza faoliyatida innovatsiyalarni joriy etish, jumladan, jarayonni kompyuterlashtirish bir-birini o'zaro to'ldirishi lozim. Bunda eng istiqbolli yo'nalishlardan biri diagnostika va identifikatsion tadqiqotlar (3D-4D skanerlar yordamida virtual autopsiya va tibbiy-kriminalistik rekonstruksiyalar) imkonini beruvchi tasvir tahlil tizimlarini joriy etishdir.

Virtual autopsiya qurol va portlovchi jarohatlar, transport jarohatlari, balandlikdan yiqi-



lish, cho'kish va asfiksiya, bolalar va o'smirlar o'limi, havo emboliyasi, shaxsi noma'lum murdalar ekspertizasida muhim ahamiyat kasb etadi. Diagnostika amaliyoti uchun murdani tekshirishdan oldin marhumning tanasida patologik yoki hayoti davomida olgan jarohatlar oqibatida yuzaga kelgan o'zgarishlarni, yot jismlarni, gazlarni yoki suyuqliklarni topish muhim. Sud tibbiyotida virtopsiyani targ'ib qilish ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, hozirgi vaqtda xorijiy davlatlar sud-tibbiy ekspertizalari o'zlarining KT(Kompyuter tomografiyasi) skanerlarini o'rnatib amaliyotga joriy qilingan.

Virtual autopsiya va an'anaviy usullar bir-birini to'ldiruvchi tarzda ishlatalishi zarur, chunki a'zo tashqi ko'rinishining rangi, hidi va ba'zan to'qima yoki uning kesma tekisligi haqidagi ma'lumotlar ushbu usulning tabiiy cheklovlarini tufayli yo'qolishi mumkin.

Sud-tibbiyot ekspertiza amaliyotida zamonaviy uskunalar va yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish, shu jumladan, "Virtual autopsiya" tadqiqot yo'nالishida bir qator muammolar mayjud bo'lib, ular quyidagilar:

birinchidan, bugungi kunda davlat sud ekspertiza muassasalarining bo'ysunuvidagi vazirlik, idoraning ekspertiza muassasalariga bo'lgan e'tiboriga qarab zarur uskuna va jihozlar bilan ta'minlanmoqda. Natijada, ayrim muassasalarda eng zamonaviy uskunaldan foydalanilayotgan

bir vaqtda, ayrimlarida hozirgi kungacha ancha eskirgan holdagi uskunalarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Holbuki, ushbu uskuna o'rniga boshqa muassasalar uchun zarur bo'lgan uskunalarini olgan holda mavjud tadqiqotlarning sifati va samardorligini oshirish mumkin;

Ma'lumot tariqasida, dunyoning aksariyat rivojlangan davlatlarida bugungi kunda sud-tibbiy ekspertizasi jarayonida zamonaviy virtual-autoskopiya (Virtual Autopsy Solutions) texnologiyasidan foydalanib kelinmoqda. Mazkur uskunadan foydalanish qurol va portlovchi jarohatlar, transport jarohatlari, balandlikdan yiqilish, cho'kish va asfiksiya, bolalar va o'smirlar o'limi, havo emboliyasi, shaxsi noma'lum murdalar ekspertizasida muhim ahamiyat kasb etadi. Diagnostika amaliyoti uchun murdani tekshirishdan oldin marhumning tanasida patologik yoki hayoti davomida olgan jarohatlar oqibatida yuzaga kelgan o'zgarishlarni, yot jismlarni, gazlarni yoki suyuqliklarni topishda muhim ahamiyat kasb etib, aksariyat hollarda odam tanasini yorishga hojat qolmaydi.

Bu kabi uskunalarining mamlakatimizda ham qo'llanilishi soha rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, sohadagi tadqiqotlarning sifatini oshiradi.

ikkinchidan, Sud-tibbiyot ekspertiza markazining hududiy bo'limlarida moddiy-teknik ji-

hozlarning yetarli emasligi, shu jumladan KT (Kompyuter tomografiyasi);

uchinchidan, o'limdan keyingi tasvirlar sohasida malakali rentgenologlarning, mutaxassislarning yetishmasligi;

to'rtinchidan, an'anaviy murdani tekshirish amaliyoti o'rniga sud-tibbiyat ekspertizasi xizmatida o'limdan keyingi tasvirlash va virtual-autoskopiyadan foydalanish bo'yicha faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning yo'qligi;

beshinchidan, o'limdan keyingi ko'rish sohasidagi mutaxassislarini rentgenologlarni loyiha-ga jalg qilish (birinchi navbatda loyihani amalgalash) oshirish bosqichida);

oltinchidan, KT (Kompyuter tomografiyasi) virtual-autoskopiyadan foydalanish bo'yicha sud-tibbiyat ekspertlarining malakasi oshirilgan hamda qayta tayyorlashdan o'tgan malakali mutaxassislar bazasining yo'qligi;

yettinchidan, sud-tibbiyat ekspertizasida KT (Kompyuter tomografiyasi) virtual-autoskopiyadan foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot yo'nalishini shakllantirish va ekspert amaliyotida ushbu yo'nalishni uyg'unlantirish.

Ushbu sohada xorijiy davlatlar tajribasini misol keltiradigan bo'lsak, AQSHda virtual-autoskopiyadan o'lim sababini aniqlashda ikkita usuldan foydalanish amaliyoti yo'lga qo'yilgan: skanerlash va magnit-rezonans tomografiyasi, bu tadqiqot usullari minimal vaqt va ish hajmini talab etishi ko'rsatilgan.

Fransiya Respublikasining Marseldagi Timon va Lozanna universitet kasalxonalarida "virtual-autoskopiya"dan foydalanib, ushbu tadqiqot bo'yicha talabalar, sud-tibbiyat ekspertlari va mutaxassislar tayyorlab kelinmoqda.

Shveysariyada bu tadqiqotlar sudlar, Avstraliyada esa kriminalistlar tomonidan keng qo'llanib kelinmoqda.

Chexiya Respublikasida KT (Kompyuter tomografiyasi) virtual-autoskopiyadan foydalangan holda jasadning o'limdan keyingi birinchi tekshiruvi 1993-yilda Grades-Kralove shahrida bo'lib o'tgan.

Shuningdek, marhumlarning jasadlarini tekshirish uchun KT (Kompyuter tomografiya) 2015-yil may oyida Grades-Kralovdagi sud tibbiyat instituti va radiologiya klinikasida hamda

2015-yil noyabr oyida Pragadagi Markaziy harbiy gospitalning sud-tibbiyat harbiy institutining yangi binosiga o'rnatilgan.

2015-yilda KT (Kompyuter tomografiyasi) virtual-autoskopiyanidan foydalangan holda 23 ta, 2016-yilda 90 ta, 2017-yilda 215 ta, 2018-yildan shu kungacha 300 dan ortiq tadqiqotlar o'tkazilib, bugungi kunda o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda.

Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Sud-ekspertiza markazida ham virtual-autoskopiya tadqiqotini joriy etish bo'yicha dastur amalga oshirilib, bugungi kunda sud-tibbiyat ekspertlari, kriminalist va tegishli soha mutaxassislar foydalanib kelmoqda.

Yuqorida qayd etib o'tilgan holatlardan kelib chiqib, virtual-autoskopiya tadqiqot yo'nalishi bo'yicha quyidagi ijobiy yechimlar ko'rsatib o'tiladi:

1) Shaxsning subyektiv omili sud-tibbiy ekspertiza natijalariga ta'siri minimallashtiriladi. Jasadning tashqi ko'rige, o'limga oid holatlar va boshqa tibbiy muolajalar paytida xatoliklar hamda tadqiqot natijalarini soxtalashtirish ehtimolliklari ham minimallashtiriladi;

2) Virtual-autoskopiyaning asosiy afzalligi jasadni o'rganishda minimal mehnat talab qilishi va raqamli tasvirda jasdrlarning alohida elementlarini saqlashga imkon berishi;

3) O'q otish, pichoqlash, pichoq bilan kesish va boshqa jarohatlarda yara kanallarini vizualizatsiya qilish, o'limdan keyingi holatni 3D uch o'lchovli rekonstruksiya qilish, shikast yetkazgan vositani aniqlash orqali sud-tibbiy identifikasiyalash masalalarini hal qilish usulidan foydalanish uchun noyob imkoniyat beradi. Bunda tashqari, o'q otish, jarohatlar va jarohatlar natijasida sodir bo'lgan voqeа holatlarini qayta tiklash imkonini beradi. Shu bilan birga, tergov harakatlarida huquqni muhofaza qilish organlari shoshilinch tarzda bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni bajarishi kerakli ma'lumotlarni olishida juda muhimdir;

4) Texnik jihatdan tanani vizual ko'rib, tahlil o'tkazish qiyin bo'lgan sohalarini (yuz skeleti, bosh suyagi, umurtqa va orqa miya hamda boshqa tana a'zolari) batafsil o'rganish imkoniyatini berishi;

5) Shaxsning hayotlik davrida shikastlanish belgilarini aniqlashda asfiksija (bo'g'ilish),

mexanik shikastlanishlar, cho'kish kabi holatlarni aniqlab berishi;

6) Tadqiqot jarayonlarida (sud-tibbiyot ekspertlari, shifokorlar, laborantlar va boshqa mutaxassislar) sil, gepatit, OITS va boshqa xavfli yuqumli kasalliklar bilan kasallanish xavfi sezilarli darajada kamayishi;


7) Tez va to'liq ma'lumotlarni yig'ish imkoniyati, ma'lumotlar almashinushi, o'xshash jinoylatlarni tahlil qilish (ketma-ket va ko'p sonli qotilliklar, transport va texnogen falokatlar, terroristik hujumlar va boshqalar);

8) Virtual-autoskopiya natijalari uzoq vaqt davomida raqamli formatda saqlanishi mumkin, murdani eksgumatsiya qilmasdan va krematsiya qilingan hollarda takroriy ekspertizani ushbu saqlanib qolningan ma'lumotlar asosida o'tkazish

imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalarini turli mutaxassislar ishtirokida komission va kompleks sud-tibbiyot ekspertizalarida amalga oshirish mumkin;

9) Virtual-autoskopiya elektron ma'lumotlar bazasi talabalar anatomiya, patologik anatomiya va sud tibbiyotini o'rganayotganda o'quv materiali sifatida xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, virtual-autoskopiya sud-ekspert faoliyatida va bevosita sud-tibbiyot ekspertizasidagi yangi istiqbolli yo'naliш bo'lib, an'anaviy autoskopiyanı sezilarli darajada to'ldiradi va sud-tibbiy tadqiqotlar uchun yangi imkoniyatlар ochib, yangi usullarni qo'llash tajribasi to'plangan va umumlashgan sari ularning doirasi kengayishi mumkin.



## ADABIYOTLAR

1. About the statement of the Order of the organization and production of forensic medical examinations in the state forensic expert institutions of the Russian Federation: the order of the Ministry of health and social development of the Russian Federation d.d. May 12, 2010 № 346n. URL: <http://www.garant.ru/> (date of access: 09.07.2019).
2. Bazarov M. M., Hamraqulov S. B. "O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimi yanada takomillashtirilmoqda" Yurist axborotnomasi, 1-son, 1-jild, Toshkent 2022, 151-152.
3. Thali M. J., Yen K., Schweizer W., et al. Virtopsy, a new imaging horizon in forensic pathology: virtual autopsy by postmortem multislice computed tomography (MSCT) and magnetic resonance imaging (MRI) a feasibility study. J Forensic Sci. 2003;48:386-403.
4. Choriyev A. B. "Sud-tibbiy ekspertizaning istiqbolli imkoniyatlari" X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi Markazining 70-yilligiga bag'ishlangan "Sud ekspertizasi: Kecha va Bugun" ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam, Toshkent 2021, 136.
5. Фетисов В. А. Проблемы финансирования и обучения специалистов в области посмертной томографической визуализации в Великобритании. Consilium medicum. 2016; 18(13). – С. 48–51.
6. <https://virtualautopsyuk.com/>

# KRIMINALISTIK EKSPERTIZA VA UNING TURLARI

**G'OFURJONOV**

*Axadjon,*

*X. Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza  
markazining Sud-ekspertlik  
ilmiy-tadqiqot instituti yetakchi  
ilmiy xodimi,  
3-darajali yurist*

**XASANOV**

*Aziz,*

*X. Sulaymonova nomidagi  
Respublika sud ekspertiza  
markazining Axborot-resurs  
markazi mudiri.  
3-darajali yurist*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kriminalistik ekspertiza turlari, ekspertiza tayinlash, qayta hamda komission ekspertizalar, shuningdek, ekspert xulosasining umumiy qoidalari hamda ekspert xulosasini baholash haqidagi nazariy fikrlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sud ekspertizasi, sud eks-pertining xulosasi (xulosa), ekspertiza natijalari, kriminalistik ekspertiza, qayta ekspertiza, komission ekspertiza.

## АННОТАЦИЯ

В статье представлены виды криминалистической экспертизы, назначение экспертиз, повторных экспертиз и комиссий, а также общие правила экспертного заключения и теоретические заключения по оценке экспертного заключения.

**Ключевые слова:** судебная экспертиза, заключение судебно-медицинской экспертизы, результаты экспертизы, криминалистическая экспертиза, повторная экспертиза, комиссионная экспертиза.

## ANNOTATION

This article presents the types of criminal expertise, appointment of expertise, re-examinations and commissions, as well as general rules of expert opinion and theoretical opinions on evaluation of expert opinion.

**Key words:** Forensic examination, forensic expert's conclusion (summary), examination results, criminalistic examination, re-examination, commission examination.

Sud ekspertiza fanining nazariyasi va amaliyotida sud ekspertiza turlari masalasiga katta e'tibor bilan qaraladi. Ekspertiza obyektlari sonining muntazam kengayib borishi o'z o'rnida kriminalistik masalalarni yechishda qo'llaniladigan maxsus bilimlar turlarining ko'payishiga olib kelmoqda. Bu esa ekspertizaning tubdan yangi turlari yaratilishi, shu jumladan, kriminalistik ekspertizalarning uslublarini takomillashtirishda o'z ifodasini topmoqda.

Sud ekspertizasining klassifikatsiyasi turli asoslarga qarab amalga oshiriladi. Ular ichida ekspertizalarni bilim sohasiga qarab ajratish muhim o'rin egallagan. Bu prinsip bo'yicha ekspertizalar bir vaqtning o'zida uchta belgi bo'yicha turlarga ajratiladi: ekspertiza obyekti, predmeti va qo'llaniladigan uslublar (yoki bilim sohasi). Alovida har bir belgi bo'yicha ekspertiza turini belgilash anglashilmovchilikka olib keladi. Masalan, voqeа joyidan topilgan o'q ham sud-ballistika, ham metallar ekspertizasi obyekti bo'lishi mumkin yoki tilshunoslik sohasidagi bilimlar xatshunoslik, muallifshunoslik, sud-fonoskopiya ekspertizalarida keng qo'llanadi va h.k.

Aytib o'tilgan uch belgili asos bo'yicha: kriminalistik (ayrim hollarda an'anaviy deb atalgan), sud-tibbiy, sud-biologik, sud-muhandislik, sud-iqtisodiy, sud-qishloq xo'jaligi va boshqa turdagи ekspertizalar ajratiladi. O'z o'rnida bu ekspertizalar turlarga, turlar esa xillarga bo'linadi.

Xususan, kriminalistik ekspertizalar turlari yuzasidan tadqiqotchilar turli xil fikrlar bildirishgan, shu bilan birga ularning barchasi kriminalistik ekspertizalar qatoriga xatshunoslik, hujjatlarning texnik-kriminalistik, izshunoslik, sud-ballistika va odamni tashqi qiyofa belgilari asosida aniqlash ekspertizalarini qo'shishadi. An'anaviy kriminalistik ekspertizalar deb atalgan sud ekspertizalarining bu turlari jinoyatlar ni ochishda qo'llanadigan maxsus bilimlarning tarixan birinchi shakllarini tashkil etadi. Hozirgi kunda kriminalistika ekspertizasining barcha turlari muntazam rivojlanib kelmoqda. Jumladan, xatshunoslik ekspertizasi sohasidagi matematik uslublar, hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi yordamida zamonaviy ko'paytiruvchi texnik vositalarni aniqlash va boshqalar buning

isbotidir.

Kriminalistik ekspertizalarning rivojlanishi moddalar, ashyolar va buyumlarning kriminalistik ekspertizasi nazariyasini yaratishga olib keldi. Lekin bu ekspertizalarni haqiqiy kriminalistik ekspertizalar qatoriga kiritish masalasida turli fikrlar bildirilib, bu masala bugungi kungacha muammoligicha qolmoqda.

Ekspertiza tekshiruviga yuboriladigan obyektlarning turiga, ularning tekshirishda qo'llaniladigan maxsus bilim va uslubiyotining xususiyatiga ko'ra sud-ekspertiza amaliyotida quyidagi kriminalistik ekspertizalar o'tkaziladi:

- xatshunoslik tekshiruv; bu xildagi ekspertiza obyekti bulib turli hujjatlarning qo'lyozma matnlari, imzolar, raqam yozuvlari bo'lib, ekspertiza vazifasi ularning kim tomonidan, qanday sharoit va holatda yozilganligini aniqlashdir;

- turli usulda yasalgan hujjatlarning asl-qalbakilagini, dastlabki holatini, keyinchalik qanday o'zgartirishlar kiritilganligini (tuzatilgan, qo'shimcha kiritilgan, o'chirilgan va h.k.), muhr va shtamplarning asl yoki qalbakilagini, ularni yasash usuli, yozuv vositalari, hujjatlarning materiallarini aniqlash uchun hujjatlarning texnik-kriminalistik ekspertizasi tayinlanadi;

- trasologiya (izshunoslik) ekspertizasi; ashyoviy dalil bo'lgan turli izlarning hosil bo'lishi mexanizmi, qaysi predmetdan qoldirilganligini aniqlash uchun o'tkaziladigan tekshiruv. Odamlarning qo'l-barmoq izlari kim tomonidan qoldirilganligini aniqlash uchun o'tkaziladigan tekshiruvni "daktiloskopik ekspertiza" deb ham atyadilar;

- sud-ballistika ekspertizasi – jinoyatni sodir etishda qo'llanilgan turli o'qotar qurollar, otish natijasida hosil bo'ladigan (odam tanasidan tashqari bo'lgan) to'siqdagi jarohat alomatlari, otilgan o'q va gilzalar, o'q-dori (patron, gilza, o'q, portlovchi moddalar) va ularning qoldiq qismlari mazkur ekspertiza obyektlari bo'lib hisoblanadi. Sovuq qurollar alovida ekspertiza obyektiga kiradi;

- odamlarning tashqi qiyofa belgilari asosida o'tkaziladigan identifikatsion tekshiruv. Bu xildagi ekspertiza odamning fotosurati, og'zaki tasvirlash asosida tuzilgan portretlari asosida o'tkazilib, yakka shaxs haqida xulosa beriladi. Tergov va sud amaliyotida o'lgan odamning suyak qoldiqlari (skeleti) bo'yicha shaxsini aniqlash uchun kriminalistik va antropologik tekshiruv ham o'tkaziladi.

Sud ekspertizalar, shu jumladan kriminalistik ekspertizalar boshqa asoslarga ko'ra ham to'planadi. Bu asoslar ichida nazariya va amaliyot nuqtayi nazaridan tadqiqotning to'liqligi, ketma-ketligi, qo'llanadigan bilimlar xususiyati va tekshiruvni o'tkazadigan ekspertlar soni ahamiyatlidir. Bu asoslarga ko'ra asosiy va qo'shimcha, birlamchi va qayta, bitta ekspert o'tkazgan va komission, bir bilim sohasida o'tkaziladigan va kompleks ekspertizalarga ajratiladi. Sud ekspertizalar amaliyoti bilan bevosita bog'liq bo'lган bu turdag'i ekspertizalar faqat ishni protsessual yuritishda uchraydi. Shu sababli ularni sud ekspertizasining protsessual turlari deb atash mumkin. Ekspertizaning protsessual turlari bir-biridan qonun tomonidan boshqarushi, ularni o'tkazishning tashkil etilishi va uslubiyoti bilan farq qiladi.

Agar asosiy ekspertiza xulosasida kamchiliklarni to'ldirish zaruriyati tug'ilsa qo'shimcha ekspertiza tayinlanadi (Qo'shimcha ekspertiza ekspert (ekspertlar komissiyasi) xulosasidagi bo'shliqlarning o'rnnini to'ldirish uchun tayinlanadi va shu yoki boshqa ekspert (ekspertlar komissiyasi) tomonidan o'tkaziladi). Bu kamchiliklar ekspertiza xulosasining to'liq bo'lmanligi yoki unga aniqliklar kiritish zaruriyati bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Xulosaning to'liq emasligi ekspertiza oldiga qo'yilgan barcha savollarga javob berilmaganligi, hamma obyektlar tekshirilmaganligini bildiradi.

Xulosa noaniq deb topilganda undagi fikrlar muayyan bo'lmasdan, ikkilamchi ma'noda tahlil etilishi hollari nazarda tutiladi.

Bundan tashqari, ekspertiza amaliyotida asosli ravishda qo'shimcha ekspertiza qatoriga taqdim etilgan namunalar yetishmasligi sababli ekspertiza oldiga qo'yilgan masala yechilmagan birinchi ekspertizadan so'ng qo'shimcha taqqoslash namunalar bilan tayinlangan yangi ekspertiza ham kiritilgan.

Qo'shimcha ekspertiza asosiy ekspertizani o'tkazgan ekspertga yoki boshqa ekspertga topshirilishi mumkin.

Birlamchi ekspertiza xulosasi tergov (sud) ning asoslangan fikri bo'yicha noto'g'ri deb topilsa qayta (yoki takroriy) ekspertiza tayinlanishi mumkin. Shuni aytib o'tish joizki, ham qo'shimcha, ham qayta ekspertizaga birlamchi (asosiy) ekspertizaga yuborilgan materiallar (tekshiruv obyektlari hamda namunalar) va yechiladigan masalalar o'zgarishsiz qoladi. Aks holda qayta tayinlangan ekspertizaga yangi obyektlar yubo-

rilsa yoki boshqa savollar qo'yilsa, ekspertiza o'zining tabiatini o'zgartiradi va boshqa yangi ekspert masalasi tug'iladi. Lekin (shu jumladan ekspertning talabiga ko'ra), qo'shimcha yoki qayta tayinlangan ekspertiza yangi qo'shimcha namunalar bilan to'ldirilishi mumkin.

Qayta ekspertiza boshqa bir ekspert yoki ekspertlar komissiyasi, ya'ni ikki va undan ko'proq bo'lган ekspertlar tomonidan o'tkaziladi. Birinchi ekspertiza tekshiruvini o'tkazgan mutaxassis qayta ekspertiza o'tkazishda hozir bo'lishi va o'zi bergen xulosa va o'tkazgan tadqiqotlari yuzasidan tushuntirishlar berishi mumkin, lekin u qayta tekshiruvlarni o'tkazishda, ularning natijalarini muhokama qilishda va xulosa tuzishda ishtirok etmaydi.

Birlamchi ekspertiza natijasi bilan qayta ekspertiza xulosasi bir-biriga qarama-qarshi bo'lган tadqiqotlarda uning natijalari komissiya ishtirokida (amaliyotda o'rnatilgan tartib bo'yicha tajribali mutaxassis va rahbar xodimlar bilan hamkorlikda) muhokama qilinadi va birlamchi ekspertiza xulosasi tasdiqlanmasligi sabablari baholanadi. Ushbu sabablar qayta ekspertiza xulosasida bayon etiladi.

Qayta ekspertiza uchinchi, to'rtinchchi va undan ko'p marotaba ham tayinlanishi mumkin. Ekspertiza amaliyotida shunday hollar uchrab turadiki, birinchi ekspertiza xulosasi bilan ikkinchi qayta ekspertiza xulosasi bir-biriga qarama-qarshi, har qaysisi ham o'zicha asosli va qator belgi-sifatlariga tayangan holda berilgan bo'lishi mumkin.

Bu holda tergov (sud) har bir xulosani alohida boshqa dalillar bilan birgalikda baholashi zarur. Agar shunday baholash natijasida xulosalarda ish yuzasidan aniqlangan ishonchli faktlarga qarama-qarshiliklar yoki protsessual qonunning jiddiy buzilishlari aniqlansa, tergov (sud) uchinchi marotaba takroriy ekspertiza tayinlashga haqlidir. Ya'ni ishda bir-biriga mos kelmaydigan ikki va undan ko'p ekspertiza xulosasi mayjudligi o'zicha yangi qayta ekspertiza tayinlashga asos bo'la olmaydi.

Qayta ekspertiza materiali o'sha oldingi ekspertiza o'tkazilgan muassasaga yuborilishi, lozim topilsa, boshqa ekspertiza muassasasiga yuborilishi mumkin. Masalan, birinchi ekspertiza IIVning ekspert-kriminalistika bo'limida o'tkazilgan bo'lsa, ikkinchi marotaba shu materialning o'zi Adliya vazirligining sud ekspertiza markaziga yuboriladi, uchinchi takroriy tekshiruvga esa shu markazning o'ziga yoki boshqa ekspertiza

muassasasiga tayinlanishi mumkin. Ikkinci va uchinchi tekshiruvlar bir ekspertiza muassasasi-da o'tkazilgan taqdirda uni albatta boshqa ekspert yoki ekspertlar komissiyasi o'tkazmog'i lozim. Ana shunday bo'lgandagina ekspertiza xulosalari obyektiv bo'lib, ish uchun dalil manbayi sifatida qo'llangani ma'qul.

Ekspertlar komissiyasini tayinlash va tanlash sud (tergov) organi yoki ekspertiza muassasasi rahbariga bog'liq. Qayta ekspertizani o'tkazish mutaxassislarning tajriba va bilim darajasiga, ish hajmiga qarab belgilanadi. Komissiya tarkibini ko'paytirish va kamaytirish yoki o'zgartirish (bir mutaxassisni ikkinchisi bilan almashtirish) ekspertiza muassasasi rahbariga bog'liqdir.

Qayta ekspertizaning predmeti va tekshiriluvchi obyektlar doirasi o'zgarishsiz qoladi. Qo'shimcha va qayta ekspertizalar konkret ishning holatiga qarab tergov va sudning qaror va ajrimiga ko'ra o'tkaziladi.

Birlamchi, qo'shimcha va qayta ekspertizadan tashqari komission va kompleks ekspertizalar ham bo'lishi mumkin.

Bir sohaga mansub bir necha mutaxassis tomonidan o'tkaziladigan tadqiqotlar komission ekspertiza deb ataladi. Tekshiriluvchi obyektlar soni ko'p bo'lib, tekshirish murakkab usullar qo'llashni talab qilsa, ekspertiza materiali bir mutaxassisiga emas, balki undan ko'p ekspert xodimga topshirilishi mumkin. Masalan, ko'p obyektni xatshunoslik ekspertizalari bo'yicha tekshiruv o'tkazish, odatda, ko'p vaqt talab qiladi, bunday hollarda ekspertizani o'tkazish bir necha mutaxassisga, ya'ni ekspertlar komissiyasiga topshiriladi. Bunday ekspertizalar, odatda, moliyaviy hujjatlar bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvdir. Ya'ni turli yozuv va imzolarni bajargan shaxslarni identifikatsiya qilish uchun tayinlanadi. Hujjatlar soni va qo'lyozmani yozishda shubhalangan shaxslar ko'p bo'lganligi tufayli ekspertiza tekshiruvini tezlashtirish va xulosa obyektiv hamda asoslangan bo'lishi

uchun bunday ekspertizalarni komission ravishda o'tkazish maqsadga muvofiq.

Komission ekspertiza natijalari ekspert komissiyasi a'zolari tomonidan birgalikda muhokama etilib, agar ular bir fikrga kelsa, umumiy bitta xulosa tuziladi. Agar ekspertlar o'rtasida hal etiladigan masala yuzasidan kelishmovchilik ro'y bersa, har bir ekspert kelishmovchilik chiqqan masala bo'yicha alohida xulosa beradi.

Ayrim hollarda ish uchun ahamiyatga molik biror holatni aniqlashga bir sohada bilimlar yetarli bo'lmay, boshqa sohadagi bilimlarni jalg etish zaruriyati tug'iladi. Bu vaziyatda kompleks ekspertiza tayinlanadi.

Kompleks ekspertizalar yordamida turli masalalar hal etiladi. Masalan, velosipedchi va uni urib yuborgan avtomobil o'zaro qanday yo'naliishda harakat qilganligini aniqlash murakkab masala bo'lib, alohida o'tkaziladigan sud-tibbiy, transport-izshunoslik ekspertiza qilish yordamida hal etilmasligi mumkin. Ammo bu tekshiruvlar kompleks ravishda o'tkazilsa, ularning samadarligi keskin oshadi. Har bir mutaxassis o'zining bilim doirasida aniqlagan holatlarni boshqa soha mutaxassisini topgan belgilar bilan taqqoslab birgalikda yagona xulosa chiqaradilar. Bunda har bir mutaxassis o'zi o'tkazgan tekshiruv uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

Bir obyekt bo'yicha alohida ketma-ket o'tkaziladigan mustaqil tadqiqotlarni kompleks ekspertiza qatoriga qo'shish noto'g'ridir. Masalan, hujjatning yasalish usulini aniqlashga qaratilgan texnik-kriminalistik ekspertiza, undagi yozuvlarni bajargan shaxsni aniqlovchi xatshunoslik ekspertizasi alohida-alohida bo'lib, kompleks ekspertizani tashkil etmaydi. Ammo yirtib tashlangan hujjatni tiklashga qaratilgan birgalikda o'tkaziladigan izshunoslik, texnik-kriminalistik va xatshunoslik tadqiqotlarini asosli ravishda kompleks ekspertiza deb atash lozim.

## ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi.
3. Alimova R, Otaxonjayev S. Sud ekspertizasini tashkil qilish va o'tkazish masalalari, o'quv qo'llanma – Toshkent 2001.
4. Bazarova D. Kriminalistika, darslik – Toshkent 2018.
5. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotari milliy bazasi.

## ОИЛА – ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИНГ МУҲИМ ИНСТИТУТИ

*Абдурасулов Ўқтамжон  
Мариғжонович,  
Ўзбекистон Республикаси  
Бош прокуратураси Академияси  
мустақил изланувчиси*

### АННОТАЦИЯ:

Фуқаролик жамияти институтлари тизимида оила биринчи ва бирламчи бўғин сифатида на-моён бўлади. Биз қураётган адолатли фуқаролик жамиятида оила ўзига хос ижтимоий бирлашмани ташкил этади. Оиланинг бу хусусияти биринчи галда унинг жамият манфаатлари билан боғлиқлигига ҳамда ижтимоий вазифаларида ифодаланган. Мақолада, мамлакатимизда оила институтини мустаҳкамлаш ва жамиятда кеч-ётган ислоҳотларда унинг ўрни ва аҳамиятини ошириш борасида салмоқли ишлар амалга оши-рилиб келинаётгани хусусида атрофлича фикрлар борган. Бундан ташқари бугунги кунда жамиятда учраётган эр-хотинлар ўртасидаги ажримлар сабаблари ва уларни камайтириш юзасидан атрофлича таклифлар ҳам келтириб ўтилган.

**Калит сўзлар:** оила, никоҳ, оила институти, Оила кодекси, Уй-жой кодекси.

### АННОТАЦИЯ:

В данной статье семья представлена как первое и первичное звено в системе институтов гражданского общества. В строящемся нами справедливом гражданском обществе семья является уникальной социальной ячейкой. Эта особенность семьи прежде всего выражается в ее связи с интересами общества и ее общественными обязанностями. Также прозвучали общие мнения об укреплении института семьи в нашей стране и повышении ее роли и значения в проводимых в обществе реформах. Кроме того, также даны причины разводов между супружескими парами в современном обществе и подробные предложения по их уменьшению.

**Ключевые слова:** семья, брак, институт се-мыи, семейный кодекс, жилищный кодекс.

### ANNOTATION:

In this article, the family is presented as the first and primary link in the system of civil society institutions. In the just civil society we are building, the family is a unique social unit. This feature of the family is primarily expressed in its connection with the interests of society and its social obligations. There were also common views on strengthening the institution of the family in our country and increasing its role and importance in the reforms being carried out in society. In addition, the reasons for divorces between married couples in today's society are also given, and detailed suggestions for reducing them.

**Keywords:** family, marriage, family institution, family code.

вазифаларида ифодаланган.

Хукуқшунос олимлар М.Баратов ва У.Шараҳметовалар “Никоҳ тузиш хукуқингиз бор” рисоласида “Никоҳ аҳди инсонларга юксак масъулият юклайди. Оилада эрнинг ҳам, аёлнинг ҳам ўз вазифалари бор, улардан ҳар бири ўз вазифаларини тўла адо этишга масъулдир. Никоҳ туфайли ота-она ўзидан сўнг зурриёт қолдириб, инсон насли давом этишига сабаб бўлади” деб таъкидлаб ўтишган.

Шу жиҳатдан олганда, мамлакатимизда оила институтини мустаҳкамлаш ва жамиятда кечеётган ислоҳотларда унинг ўрни ва аҳамиятини ошириш борасида салмоқли ишлар амалга оширилиб келинмоқда.

Бинобарин, сўнгги йилларда Ўзбекистонда оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, аёлларнинг жамиятдаги мавқенини ошириш, оиласи мустаҳкамлаш ва турли имтиёзлар бериш борасида бир қатор муҳим қонунлар ва бошқа хужжатлар қабул қилинганини бежиз эмас. Хотин-қизлар ва эркаклар teng хукуқлилиги, жамиятнинг асосий бўғини хисобланган оиласи мустаҳкамлаш, никоҳнинг барқарор бўлиши, оналик ва болаликни муҳофаза қилиш, фарзанд тарбиясида ота-онанинг хукуқ ва мажбуриятлари Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 46,63,64,65,66-моддаларида, шунингдек, маҳсус қонунларда ўз ифодасини топган.

Бугунги кунда давлатимизда кучли ижтимоий ҳимоя сиёсати олиб борилмоқдаки, унинг замирида инсон тақдири, келажак авлод, оила туради. Оила институтининг хукуқий негизлари Ўзбекистон Республикасининг Конституциясидан ташқари, Оила кодексида, Фуқаролик кодекси ва бошқа қонун ҳужжатлари билан бирга Ўзбекистон Республикаси Президентининг қатор ва фармонлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорларида ўз ифодасини топган.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 27.06.2018 йилдаги ПҚ-3808-сонли “Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги қарори қабул қилиниб, унда Ўзбекистон Республикасида оила институтини мустаҳкамлаш бўйича асосий йўналишлар белгилаб берилган, яъни куйидагилар:

– оила институтини мустаҳкамлашнинг

Мамалакатимиз мустақилликка эришгандан кейин ўз олдига хукуқий демократик давлат қуриш ва фуқаролик жамиятини шакллантиришни мақсад қилиб қўйди. Ўтган йиллар давомида жамиятимизда амалга оширилаётган демократик ислоҳотлар натижасида фуқаролик жамиятининг асосий институтлари босқичма-босқич шакллантириб келинмоқда.

Ҳозирги кунга келиб, юридик фанда ва демократик давлатлар тажрибасида фуқаролик жамияти ва унинг институтлари борасида музайян ёндашувлар ва тегишли амалиёт шаклланган. Фуқаролик жамияти ҳар бир мамлакатда бу борадаги умумэътироф этилган тамойиллар билан бирга, ҳар бир халқнинг миллий қадриятлари ва анъаналарини мужассамлаштирган ҳолда намоён бўлади ва ривожланади.

Фуқаролик жамияти тушунчаси ва мазмуни юзасидан хукуқшунос олим X.Одилқориев қуидагича фикр билдиради, яъни “фуқаролик жамияти – ҳар бир инсон манфаатини устувор билувчи, хукуқий анъана ва қонунларга хурмат мухити шакллантирилган, умуминсоний қадриятлар эъзозланган, инсон хукуқлари ва эркинликлари сўзсиз таъминланадиган, давлат ҳокимиятининг самарали жамоатчилик назорати механизмлари вужудга келтирилган, инсоний муносабатлар чукур маънавий – мадданий қадриятларга таянадиган эркин демократик хукуқий жамиятдир” деб ёзган эди.

Юкоридагилар билан бирга, фуқаролик жамиятида ижтимоий ҳаётга алоҳида аҳамият берилади. Унинг асосий мақсади инсон ҳаётини сақлаш, унинг мақсадларини, ҳаётий орзуларини, ниятларини шу жамиятдаги ташкилотлар, ижтимоий институтлар, гурухлар, оила ва бошқа бирлашмалар орқали амалга оширилади.

Фуқаролик жамияти институтлари тизимида оила биринчи ва бирламчи бўғин сифатида намоён бўлади. Биз қураётган адолатли фуқаролик жамиятида оила ўзига хос ижтимоий бирлашмани ташкил этади. Оиланинг бу хусусияти биринчи галда унинг жамият манфаатлари Билан боғлиқлиги ҳамда ижтимоий

институционал ва ҳуқуқий асосларини такомиллаштириш, ижтимоий шерикликни кучайтириш;

– замонавий оилани мустаҳкамлаш ва ривожлантириш масалалари бўйича фундаментал, амалий ва инновацион тадқиқотлар олиб бориш;

– демографик ривожланиши рағбатлантириш ва оила фаровонлиги даражасини ошириш;

– оиланинг тарбиявий-таълим салоҳиятини мустаҳкамлаш, жамиятда анъанавий оиласий қадриятларни сақлаш, оилаларда маънавий-ахлоқий муҳитни яхшилаш;

– оилаларга таъсирчан методик, консультатив ва амалий ёрдам кўрсатишнинг самарали тизимини яратиш.

Ҳар қандай жамият тараққиётининг муҳим омили, унинг бош бўгини –оилани мустаҳкамлаш, оила аъзоларини маънавий-ахлоқий жиҳатдан соғломлаштириш, уларнинг ўзаро муносабатларидаги ҳуқуқий ҳолатни барқарорлаштириш ва такомиллаштириб бориш муҳим аҳамиятга эгадир.

Мамлакатимизда демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамиятининг барпо этилиши жараёнида оилавий муносабатларнинг ҳуқуқий ҳолатини таҳлил қилиш, оила аъзоларининг ҳуқуқ ва бурчларини белгилаш, улар ўртасидаги шахсий ва мулкий муносабатларни тартибга солиб турувчи ҳуқуқий меъёрлар тизимини аниқлаш ва бу ҳақда фикр юритиш муҳим аҳамиятга эгадир.

Оила – бу эр ва хотиннинг ўзаро иттифоқида пайдо бўлган ижтимоий бирлик бўлиб, мана шу ижтимоий бирликнинг асосини ташкил қилувчи эр ва хотин, уларнинг фарзандлари, энг яқин туғишганларидан иборат кишилар гурухи оила аъзоларини ташкил қиласди.

Ҳар қандай оила мазкур оилага мансуб бўлган одамларнинг табиий, иқтисодий, ҳуқуқий, маънавий муносабатларига асосланган ижтимоий бирлиги ҳисобланади. Табиий муносабат дейилганда эр-хотинлик муносабатлари, бола қўриш, иқтисодий муносабат дейилганда – мулкий муносабатлар, яъни уй-рўзгор, ҳовли-жой ва бошқалар; ҳуқуқий муносабат дейилганда – никоҳни давлат йўли билан қонуний қайд этиш, никоҳ расмий тус олганда, эрнинг хотин олдида, хотиннинг эр олдида,

уларнинг иккаласи фарзандлари олдида, фарзандларининг ота-оналари олдидағи масъулиятли ва бурчли муносабатлари; манъавий муносабат дейилганда эр-хотин, ота-она ва болалар ўртасидаги меҳр-муҳаббат, меҳр-оқибат, одоб-ахлоқ, таълим-тарбия каби инсоний туйғулар ва талабларга асосланган муносабатлар назарда тутилади.

Демак, оила аъзолари бир-бирлари билан умумий турмуш, ўзаро иқтисодий-мулкий, ҳуқуқий, аҳлоқий, руҳий томондан боғланади. Оилавий муносабатлар, ижтимоий муносабатларнинг бошқа турларига нисбатан мустақил ҳодиса бўлиб, оиланинг ички ишларига ҳеч ким худа-беҳуда аралашишга ҳақли эмас. Шу боис ҳам оила муқаддас ва даҳлсиз ҳисобланади.

Жамият мустаҳкам, маънавий ва аҳлоқий жиҳатдан соғлом оиладан ғоятда манфаатдор. Шу боис жамият оилани мустаҳкамлаш, ижтимоий вазифаларни бажаришда, болаларни тарбиялашда оиласа кўмаклашиш, болали оилаларнинг ҳамда келин-куёвларнинг моддий, уй-жой ва майший шароитларини яхшилаш чораларининг ҳал этилиши муҳим аҳамиятга эга.

“Давлат органларининг, фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлиги тизимининг аниқ ишлари, қабул қилинаётган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва давлат дастурларини сўзсиз амалга ошириш, шунингдек, оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги муаммоларни ўз вақтида аниқлаш ва самарали ҳал қилиш ушбу мақсадларга эришишнинг муҳим шарти ҳисобанади”.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 36-моддасида – ҳар бир шахс мулқдор бўлишга ҳақли эканлиги белгилаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 23-моддасида эр-хотиннинг никоҳ давомида ортирган мол-мулклари, шунингдек, никоҳ қайд этилгунга қадар, бўлажак эр-хотиннинг умумий маблағлари ҳисобига олинган

мол-мулклари, агар қонун ёки никоҳ шартномасида бошқача ҳол кўрсатилмаган бўлса, уларнинг биргаликдаги умумий мулки ҳисобланishi кўрсатилган.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг Уй-жой кодекси 32-моддасида турар-жой мулқорининг оила аъзолари деб у билан до-

имий бирга яшаётган хотини (эри) ва уларнинг фарзандлари тан олинади. Эр-хотиннинг ота-онаси, шунингдек мулкдор билан доимий яшаётган оиласи фарзандлари, агар илгари бу хукуққа эга бўлмаган бўлсалар, факат ўзаро келишувга биноан мулкдорнинг оила аъзоси деб тан олинишлари мумкинлиги белгилаб кўйилган.

Бугунги кунда, амалиётда янги турмуш кураётган ёш оила келажакда қаерда, қайси уй-жойда яшашлари никоҳдан олдин бирон-бир хужжат билан хукуқий асослантирилмаяпти ёки уларнинг ота-оналари, яъни турар-жой мулкдорининг уларни оила аъзоси деб тан олиш бўйича ўзаро келишувлар тузилмаяпти. Шунингдек, ёш оиласи доимий яшashi мумкин бўлган турар жойдан рўйхатдан ўтказиш масаласи ҳам ҳал этилмасдан эътибордан четда қолиб кетмоқда.

Бунинг оқибатида эса, ёш оила биргаликда маълум муддат яшагандан кейин оилавий келишмовчиликлар сабаб аёл фарзанди билан уй-жойдан ҳайдаб чиқариляпти, халқимиз тили билан айтганда “чиқкан қиз чиғириқдан нари” бўлиб, аксарият холатларда унга ота-онасининг уйида ҳам яшаш учун жой топилмаяпти.

Мисол: Фарғона шахрида яшовчи фуқаро М.М. фуқаро А.Т. билан 2019 йилда қонуний никоҳдан ўтиб турмуш қуришган ва ҳозирда

1 нафар фарзанди бор. Лекин ўзаро оилавий келишмовчиликлар сабаб турмуш ўртоғи уни боласи билан уйдан ҳайдаб чиқарган. Шундан сўнг ота-онасининг уйида яшаган. Отаси вафот этиб кетган, қари касалманд онаси билан бирга акасининг оиласи билан бирга яшашга мажбур бўлган. Турмуш ўртоғи билан яшаган уйга киритиб қўйилишини сўраб судга мурожаат қилган ва суд уни уйга киритиш ҳақида тегишли хужжатларни расмийлаштириб берган. Лекин у кирмоқчи бўлган уйда турмуш ўртоғи бошқа аёл билан шаръий никоҳ асосида яшаб келаётганлиги сабабли уни уйга киритишмаган.

Марғилон шахрида яшовчи фуқаро С.Р. фуқаро А.Х. билан қонуний никоҳ асосида турмуш қуришган, 2 нафар фарзандлари борлиги, лекин ўзаро оилавий келишмовчилик сабаб, турмуш ўртоғи уни 14 ёшли қизи билан бирга уйдан ҳайдаб чиқарганлиги, ота-онаси вафот этиб кетганлиги, яшаш учун жойи бўлмаганлиги сабабли, ўзининг иш жойи, яъни нон цехида яшаб келаётганлиги, турмуш ўртоғи бошқа аёлга шаръий никоҳ асосида уйланиб яшаб келаётганлиги, уни қизи билан бирга уйга киритиб қўйилишини сўраб мурожаат қилган.

Мавжуд маълумотларга кўра, Мажбурий ижро бюросининг Фарғона вилоят бошқармасининг туман-شاҳар бўлимларига жорий йилнинг 9 ойи давомида уйга киритиш ва уйдан



чиқариш билан боғлиқ 582 та ижро хужжатла-ри келиб тушган.

Бизнинг фикримизча, бундай нохуш ҳо-латларнинг олдини олиш учун ривожланган хорижий давлатлар қонунчилигини ўрганиб ва миллий қадриятларимиздан келиб чиқсан ҳолда қонунчилигимизга айрим ўзгаришиш ва қўшимчалар киритиш орқали жамиятда уй-жойсиз қолган оналар сонини кескин камайтириш мақсадида қатъий ва дадил қадамлар ташлаш керак.

Ўзбекистон Республикаси Оила кодексининг 29-моддасида никоҳланувчи шахсларнинг ёки эр-хотиннинг никоҳда бўлган даврида ва (ёки) эр ва хотин никоҳдан ажратилган тақдирда уларнинг мулкий ҳукуқ ҳамда мажбуриятларини белгиловчи келишуви никоҳ шартномаси деб хисобланиши кўрсатилган. Қонуннинг 30 ва 31-моддаларида никоҳ шартномасини тузиш тартиблари ва никоҳ шартномасининг мазмуни кўрсатиб қўйилган. Бироқ амалиётда бугунги кунда қонуннинг ушбу та-лаблари умуман ишламаяпти.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қуйидаги-ларни таклиф қилмоқчимиз:

#### **АДАБИЁТЛАР:**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2018.
2. Юридик фанлар Ахборотномаси. – Тошкент.: ТДЮУ, 2017.
3. Қаюмов А. Вояга етмаган қонунбузарлар ва уларнинг географик тавсифи. – Тошкент.: ИИВ Академияси, 2003.
4. <https://www.msp.gov.ua/rus/>
5. <https://www.un.org>
6. <https://www.oecd-ilibrary.org>
7. <https://likumi.lv>

Биринчидан, никоҳ шартномасини тузиш тартиблари қонунисти норматив ҳукукий ҳужжатлар билан тартибга солинишини;

Иккинчидан, никоҳ шартномаси тузилишида Оила марказларининг масъул этиб қўйилиши, улар никоҳга кирувчи шахслар ўртасида медиатор бўлиб қатнашишини;

Учунчидан, никоҳ шартномасини тузища никоҳга кирувчиларнинг ота-оналари ва қонуний вакиллари ҳам иштирок этишини;

Тўртинчидан, никоҳ шартномасида никоҳланувчи шахсларнинг ҳукуқ ва мажбуриятлари қатъий белгилаб қўйилиши, улар келгусида қаерда яшashi, моддий таъминоти, яшаш жойига доимий рўйхатдан ўтказилиши ва оиланинг келажагини белгилаб берувчи бошқа ҳолатлар ҳам тўлиқ кўрсатилиши керак.

Жамиятда мустаҳкам оиласларни шакллантириш, соғлом фарзандлар туғилиши, соғлом турмуш тарзига амал қилиш, боланинг оиласида яшаш ва тарбия олиш ҳукуқини таъминлаш, баркамол авлодни тарбиялашда мустаҳкам оиланинг ўрни ва роли муҳим аҳамият касб этади.

**“ЎЗБЕКИСТОНДА СУД  
ЭКСПЕРТИЗАСИННИГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ИЛМИЙ  
ИННОВАЦИОН ЕЧИМЛАРИ” МАВЗУСИДА  
ТАШКИЛ ЭТИЛГАН ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
КОНФЕРЕНЦИЯ ХУСУСИДА**





Жорий йилнинг 27-октябрь куни Адлия вазирлиги хузуридаги Х. Сулаймонова номидаги Республика суд экспертиза марказининг Суд-экспертлик илмий-тадқиқот институти томонидан суд ва хукуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари иштирокида “Ўзбекистонда суд экспертизасининг долзарб муаммолари ва уларнинг илмий-инновацион ечимлари” мавзусида илмий-амалий конференция ва оммавий ахборот воситалари ходимлари учун пресс-тур бўлиб ўтди.

Конференция онлайн ва оффлайн шаклда ўтказилиб, тадбирда суд ва хукуқни муҳофaza қилувчи идоралар, Озарбайжон, Беларусь, Киргизистон ва Ўзбекистон Республикалари суд экспертиза муассасаларининг раҳбар ва масъул ходимлари ҳамда бошқа ташкилот вакиллари иштирок этди.

Конференцияда суд экспертилик фаолиятининг илмий-назарий ҳамда услубий ва хукуқий асосларини такомиллаштириш, суд экспертилик фаолиятида янги инновацион технологияларни жорий этиш ва ахборот хавфсизлиги сиёсати, криминалистик экспертизаларни ўтказиш имкониятлари ва ривожланиш истиқболлари, суд мухандислик-техник, одам ДНКси суд-биологик экспертизаларининг замонавий имкониятлари, суд-сиёсатшunos-

лик-лингвистик ва филологик экспертизала-рининг замонавий усуллари, суд-товаршунос ва иқтисодий экспертизаларнинг муаммолари, суд фонография ва компьютер-техник экспертизаларининг замонавий имкониятлари каби мавзулар бўйича муаммолар муҳокама қилинди.

Конференциянинг ялпи мажлисида Адлия вазири ўринбосари А. Каримов, Олий Мажлис Конунчилик палатаси депутати А. Ҳамраев, Беларусь Республикаси давлат суд экспертиза қўмитасининг “Илмий-амалий маркази” бошлиги В. Позняк (онлайн) ҳамда Х. Сулаймонова номидаги Республика суд экспертизаси маркази директори А. Халиловларнинг кириш сўзлари тингланди. Шундан сўнг сўз маърузачиларга берилда. Конференциянинг ялпи мажлисида Жиноят ишлари бўйича маҳсус билимлардан фойдаланиш самарадорлиги: муамма ва уларнинг ечими, Ракамли криминалистика далилларини қайд этишнинг айrim муаммолари, Суд экспертизасида замонавий технологиялардан фойдаланишнинг истиқболлари, Суд экспертилик фаолиятида янги инновацион технологияларни жорий этиш ва ахборот хавфсизлиги сиёсати, Толали материаллар ва улардан тайёрланган буюмлар экспертизаси хуносаларига автомобил транспорт воситаси-



ни мутахассис томонидан кўриқдан ўтказиш жараёнидаги иш сифатининг таъсири, Суд экспертилик фаолиятини стандартлаштириш соҳасидаги халқаро ҳамкорликнинг устувор йўналишлари, Қирғизистон Республикасида лингвистик экспертизанинг кўлланилиши ҳамда Ўзбекистонда суд-экспертизасининг долзарб муаммолари ва уларнинг илмий-инновацион ечимларига оид таклифлар мавзуларida маърузалар тингланди.

Конференция куннинг иккинчи ярмида 2 та секцияга ажратилган ҳолда давом эттирилиб, белгиланган йўналишларда маърузалар тингланди. Маъруза ва сўзга чиққанлар томонидан суд экспертизасининг илмий-инновацион ечимларига доир таклифлар билдирилди.

Конференция сўнгидаги маъруза ва таклифлар билан қатнашган энг яхши иштирокчиларга сертификатлар топширилди.



### Конференциядан лавҳалар



